

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI  
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**

**Bakalavriatning o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi uchun**

**« O‘ZBEK ADABIYOTI »**

**fanidan**

**MA‘RUZALAR MATNI**

**Tuzuvchi: Hamza Allambergenov**

**NUKUS – 2021**

## 1-mavzu: **KIRISH: FANNING MAQSAD VA VAZIFALARI**

### **Reja:**

1. “Adabiyot tarixi” tushunchasi va uning xalqimiz tarixidagi o‘rni.
2. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixini davrlashtirish tamoyillari.
3. Xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyot.

**Mavzuga oid tayanch so‘z va tushunchalar:** xalq tarixi, xalq og‘zaki ijodi, adabiyot tarixi, adabiy aloqalar, badiiy adabiyot, tarjima adabiyoti, mumtoz adabiyot, adabiyotni davrlashtirish, nazm, nasr, epos, o‘zbek adabiyoti bosqichlari, davrlashtirish, B.To‘xliyev, N.Mallayev, folklore, an’anviylik, variantlilik, badihaguylik, anonimlik

### **1. “Adabiyot tarixi” tushunchasi va uning xalqimiz tarixidagi o‘rni.**

O‘zbek xalqi boy adabiy yodgorliklarga ega. O‘tmishda yaratilgan mo‘tabar og‘zaki va yozma adabiyotimiz namunalarini chuqur o‘rganish va bilish har bir o‘quvchining, shu yurtda yashayotgan kishilarning ulug‘ burchidir. Bugungi kunda, yurtimiz ozodlikka, xalqimiz istiqbolga erishgandan so‘ng, o‘tmish merosimizga e’tibor yanada kuchaydi. *Prezidentimiz I.A.Karimov* o‘zlarining qator suhbatlari, nutq va kitoblarida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan merosni o‘rganishning ahamiyatini qayta-qayta ta’kidlamoqdalar. Zero, xalqimiz mustaqillikka erishgandan so‘nggina bizga noma’lum ko‘pgina ulug‘ shoirlarimiz, olimlarimiz, muhaddislarimiz haqida ma’lumotga ega bo‘ldik. Asarlarini o‘rgana boshladik.

O‘zbek adabiyoti qadimiy tarixga ega. *Adabiyot* – jamiyat hayotining o‘ziga xos ifodasi. U jamiyat tarixidagi jiddiy o‘zgarishlarni xilma-xil obrazlar vositasida turli badiiy shakllarda aks ettiradi. Adabiyot, avvalo, so‘z va ruhiyat san’atidir. U inson ruhiyatidagi nihoyatda nozik tovlanish va ohanglarni ilg‘ashga, ularni aks ettirishga intiladi. Dunyoda insonlar bir-birlariga o‘xshamaganlariday, ularning qalb kechinmalari ham takrorlanmasdir. Badiiy adabiyot bilan adabiyot tarixi shug‘ullanadi.

***O‘zbek adabiyoti tarixi*** nozik ruhiy holatlarni mahorat bilan aks ettiradigan durdonalarga boydir. Ular hozirgi avlod ruhiyatida, qalbida ham hayajon uyg‘ota oladi, ularning ma’naviy boyishlariga tegishli hissa qo‘sha oladi. Ular ma’naviy kamolotga xizmat qiladi.

*Adabiyot tarixi* fani badiiy adabiyotning tarixiy taraqqiyot jarayonini o‘rganadi va o‘rgatadi. Har bir xalqning o‘z tarixi, madaniyati, san’ati va adabiyoti bor. Shunga ko‘ra, adabiyot tarixi ma’lum bir xalqning, shu adabiyotni yaratgan xalqning nomi bilan ataladi.

O‘zbek xalqi ma’naviy madaniyatining katta va ajralmas bir qismi o‘zbek adabiyotidir.

*O‘zbek adabiyoti tarixi* o‘zbek xalqining qadim zamonlaridan boshlab hozirgi kunga qadar yaratgan badiiy adabiyotini o‘z ichiga oladi. Adabiyotshunoslikda o‘zbek adabiyoti tarixi ikki nom asosida tilga olinadi:

1. O‘zbek mumtoz adabiyoti. Bunda eng qadimgi davrlardan boshlab, XX asr boshlarigacha bo‘lgan davr nazarga olinadi.

2. Hozirgi zamon o‘zbek adabiyoti yoki XX-XXI asrlar o‘zbek adabiyoti.

O‘zbek adabiyoti tarixi xilma-xil tur va janrdagi badiiy asarlarni o‘z ichiga oladi. Lirik va epos o‘tmish o‘zbek adabiyotining asosiy turlaridir. G‘azal, muxammas, musaddas, noma, ruboiy, doston, hikoyat va boshqalar keng tarqalgan adabiy janrlardir. O‘zbek adabiyoti tarixi xilma-xil adabiy *tur va janrlarning shakllanishi va rivojlanishi tarixi hamdir.*

O‘tmish o‘zbek adabiyoti bir qator *memuar va tarixiy asarlarni* ham o‘z ichiga oladi. «Boburnoma», «Shajarai turk», «Shajarai tarokima», «Firdavs ul-iqbol» va boshqalar shular jumlasidandir.

O‘zbekiston *mustaqillikka erishgandan so‘ng*, o‘tmish adabiyotimizga e’tibor kuchaygani bois Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy, Imom Fazzoliy, Bahouddin Naqshband, So‘fi Olloyor, Haziniy, Husayniy, Amiriy, Feruz kabilarning nomlari xalqqa keng ma’lum qilindi. Asarlari chop etildi. Buyuk hurmat va ehtirom ko‘rsatildi.

## **2. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixini davrlashtirish tamoyillari.**

Adabiyot tarixi xalq tarixining ajralmas bir qismidir. Badiiy adabiyot taraqqiyoti jamiyatning umumiy taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqdir. Adabiyotni davrlashtirish asosida o‘rganish maqsadga muvofiq ko‘riladi. Adabiyotshunosligimizda adabiyotni davrlashtirish muammolidir. ***Adabiyotni davrlashtirish***ga nima asos qilib olinadi? Mana bu savolga aniq javob berish qiyin. Ayrim mutaxassislar adabiyot tarixi bosqichlarini podsholarning, sulolalarning hukmdorlik davri bilan, boshqalari esa yirik tarixiy voqealar bilan bog‘lashadi. Ba’zi olimlarimiz prof. N.Mallaev o‘zbek adabiyoti tarixini, bir tomondan, jamiyatning umumiy taraqqiyot qonunlari, o‘zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy hayotdagi taraqqiyoti, ikkinchi tomondan, adabiyot tarixi taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini: badiiy adabiyotning ijtimoiy mohiyati, vazifasining o‘sib borishi, adabiy tur va janrlarning shakllanishi, taraqqiy etishi hamda so‘z san’atining boshqa jihatlarini takomiliga xos xususiyatlarni ko‘zda tutib bosqichlarga ajratish kerakligini ko‘rsatib o‘tishgan.

*Prof. B.To‘xliiev* adabiyot tarixini quyidagicha davrlashtirishni tavsiya etadi:

1. Eng qadimgi adabiy yodgorliklar «Avesto», «Alpomish» va b.
2. Ilk o‘rta asrlar adabiyoti «Kultegin» bitiklari va b.
3. O‘rta asrlar adabiyoti IX-XVI asrlar:
4. Temuriylar davri adabiyoti.
5. A.Navoiy va uning davri adabiyoti.
6. XVII-XIX asrlar adabiyoti.
7. XX asr adabiyoti.

(B.To‘xliiev. O‘zbek adabiyoti. Darslik. 9-sinf. T., 2000 y. 13 bet.)

*Professor N.Mallaevning* oliy o‘quv yurti talabalari uchun chiqargan darsligida quyidagi bosqichlar berilgan:

1. Eng qadimgi adabiy yodgorliklar.

2. X-XI asrlar adabiyoti.
3. XI asrdagi va XIV asr boshlaridagi adabiyot.
4. XIV asr o'rtalaridan XVII asrgacha bo'lgan adabiyot.
5. XVII asrdan XIX asrning o'rtalarigacha bo'lgan adabiyot.
6. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi adabiyot.

Eng qadimgi adabiy yodgorliklar Markaziy Osiyo hududida qadimdan yashagan o'zbek, tojik, turkman va boshqa xalqlarning adabiy yodgorliklaridir. Keyingi taraqqiyot bosqichlaridagi adabiyot esa bevosita o'zbek xalqi tomonidan yaratilgan adabiyotdir.

### **3. Xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot.**

"Folklor" inglizcha so'z bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi quyidagicha: folk – xalq, lore – donishmandlik. Go'zallik qonunlari asosida xalq tomonidan yaratilgan har qanday ijod mahsuli tushunilishi -terminning keng ma'nosidir. Bunda xalq san'ati, amaliy san'at, musiqa san'ati, raqs san'ati, kashtachilik kabi go'zallik qonunlari asosida yaratilgan barcha ijod mahsuli tushuniladi. Atamaning tor ma'nosida esa faqat xalq og'zaki poetik ijodi, ya'ni xalq tomonidan yaratilgan og'zaki badiiy so'z san'ati tushuniladi.

Xalq og'zaki ijodi ham, ma'lumki, adabiyot, og'zaki adabiyot, ya'ni so'z san'ati. Uning adabiyotning boshqa ko'rinishi – yozma adabiyot bilan umumiy bo'lgan tomonlarini ham yodda tutmoq lozim. Mana shu jihatdan qaraganda ular orasida quyidagi umumiylikni kuzatish mumkin:

- Har ikkisida ham so'z san'ati, tasvir vositasi so'zdir;
- Har ikkisida ham hayot va undagi voqea-hodisalar tasvirlanadi;
- Voqealar ma'lum bir estetik prinsiplarga asoslangan holda tasvirlanadi;
- Hayot va uning lavhalari badiiy obrazlar orqali tasvirlanadi;
- Obraz va obrazlilik umumiyligi mavjud;
- Tasvir vositalari umumiyligi mavjud;
- Adabiy tur umumiyligi mavjud;
- Vazifa mushtaraqligi mavjud: ta'limiy, tarbiyaviy, estetik vazifalar umumiydir;

Ayni bir paytda folklorning o'ziga xos tomonlari ham bor bo'lib, bu belgilar quyidagilardan iboratdir:

1. Og'zakilik. Folklor og'zaki ijoddir. Bu uning yetakchi belgisi sanaladi. Xuddi shu og'zakilik folklor namunalarning keng tarqalishi va ommalashuvida muhim faktor sifatida xizmat qiladi. Folklor namunalari paydo bo'lish nuqtai nazaridan qaraganda ham og'zakidir, u og'zaki vujudga keladi, badiiy sayqal topishi, qayta-qayta qo'lanishi ham og'zaki kechadi: og'izdan og'izga o'tib borish jarayonida har bir ijod namunasi tobora badiiylashadi, polsemantik ma'no kasb eta boradi. Bu esa badiiy so'z san'atining asosiy xususiyatlaridan sanaladi.

2. Folklorning yana bir o'ziga xos belgisi uning kollektiv ijod mahsuli ekanligidir.

3. Folklorning navbatdagi o'ziga xos belgisi uning an'anaviyligida ko'rinadi. An'anaviylik tufayli badiiy ijod namunalari matnida nisbatan barqaror ifoda yo'llari qat'iy lashadi. Bu narsa tasvirning poetik vositalarida ham doimiylik kasb etadi.

4. Variantlilik – folklorning o'ziga xos belgilaridan biridir. Turli urug'-qabilalar o'zlarining dunyoqarashi, yashash va fikrlash tarzi, hamda ruhiy dunyosi bilan o'zaro farqlanadi. Mana shu farqlar turli variantlar kelib chiqishqga olib keladi.

5. O'zgaruvchanlik folklorga xos boshqa belgilarning, xususan, og'zakilik, kollektivlik, badihago'ylik kabi xususiyatlarning mahsuli sifatida vujudga keladi. Shuningdek, bunda jamiyat rivojining ham o'rni bor.

6. Anonimlik folklorning o'ziga xos belgilaridan biridir.

Xullas, 1846 yili ingliz folklorshunosi tomonidan fanga atama sifatida olib kirilgan "folklor" so'zi lug'aviy jihatdan xalq va donishmandlik ma'nolarini anglatib, fanda xalq tomonidan yaratilgan san'at asarlarini ifodalaydi. Bu haqdagi ilm esa folklorshunoslik deb yuritiladi. Yozma adabiyot bilan umumiy tomonlari mavjud bo'lganidek, o'ziga xos xususiyatlari ham mavjuddir.

O'zbek adabiyoti tarixi «Tohir va Zuhra», «Bo'z o'g'lon», «Yusuf Ahmad» kabi xalq kitoblarini ham o'z ichiga oladi. Bular folkloristikaning ham, adabiyot tarixining ham predmetidir. Tarjima adabiyoti ham o'zbek adabiyoti tarixining muhim bir qismini tashkil etadi. O'zbek xalqi asrlar davomida ko'pgina xalqlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lib keldi. Shu aloqalarning mevasi sifatida tarjima adabiyot vujudga keldi. O'zbek tiliga tojik, ozarbayjon, Eron, hind, arab, rus va boshqa xalqlarning ko'p badiiy asarlari va tarix kitoblari tarjima qilindi. Nizomiyning «Xisrav va Shirin», «Haft paykar», Sa'diyning «Bo'ston», «Guliston», Jomiyning «Bahoriston», «Yusuf va Zulayho», Hiloliyning «Shoh va Gado», shuningdek, «Kalila va Dimna», «Ming bir kecha», «Ravzatus safo», «Badoyi-ul-vaqoe» va boshqalar shular jumlasidandir.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Badiiy adabiyotning xalq hayoti bilan bog'liqligini qanday tushunasiz?
2. Badiiy adabiyotning o'ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
3. O'zbek mumtoz adabiyoti nima, uning tarkibiy qismlari deganda nimani tushunasiz?
4. O'zbek mumtoz adabiyoti qaysi fanlar bilan bog'liq?
5. Adabiyotni davrlashtirish nimaga asoslanadi?
6. Folklor nima?
7. Folklor va yozma adabiyotning umumiy tomonlari nimalarda ko'rinadi?
8. Og'zakilik deganda nimani tushuniladi?

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik. Sh jild. - T.: Fan, 1978.
2. Asrlar nidosi. - T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982.
3. Fitrat. O'zbek adabiyoti namunalari. - T.: 1928.
4. Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti. - T.: 1961.
5. X.Razzoqov, T.Mirzaev, O.Sobirov, K.Imomov. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent, 1980.
6. T.Mirzaev va boshqalar. O'zbek xalq, og'zaki poetik ijodi. Toshkent, 1990.

## 2-MAVZU: ENG QADIMGI ADABIY YODGORLIKLAR

### Reja

1. Eng qadimgi adabiy yodgorliklar
2. Qadimgi mif va afsonalar
3. Kayumars va Jamshid obrazlari
4. Gershasp va Elikbek obrazlari
5. Qahramonlik eposlari. “To‘maris va “Shiroq” rivoyatlari

**Mavzuga oid tayanch so‘z va tushunchalar:** Og‘zaki va yozma adabiyot, mif, afsona, Bexustun, Bundaxishn, Dinkard, Kayumars, Jamshid, Siyovush, “Amorg va Sparetra”, “Zariadr va Odatida”, “Striangey va Zarineya”, To‘maris, Shiroq.

### 1. Eng qadimgi adabiy yodgorliklar.

Biz o‘zbek mumtoz adabiyotini davrlar asosida o‘rganilishini ta’kidlab, uning davrlarini ko‘rsatgan edik. Shu asosda birinchi bosqich «Eng qadimgi adabiy yodgorliklar» deb nomlangan edi.

O‘zbek xalqi boy adabiy merosga ega. Bu madaniy yodgorliklarni yaratgan ota-bobolarimiz, ularning yashagan joylari, urf-odatlari, tili va boshqalar har birimizni qiziqtiradi. Qadimgi madaniyat rang-barang shaklda bizgacha yetib kelgan. Og‘zaki va yozma adabiyot, tasviriy san‘at, me‘morchilik, ilm-fan va boshqalarda namoyon bo‘ladi bu yodgorliklar. Qadimgi Turonning tarixi va madaniyati haqida grek, xitoy, hind, arman va boshqa tarixchilarning kitoblarida *Avesto*, *Bexustun*, *Bundaxishn*, *O‘rxun-Enasoy* yodgorliklari kabi turli manbalarda, Beruniy, Narshaxiy va boshqa olimlar hamda tarixchilarning asarlarida ma’lumotlar saqlanib qolgan. Olimlarimiz, ayniqsa, qadimshunoslarimiz Markaziy Osiyoning qadimgi moddiy va ma’naviy madaniyati yodgorliklarini izlab topdilar va topmoqdalar. S.Tolstov rahbarligidagi Xorazm, Ya.Fulomov va V.Shishkin rahbarligidagi Varaxsha, M.Masson rahbarligidagi Termiz va Janubiy Turkmaniston va boshqa ekspeditsiyalar bu jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo kishilik madaniyati tarixining eng qadimgi beshiklaridan biridir. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillik o‘rtalaridagi Markaziy Osiyoning hududi Baqtriya, Xorazm, So‘g‘diyona, Marg‘iyona, Parfiya, Amudaryoning quyi oqimi, Zarafshon vohalari, Farg‘ona va boshqa joylarni o‘z ichiga olgan. Bu joylarda massagetlar, Xorazmiylar, so‘g‘dlar, Parfiyanlar va boshqalar yashar edilar. Mana shu qabilalar hozirgi Markaziy Osiyo xalqlarining ota-bobolaridir.

Qadimgi Markaziy Osiyoda turli kult va dinlar mavjud edi. Tabiat hodisalariga nisbatan dualistik qarash, ularni yaxshi va yomon, do‘st va dushman kuchlariga ajratish zaminida Mitra quyosh xudosi, Anaxita yer-suv ma’budasi va boshqa kultlar paydo bo‘ldi. Bu kultlar eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda vujudga kelgan zardushtiylik diniga qo‘shilib ketadi. Qadimgi Markaziy Osiyoda qisman bo‘lsa-da, Ellin Xudolari – Zevs, Afina, Poseydon, Apollon va boshqalar kulti, budda dini, moniy dini, yahudiy dini, nasroniylik va boshqalar tarqalgan edi. Arab xalifalari istilosidan keyin islom dini asosiy din bo‘lib qoldi.

Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda Markaziy Osiyo aholisining ko'pchiligi Eron tillari guruhiga kiruvchi shevalarda gaplashgan. Keyinroq turkiy tillar guruhi ham kengroq tarqala boshlaydi. Markaziy Osiyo xalqlari yozuvining tarixi qadim zamonlardan boshlanadi. Eramizdan oldingi birinchi ming yillik o'rtalarida Eron, Markaziy Osiyo va boshqa o'lkalarda oromiy yozuvi keng tarqala boshlaydi. Aleksandr Makedonskiy istilosidan keyin esa Markaziy Osiyoga grek yozuvi kirib keladi. Oromiy yozuvi negizida Avesto, Xorazm, so'g'd, kushan, run Urxun-Enasoy, uyg'ur va boshqa yozuvlar vujudga kela boshlaydi. Asosan xorazm va so'g'd yozuvlari qo'llanilgan. Urxun-Enasoy yoki «Turkiy run» deb nomlangan yozuv eramizning birinchi asrlarida vujudga keldi. U bilan oldinma-keyin uyg'ur yozuvi ham paydo bo'ldi.

## **2. Qadimgi mif va afsonalar.**

Ibtidoiy kishilar tabiat hodisalari va jamiyatdagi voqealarning tub sabablarini bilmaganlar. Qadimgi zamon kishisi ham tirikchilik qiyinchiliklari, tabiat bilan kurash qiyinchiliklari ostida xo'p ezilib tortgan. Kishi tabiatdagi yashin, dovul, suv toshqini, zilzila va boshqa hodisalarning mohiyatini tushunmas, ular natijasida kelgan ofatlardan dahshatga tushar edi. U er va osmon, oy va quyosh kabilarni jonli narsalar deb tasavvur qilar, ularga topinar, ayrim hayvonlarni muqaddas deb bilar edi. Ibtidoiy kishining tasavvurida tabiatda unga «do'st» va «dushman» bo'lgan turli xil kuchlar mavjud edi. U bu kuchlarni xudolar, ruhlar, devlar, jinlar singari kuchlar sifatida tasvirlaydi. Shu xilda ibtidoiy kishi olamning paydo bo'lishi, uning mohiyati va kundalik hayot haqida o'z xayoliy tasavvurini yaratadi. Go'yo tabiatda ulug' va foydali kuchlar quyosh va suv abadiy bo'lgan o'lka hamda ofat keltiruvchi kuchlar zulmat va kulfat abadiy bo'lgan o'lka bor emish.

Ko'pchilik mifologik obrazlar mana shu ikki o'lka va ular o'rtasidagi kurash fonida gavdalanadi. Bu mifologiya shunchalik chuqur ildiz otganki, u zardushtiylikdagi dualistik qarashda ham o'z ifodasini topadi, «Avesta» va boshqa diniy kitoblardan keng o'rin oladi. «Avesta», shuningdek «Bundaxishi»da aytilishicha, ikki olam: yaxshilik va yomonlik olami bor. Yaxshilik olamiga Axura Mazda (Xurmuz), yomonlik olamiga Angra Manyu (Axriman) boshchilik qiladi. Go'yo 3000 yil mobaynida bu ikki olam bir-biri bilan to'qnashmagan. Yaxshilik va nur olamini bilib qolgan Axriman unga qarshi kurash ochmoqchi bo'ladi. Xurmuz bu kurashning oldini olib, ikkinchi uch ming yillikda osmon, suv, er, o'simlik, hayvonlar va boshqalarni hamda birinchi insonni yaratadi. U davrda zulm ham, kasallik va o'lim ham bo'lmagan ekan. Shundan so'ng uchinchi davr (6000-8999)-kurash davri boshlanadi. Er yuzi turli kuchlarning to'qnashuv makoniga aylanadi. Axriman birinchi insonni o'ldirsa ham, lekin kishilik urug'ini yo'qotib yuborolmaydi. To'rtinchi davr (9000-11999)da yaxshilik va nur kuchlari yomonlik va zulmat ustidan g'alaba qozonadi.

Yaxshilik va yomonlik kuchlari o'rtasidagi kurash Mitra, Anaxita, Kayumars, Yima (Jamshid), Gershasp, Elikbek va boshqalar obrazida mujassamlashtirilgan.

Xalq tafakkuri va ijodining mahsuli bo'lgan afsona va miflar sharoit va voqealardan kelib chiqadi. Markaziy Osiyo va Eron xalqlari orasida qadimiy davrlardan keng yoyilgan afsonalardan biri «*Kayumars*»dir. Kayumars haqidagi

asosiy manba «Avesto». Uning mufassal bayoni, turli nusxalari haqidagi ma'lumotlar «Tarixi Tabariy»da berilgan. «Shohnoma», Navoiyning «Tarixi mulki Ajam» asarlarida bu afsona uchraydi.

### **3. Kayumars va Jamshid obrazlari.**

Kayumars – Gaya Martan. Beruniy Kayumars haqidagi afsonani bayon qilgan. Mifologiyaga ko'ra, Gaya Martan (Kayumars) er yuzida paydo bo'lgan birinchi odam bo'lib, go'yo u Axura Mazda (Xurmuz) tomonidan yaratilgan va ikki vujudan: ho'kizdan va odamdan tashkil topgan ekan. Insoniyatning ashaddiy dushmani bo'lgan Axriman Kayumarsni o'ldiradi. Kayumars jasadining ho'kiz qismidan 55 xil don, 12 xil o'simlik, sigir va ho'kiz, ulardan esa 272 xil foydali hayvonlar paydo bo'ladi; odam qismidan insonning erkak va ayol jinsi hamda metall vujudga keladi. Shunday qilib, Kayumars birinchi inson va insoniyat hayotining ibtidosi sifatida tasvirlanadi.

Kayumars yozma adabiyotda ham qayta-qayta ishlandi. Jumladan, u Firdavsiyning «Shohnoma»sida kishilarni zulmatdan, g'orlarda yashashdan qutqarib, uy-joy va shaharlar bino qilgan qahramon shoh sifatida gavdalantiriladi. Kayumars obrazi tasviriy san'atda ham ma'lum iz qoldirgan. 1932 yilda Tali Barzuda (Samarqand yaqinida) topilgan sopolga ishlangan surat shuni ko'rsatadi. Bu suratda gavdasining pastki qismi ho'kiz, yuqori qismi odam bo'lgan bir shakl tasvirlangan.

Yima (Jamshid) ham Kayumars kabi najotkor qahramon sifatida tasvirlanadi. «Avesta»da bayon etilishicha, u adolatli hukmron bo'lib, uning davrida qahraton sovuq va jazirama issiq ham, qarish va o'lish ham bo'lmagan ekan. Jamshid er yuzini 3 baravar kengaytiradi, chorvani va turli xil qushlarni nihoyatda ko'paytiradi... Biroq qahraton qish boshlanib, kishilarga ofat keltiradi.

*Jamshid* to'g'risidagi afsona. Jamshid «Avesto»da Yima. U adolatli, yer yuzini kengaytirgan, chorvani, turli qushlarni ko'paytirgan, kishilarni balolardan saqlagan, uy-joylar qurib, ariqlar chiqargan hukmdor sifatida tilga olinadi. Firdavsiy, Beruniy, Navoiylar Jamshid to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar beradilar. Prof. N.Mallaev «Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti» kitobida (T., 1974) Jamshid haqida mulohazalar yuritadi.

Xalqimizning sevimli bayrami Navro'z ham Jamshid nomi bilan bog'lanadi. N.Mallaevning fikricha, yetti yuz yil hukmronlik qilgan Jamshid zamonasida kishilar Ahrimanning zulmidan qutiladilar, muhtojlik, kasallik va o'lim yo'qolib ketadi. Jamshid er yuzini uch barobar kengaytiradi, chorva mollari va turli qushlarni ko'paytiradi.

### **4. Gershasp va Elikbek obrazlari.**

Gershasp obrazi. Bir qator qadimgi afsonalarda **Gershasp obrazi** o'limni enguvchi bahodir sifatida tasvirlanadi. Shunday afsonalardan birini quyida hikoya qilamiz:

Bir ajdar kishilarga ko'p baxtsizliklar keltiradi, qabilaning hayoti xavf ostida qoladi. Qahramon Gershasp ajdarga qarshi jangga o'tlanadi, ajdarning maskaniga qarab yo'l oladi. Gershasp tush chog'iga qadar ajdarni qidiradi, biroq uni topolmaydi. U o't qalab ovqat pishirmoqchi bo'ladi. Ajdar shunchalik katta ekanki, Gershasp ancha vaqt uxlab yotgan ajdarning ustida aylanib yursa ham, uni payqamagan ekan va o'z o'chog'ini uning ustiga qurgan ekan. O't ajdarning badanini qizitibdi, ajdar



vazmin qimirlay boshlabdi. Shundan keyingina Gershasp ajdar ustida kezib yurganini payqab olibdi. Lekin Gershasp vahimaga va sarosimalikka tushmabdi.

1902-yilda Qashqarda qadimgi og‘zaki adabiyotning «**Chistoni Elikbek**» degan muhim bir yodgorlik teksti topildi. Taxminan VIII-IX asrlarga mansub bo‘lgan bu asarda yomonlik kuchlariga qarshi mardona kurashib, kishilarni o‘limdan qutqargan Gershasp singari xalq bahodiri Elikbek obrazi yaratilgan. «Chistoni Elikbek»ning to‘la saqlanib qolmagan o‘sha tekstida quyidagilar hikoya qilinadi:

Jinlar Elikbekning qabiladoshlaridan ko‘p kishini qirib tashlaydi. Rakshosh nomli dahshatli dushman yuqumli kasallik tarqatadi. Fidokor Elikbek el-yurtini halokatdan qutqarib qolmoq uchun dushmanlarga qarshi jangga otlanadi.

Garchi Rakshosh bilan bo‘lgan jang tasviri matnda berilmagan bo‘lsa ham, asarning ruhi, shubhasiz, voqeaning Elikbek g‘alabasi bilan tugallanishidan dalolat beradi.

Qadimgi mif v afsonalarning izi Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan o‘zbek xalqi og‘zaki badiiy ijodiyotida shu kunga qadar yashab kelmoqda. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida o‘nlab mifologik va afsonaviy qahramonlar obrazi tasvirlanadi. Shunday obrazlardan biri Xubbi obrazidir. Xorazm mifologik afsonasida Xubbi suv xudosi va kishilarni halokatdan qutqaruvchi qahramon sifatida gavdalanadi.

Juda qadim zamonlarda, Faridun va hatto Jamshid zamonasidan burun, Amudaryoda Xubbi degan bir yigit bo‘lgan ekan. U bir qo‘li bilan baliq tutar, ikkinchi qo‘li bilan uni quyoshga tutib turar, baliq bir zumda pishar ekan. Xubbi shu xilda baliq eb, Amudaryoda 700 yil yashabdi, daryoni qo‘riqlabdi, biror yomon ruh, hattoki chivin ham daryoga yaqin yo‘lashga botinolmabdi. Xalq suvga ma‘mur bo‘lib, shod-xurram yashar ekan. Biroq Jamshid zamonasiga kelib, Xubbi g‘oyib bo‘libdi.

Farg‘ona vodiysida ham Xorazm mifologik qahramoni Xubbi obraziga o‘xshash Erxubbi obrazi yaratilib, ko‘p afsonalarda hikoya qilinadi. Qadim vaqtlarda kishilar Ohangaron (Toshkent vodiysi) daryosidan o‘tganda Erxubbidan madad so‘rar ekanlar.

Xuddi shuningdek, ayrim qadimgi shaharlarning bino bo‘lishi va nomi haqida ham shu kunga qadar turli afsonalar hikoya qilinadi. Shulardan biri III-IV asrlarda bino bo‘lgan Baraktom qal’asi haqidagi afsonadir.

Qadim zamonlarda Qoraqalpog‘istonning Qozog‘istonga chegaradosh bir vodiysida Barak degan zolim shoh yashar ekan. Shoh bir qasrida o‘zi tursa, ikkinchi qasrida katta ov burgutini saqlar ekan. Kunlardan bir kun qasrga burgutning onasi Anqo (mifik qush) kelibdi. Shoh kishilarning gapiga quloq solmay, ona-bolaning diydor ko‘rishiga xalaqit berib, burgutni ovga olib chiqmoqchi bo‘ldi. Burgut g‘azablanib, barakka chovut solibdi-da, uni osmonga ko‘tarib chiqib, erga tashlab yuboribdi. Barak shohning parchalangan jasadi o‘sha qasrda dafn qilinibdi. Vodiy xarob bo‘libdi. Karvonlar unga yaqin yo‘lamaydigan bo‘lib qolibdilar.

*Siyovush afsonasi.* Eron shahzodasi Siyovush va Turon podshohi Afrosiyob o‘rtasidagi munosabatlar ushbu afsonada o‘z ifodasini topgan. Siyovushning shuhrati ko‘proq Xorazm va Buxoroda yoyilgani manbalarda qayd etilgan. Uning ildizlari «Avesto»da uchraydi. S.Tolstov xabaricha, Siyovush miloddan oldingi XIII asrda

Xorazm davlatiga asos solgan. U Beruniy ma'lumotiga suyangan. Izoh: Siyovush afsonasi bayon qilinadi. Otasi Kaykovus, onasi Turon chegarasidan topilgan, o'g'li Kayxusrav Markaziy Osiyo xalqlarining vatanparvarlik, mardlik tuyg'ulari o'nlab qissa va eposlarda o'z ifodasini topgan. Amorg va Sparetra, To'maris, Shiroq, Zariadr va Odatida, Striangey va Zarineya, Iskandar haqidagi qissa va afsonalar shular jumlasidandir.

Amorg va Sparetrada Kirga qarshi kurashgan Amorg va uning rafiqasi Sparetraning jasorati, ayolning mardligi tasvirlansa, To'marisda Kirga qarshi jang qilgan mard va vatanparvar To'marisning jasorati, Shiroqda oddiy cho'ponning vatanparvarligi va mardligi, Zariadr va Odatida qissasida Midiya shohi Gistasping ukasi Zariadr va Amorg (Omarg)ning qizi Odatida sevgisi tasvirlanadi.

### **5. Qahramonlik eposlari. "To'maris va "Shiroq" rivoyatlari.**

Markaziy Osiyo aholisining chet el bosqinchilari tajovuziga qarshi olib borgan mardona kurashining badiiy ifodasidir. Eramizdan avvalgi VI asrda bir necha mamlakatlarni istilo qilgan ahmoniylar shohi Kir Markaziy Osiyoga bostirib kiradi. Markaziy Osiyo aholisi, ayniqsa To'maris boshchiligidagi massaget qabilalari kirga qarshi mardona kurash olib boradilar. Kir qo'shini engiladi va uning o'zi 529 yilda jang maydonida o'ldiriladi. Shu voqealar **To'maris** tarixiy-qahramonlik eposining mazmunini tashkil etadi. Afsuski, bu eposning asli bizgacha etib kelmagan; uning mazmuni grek tarixchisi Gerodotning (484-425) «Tarix» kitobida hikoya qilib qoldirilgan.

To'maris boshliq massagetlar qattiq jangga kirib Kir qo'shinini yengadilar, uning o'zini o'ldiradilar. To'maris Kirning boshini qon bilan to'lg'azilgan meshga solar ekan, o'z kurashiga yakun yaasb: «Ey nomard, sen meni-jangda seni halollik bilan engib chiqqan bir ayolni-makkorlik bilan o'g'lidan judo qilib, farzand dog'ida kuydirding, sen umring bo'yi qonga to'ymading, men o'z ontimga amal qilib seni qon bilan sug'ordim. Birovning yurtiga zo'rovonlik bilan bostirib kirganlarning jazosi shu!» deydi.

To'marisning keyingi so'zlari eposning g'oyasiga yakun yasaydi, bosqinchilarga qarshi xalqning qat'iy hukmini ifodalaydi. Bu eposda osoyishtalik urushni, adolat zulmni, mardlik va shijoat hiylakorlik va razillikni engadi. Kishilarning eng yaxshi xislatlari va ezgu niyatlari xalq qahramoni To'maris qiyofasida mujassamlashadi.

Gerodot, Kteziy va boshqa tarixchilar Markaziy Osiyo qabilalarida, jumladan massagetlarda ijtimoiy hayotning turli sohalarida xotin-qizlarning katta o'rin tutganini so'zlaydilar. Shuningdek, Xitoy sayyohi Chjan Syanü (eramizdan avvalgi II asr) Davan (Farg'ona)dagi xotin-qizlarning mavqei haqida so'zlab, «erkaklar biror qaror qabul qilar ekanlar, ular o'z xotinlarining maslahatiga quloq solar edilar»deydi.

**"Shiroq" eposi** ham, «To'maris» kabi Markaziy Osiyo aholisining chet el bosqinchilariga qarshi qahramonona kurashi voqealari zaminida vjudga keldi.

Qahramon massagetlar Kir qo'shinini tor-mor qildilar. Lekin keyingi ahmoniy shohlari bundan saboq olmadilar, ular Markaziy Osiyoga bostirib kirish va el-yurtni talashni davom ettirdilar. Doro I (521-485) shunday yovuz shohlardan biri edi. Shak

qabilalari Doroga qarshi 513 yilda katta qo'zg'olon ko'targan edilar. Shu voqea «Shiroq» eposiga asos bo'lgan bo'lsa kerak.

«To'maris» kabi «Shiroq»ning ham asli saqlanmagan. Uning qisqacha mazmuni grek tarixchisi Polien (eramizdan avvalgi II asr)ning «Harbiy hiylalar» kitobida hikoya qilinadi.

Doro baland qoyaga chiqib Appolon (quyosh xudosi)dan yomg'ir so'raydi. Yomg'ir yog'ib, qolgan-qutgan askarlar meshlarini suvga to'ldirib, cho'l dahshati va halokatidan zo'rg'a omon qoladilar.

Shiroqning dushmani bepoyon cho'l-biyobonga olib borishi Markaziy Osiyo aholisining qadim zamonlarda dushmanlarga qarshi qo'llagan harbiy taktikasini eslatadi. Grek tarixchilarining ma'lumotlariga ko'ra, o'rta osiyoliklar Aleksandr Makedonskiy qo'shiniga qarshi kurashda ham ana shunday taktikani qo'llagan ekanlar.

Jonajon qabila va ona tuproq Shiroqqa mislsiz kuch va temir iroda baxsh etgan edi. Eftalit eposida ham vatanining dushmanlari ustidan g'alaba qozonish uchun o'zini halokatga mahkum etgan Zopir obrazi yaratilgan shunga o'xshash hikoya Beruniy tomonidan ham keltirilgan.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Eng qadimgi adabiy yodgorliklarga nimalar kiradi?
2. Qadimgi madaniyat deganda nimani tushunasiz?
3. Ilmiy ekspeditsiyalar nima?
4. Xalqimizning qadimgi san'ati nimalarda ko'rinadi.
5. Qadimgi Turon xalqlari yozuvi, tili, ilm-fani haqida nimalarni bilasiz?
6. Mif va afsona nima, u qaysi manbalar orqali yetib kelgan?
7. Qadimgi qo'shiq va lirik she'rlar nima?
8. Qahramonlik eposi nima?
9. Kayumars, Jamshid, Rustam, Siyovush, To'maris, Shiroq afsonalarini tahlil eting.

#### **Adabiyotlar:**

1. A.Qayumov. Qadimiyat obidalari. T., 1972.
2. B.To'xliiev. O'zbek adabiyoti. 9-sinf. Darslik. T., 2000.
3. Darsliklar.
4. G'.Akramov. Mif va yozma adabiyot munosabatiga doir. O'zTA jurnali. 1996. №2-4.
5. I.A.Karimov. Istiqlol va ma'naviyat. Toshkent, 1994.
6. M.Ishoqov va boshqalar. O'lmas obidalar. T., 1989.
7. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit turk. T., 1960-63.
8. N.Rahmon. Turk xoqonligi. T.,1993.
9. Qadimiy hikmatlar. T., 1987.
10. R.Vohidov, H.Eshonqulov. Mumtoz adabiyot-hikmat xazinasini. Buxoro, 2001.

### **3-mavzu: ENG QADIMGI YOZMA ADABIY YODGORLIKLAR. AVESTO**

#### **Reja:**

1. “Avesto” – Markaziy Osiy xalqlarining mushtarak yozma yodgorligi.
2. “Avesto” – zardushtiylikning muqaddas kitobi.
3. “Avesto”ning saqlanib qolgan qismlari va ilmiy ahamiyati.
4. “Avesto”ning tarixiy-ma’rifiy ahamiyati.

**Mavzuga oid tayanch so‘z va tushunchalar:** Markaziy Osiyo, T.Mahmudov, Zardusht, Ovrupa, «Avesto», «Avesto»ning yurti, Yasna, Yasht, Vandidod, Got, Visparad, Nask.

#### **1. “Avesto” – Markaziy Osiy xalqlarining mushtarak yozma yodgorligi.**

Avesto» Turon-u Eron xalqlarining mushtarak yodgorligidir. (Unga oid nazariy ma’lumotlar «Avesto» kitobining so‘nggida T.Mahmudov tomonidan yozilgan «Avesto haqida» maqolasida keltirilgan: T.Mahmudov. «Avesto» haqida. Avesto. T., 2001).

Ovrupada Zardusht ta’limotining «Zoroastr» - «Zoroastrizm» shaklida yoyilib ketishiga sabab bu ism yunon tilidagi «stron» (yulduz) so‘ziga o‘xshashligidir. Qadimgi rivoyat hamda manbalarda Zardusht donishmand - astrolog sifatida qayd etilib, uning ta’limoti G‘arbga tomon tarqalgach, «Zoroastrizm» tarzida zikr etila boshlagan.

«Avesto»ning yurti haqida turlicha fikrlar bildirilgan. Ba’zi olimlar zardushtiylikning vatani Parfiya (Turkmaniston), yana boshqalari Midiya, Sharqiy Eron , Baqtriya desalar, Struve, Trever, Rapoport, Oldenburg, Proxorov, Meri Boys, Dyakonov, Bartold, Lukonin, Avdiev singari olimlar Turonzaminda (Xorazm, Baqtriya, So‘g‘diyona, Farg‘ona) paydo bo‘lib, so‘ngra Eron va boshqa mamlakatlarga tarqalgan degan fikrni bildiradilar.

Zardushtiylik bo‘yicha 4 tomlik asar muallifi Meri Boys (ingliz) ham otashparastlar dinining muqaddas kitobi «Avesto» qadimgi Xorazm vohasida paydo bo‘lganini qayd etadi. Bu faraz B. G‘ofurov, N.Mallaev, H.Homidov, A.Qayumov, Y.Jumaboev, M.Is‘hoqov, A.Saidov, F.Sulaymonova kabilarning tadqiqotlarida ham o‘z ifodasini topgan.

#### **2. “Avesto” – zardushtiylikning muqaddas kitobi.**

«Avesta» zardushtiylik (zoroastrizm) dinining muqaddas kitobidir. Zardushtiylikning kurtaklari ibtidoiy jamoa davrida vujudga keldi. Zardushtiylik dini quldorlik va ilk feodalizm davrida O‘rta Osiyo, Eron va Ozarbayjonda asosiy diniy e’tiqodlardan biri sifatida keng tarqaldi, bu din sinfiy jamiyatda, ibtidoiy jamoa davridagi ayrim demokratik elementlarini saqlab qolgan bo‘lishiga qaramay, quldorlar va feodallarning dunyoqarashi va manfaatlarini ifodaladi. Arab bosqinchilari istilosi (VII-VIII asrlar)dan so‘ng ham zardushtiylik dini birmuncha vaqt saqlanib qoldi.

«Avesta» zardushtiylikning muqaddas kitobi bo'lishi bilan birga, u uzoq asrlarning tarixi, iqtisodiy-ijtimoiy hayoti, madaniyati, tili, yozuvi va xalq og'zaki ijodining manbai, muhim yodgorligi sifatida qadimgi O'rta Osiyo, Ozarbayjon, Eron va boshqa mamlakatlarni o'rganishda nihoyatda katta ahamiyatga egadir.

«Avesto»ning, xususan, uning qadimgi qismlarining vujudga kelgan joyi masalasi juda munozaralidir. Bu munozara dastavval «Avesto»ning asosini tashkil etgan zardushtiylikning paydo bo'lishi haqijagi tortishuvlar bilan bog'liqdir. Bu masalda olimlar o'rtasida bir-biriga qarama-qarshi ikki xil qarash bor. Bu qarashlarning biri - zardushtiylik Midiyadan tarqalgan deb hisoblovchi «G'arbiy» nazariya bo'lib, ikkinchisi - zardushtiylik dastlab O'rta Osiyoda paydo bo'lgan degan «Sharqiy» nazariyadir. O'tmishning va hozirgi davrning ko'pchilik sharqshunoslari «Sharqiy» nazariya tarafdorlaridirlar.

Tarixiy faktlar, lingvistik ma'lumotlar «Sharqiy» nazariyaning to'g'riligini quvvatlaydi va isbot qiladi. Xuddi shuningdek «Avesta»dagi geografik atamalar ham uni Midiya bilan emas, balki O'rta osiyo bilan bog'laydi. Rivoyatlarga qaraganda zardushtiylikning asoschisi bo'lgan Zardusht - Zardushtaning tug'ilgan mamlakati ta'rifida «Avesta»da bunday deyiladi: U shunday «mamlakatki, u erda son-sanoqsiz qo'shinlarga bahodirlar sardorlik va yo'l boshchilik qiladi, o'tloqlar va suvga serob baland tog'lar chorvachilik uchun zarur bo'lgan barcha narsani etkazib berib turadi. U erda sersuv chuqur ko'llar bor, kema qatnaydigan keng daryolar (bu daryolar Amudaryo va Sirdaryodir) o'zlarining to'liqini suvlarini shiddat bilan Iskat (assuriycha «assuriycha» «Ishkuzan» - Skifiya), Pourut (Qobil daryosi vodiysi), Mour (Marv), Xareva (Ariya), Gav (So'g'ddagi bir oblast), So'g'da (So'g'd), Xvayrizm (Xorazm) mamlakatlariga eltadi».

«Avesto», shubhasiz, O'rta Osiyo doirasi bilan chegaralanib qolmadi. U uzoq tarixiy tarqqiyot bosqichini kechdi; zardushtiylikning Eron, Ozarbayjon va boshqa o'lkalarga tarqalishi bilan «Avesta» ham u joylarga kirib bordi; unga turli o'zgarish va yangiliklar kiritildi. «Avesta»ga O'rta Osiyo xalqlarining (tojiklar, turkmanlar va o'zbeklarning) qadimgi ota-bobolari asrs asos solishi bilan birga, unga eronliklar ham, ozarbayjonlar ham katta hissa qo'shdilar. Bu «Aevsta»ga ma'lum mushtarak yodgorlik tusini berdi.

An'anaviy ma'lumotlarga qaraganda, «Avesta» eramizdan avvalgi VII asrning oxiri va VII asrning boshlarida yaratilgan. Unga Zardusht asos solgan (Beruniy ma'lumoticha, Zardusht Ozarbayjonda tug'ilgan. Biroq fanda Zardusht shaxsi, uning o'tgan-o'tmagani haqida, shuningdek, «Avesta»ning makoni haqida hamon munozarali fikr-mulohazalar davom etib keladi). Lekin «Avesta»ning shakllanishi va takomilini bir kishining nomi bilan bog'lab bo'lmaydi. Chunki u uzoq davrlarning mahsuli bo'lib, bu davrlar davomida qayta-qayta ishlangan.

«Avesto»ning muqaddas kitob sifatida to'la shakllanilishi esa eramizdan avvvalgi birinchi ming yillik o'rtalariga to'g'ri keladi.

Ko'pchilik manbalardagi an'anaviy ma'lumotlarga qaraganda, «Avesto» 21 nask - kitob (qism)dan iborat bo'lgan ekan. Biroq Aleksandr Makedonskiy va arab bosqinchilari istilosi natijasida ulardan ko'pi yo'qolib, juda oz qismi saqlanib qolgan. Bizga qadar saqlanib qolgan «Avesto» yodgorliklarining eng qadimgi nusxasi 1324

yilda ko‘chirilgan bo‘lib, u Kpengagenda saqlanadi. «Aevsto»ning ayrim nusxalarida aevsto tilidagi tekst bilan birga pahlaviy tilidagi sharhli tarjimalar ham bor. Sharhlar «Zend Avesto» deb nomlangan. «Avesto» teksti sanskrit tili (qadimgi hind tili)ga ham sharhlar bilan tarjima qilingan. U ayrim Evropa tillariga, uning bir necha qismi esa rus tiliga ham tarjima qilingan.

### **3. “Avesto”ning saqlanib qolgan qismlari va ilmiy ahamiyati.**

«Avesto» ning hozirgi ma‘lum bo‘lgan nusxalarini olimlar 21 nasx - kitob (qism) dan iborat demoqdalar. Ulardan 7 kitob xudolar, koinotning paydo bo‘lishi va insoniyat tarixiga doir; keyingi 7 kitob ibodat masalalari, din dasturlari, xalqning yashash tarzini ifoda etadi; oxirgi 7 kitobda tibbiyot, astronomiyaga doir ma‘lumotlar jamlangan.

Zardushtiylar dini va ta‘limotidagi «Ezgu fikr», «Ezgu kalom», «Ezgu amal» birligi ularning falsafiy-axloqiy, umumiy dunyoqarashini ham belgilaydi.

«Avesto»ning hozirgi bizga ma‘lum bo‘lgan eng qadimgi nusxasi 1324-yilda ko‘chirilgan bo‘lib, Kopengagen shahrida saqlanadi. 1996-yilda Eronda chop etilgan ikki jildli «Avesto» ham mukammal nusxa hisoblanadi. «Avesto»ning to‘rttdan bir qismi - 83000 ming so‘zdan iborat alohida-alohida boblari, parchalari saqlanib qolgan.

«Avesto» - mazdaparastlar diniga mansub barcha adabiyotlarning umumiy nomi. «Avesto» so‘zi qadimiy mazdaparastlarning o‘zagiga mansub bo‘lib, «Avesto» artikuli va «vista» fe‘lidan iborat. «Vista» so‘zining o‘zagi «vid», «vand» bo‘lib, ma‘nosi «tanimoq», «bilmoq», «topilmoq», «ko‘rinmoq» kabidir.

«Avesto» ni «Ogohnoma», «Donishnoma» ma‘nosida tushunish mumkin.

Hozirgi ma‘lumotlarga ko‘ra, «Avesto» Yasna, Yasht, Visparad, Vandidod, Kichik Avesto qismlaridan iborat. Y.Bertels, I.Braginskiy, N.Mallaevlar «Avesto»ning bu qismlarini quyidagicha izohlaydilar:

1. *Yasna* - hamdu sano, munojot va qurbonlik duolaridan tashkil topgan 72 bobli to‘plam. Uning 17 bobi gotlar-gimnlar deb ataladi. Ular «Avesto»ning eng qadimgi boblari hisoblanadi. Gotlarning asosiy g‘oyasi «ezgu fikr, ezgu kalom, ezgu amal»larning birligini madh etishdan iborat.

2. *Yashtlar* - zardushtiylarning alohida xudolarini madh etuvchi qo‘shiq-oyatlardir. Ularda qadimiy rivoyatlar ko‘plab uchraydi. Bu rivoyatlarning ayrimlari Firdavsiyning «Shohnoma» sida o‘z ifodasini topgan. Yashtlarning aksariyati she‘riy shaklda bitilgan;

3. *Visparad* - yasnalarga qo‘shimcha tarzda yozilgan, 24 bobdan iborat ibodatga doir qo‘shiqlardir;

4. «*Vandidod*» - «Viydaivadota» so‘zining o‘zgargan shakli bo‘lib, devlarga qarshi qonun ma‘nosini anglatadi. U yomonlik, jaholat va razolat timsollari devlarga qarshi kurash qonunnomasi hisoblangan. Unda ibodat qilish tartibi, buni buzganlarni jazolash qonun- qoidalari ham aks etgan. «Vandidod» 22 bobdan tashkil topgan. «Vandidod»da, shuningdek, o‘likni yerga ko‘mib, uni harom qilgan yoki yolg‘on va‘da bergan odamni jazolash, tabiblar xususida, o‘liklarni qo‘yadigan dahmalar qurish, ko‘mish marosimi va o‘likdan yomon jinlarni quvish uchun yoniga it olib borish, it boqish va ularni ehtiyot qilish, ayollar bilan oyning qaysi kunlari

munosabatda bo'lish, soch va tirnoqlarni qachon olish va ularni toza saqlash, o'z qichqirig'i bilan yomon narsalarni qochiruvchi xo'roz haqida, suvning shifobaxshligi, chaqaloqni parvarishlash, Axura Mazdaning odamlarni turli balo-qazolardan asrashi va hokazolar bayon etiladi.

5. «*Kichik Avesto*» - u Quyosh, Oy, Ardivusura, Bahrom singari xudo hamda ma'budalar sharafiga aytilgan duo matnlarini o'z ichiga oladi.

«Avesto» zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lishi bilan bir qatorda Turonu Eron va boshqa Yaqin Sharq mamlakatlarining tarixi, madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, tili, urf-odatlarini, xalq og'zaki ijodi, umuman, turli sohalar haqida ma'lumot beruvchi noyob qomusiy manbadir. Undan o'rin olgan afsonalar, qo'shiqlar ma'lum ma'noda xalq og'zaki ijodining qadimiy janr namunalari o'zida aks ettirgani bilan ham ahamiyatlidir.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng, merosimizga, buyuk vatandoshlarimiz ijodiga munosabatda jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Davlat miqyosida e'tibor berilmoqda. Jumladan, 2001 yilda Xorazmda «Avesto» ga bag'ishlangan yirik tadbirlar, ilmiy anjumanlarning o'tkazilishi buning yorqin dalilidir.

#### **4. Avestoning tarixiy-ma'rifiy ahamiyati.**

«Avesto» qadimgi O'rta Osiyo, Eron va Ozarbayjonning tarixi, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, goeografiyasi va tabiati, ilm-fani, etnografiyasi va hokazolar bilan tanishtiruvchi manba sifatida ham juda qimmatlidir.

«Avesto»da tasvirlangan jamiyat chorvachilar va dehqonlarning qadimgi jamiyatidir. Unda o'z davrida emirila borgan ibtidoiy jamoa tuzumi ham, quldorlik va tug'ilib kelayotgan feodal munosabatlari ham qisman bayon etiladi. Kishilar xudolarga murojaat qilib, ulardan ko'p chorva, katta yaylovlar va sug'oriladigan keng ekin maydonlarini tilaganlar. «Avesto» chorvasi, yaylovi va ekin maydoni ko'p bo'lgan kishilar ham, tobe bo'lgan yo'qsillarni ham ko'z o'ngimizda gavdalandiradi. Zodagonlar mol- mulklarini ko'paytirish uchun qo'l ostilaridagi dehqonlarni va chorvadorlarni eksplutasiya qilish bilan qanoatlanmay, bosqinchilik urushlari olib borib, chorva mollarini, yangi yaylovlarni va qullarni qo'lga kiritadilar. Zardushtiylikning sinfiy mohiyati Axura Mazdaning so'zlarida ham ravshan ifodalanadi, u xudo qiyofasidan chiqib, tobora shoh qiyofasiga yaqinlashib boradi.

«Avesto» madaniy hayotning turli sohalariga doir, chunonchi, qadimgi medisina, astronomiya, kosmogoniya va falsafaga doir material va ma'lumotlar ham beradi.

«Avesto» ma'lum darajada adabiy yodgorlik hamdir. Unda badiiy til vositasi, obrazli so'zlar xiyla ishlatilgan bo'lishidan tashqari og'zaki adabiyot yodgorliklarining to'plagan bir manba hamdir. Unda Kayumars, Yima, Gershasp, Arjasp va boshqa mif hamda afsonalar hikoya qilinadi. Uning ancha qismi (asosan «Gotlar» va «Yashi») she'r bilan bitilgan. She'riy misralar hijolarning miqdori prinsipi asosida tuzilgan. Yasht ko'pincha 8 (ba'zan 10-12) hijoli misralardan tarkib topgan.

«Avesto» kitobi mukammal suratda nashr etildi. Elik bosma taboqdan iborat bu tarixiy-adabiy obida bugungi kungacha er yuzida saqlanib qolgan «Avesto» matnlarini tugal oʻz ichiga oladi.

Kitob soʻzboshi, soʻnggi soʻz, olti daftar, avestoyi tushunchalar va islohotlar mukammal sharhlangan izohlardan iborat. Nufuzli tahrir hayʼati nazorati ostida chop etilgan kitob shoir Asqar Mahkamning oʻn yillik mashaqqatli va samarali mehnati tufayli tilimizga oʻgirildi.

Qoʻlimizdagi «Avesto» kitobi Zardushtning «Gohlar»i bilan boshlanadi. Gohlar bu ulugʻ obidaning eng qadimiy boʻlimlaridan, yoxud Zardushtning beklik qoʻshiqlaridan tashkil topgan. Aslida avestoyi «Goso» boʻlgan bu istiloh keyincha tilimizda «goh» shaklida oʻzlashdi, chunonchi, «Dugoh», «Segoh», «Chorgoh» va hokazo.

Birinchi daftar olam va odamning yaralishi, hayot va yashashning mazmuni, ezgulik va yovuzlikning paydo boʻlishi ularning oʻzaro kurashi xususida hikoya qiladi. «Ahunavad goh», «Ushtavad goh», «Spiantmada goh», «Vahuvxshtar goh», «Vahiyshtvaysht goh»dan iborat. Mazkur boʻlimda oliy iloh Axuramazda dunyo, borliq, inson, ruh, koinot va zamin xususidagi oʻz aqidalarini Zardushtga bayon qiladi. Zardusht bu taʼlimotni qabul qilib, bashar farzandlariga etkazishiga soʻz beradi.

Ikkinchi daftar «Yasna» deb nomlanadi. «Toat va salobatga munosib» maʼnosini anglatuvchi Yasnalar bugungi «Avesto»ning muhim juzʼi boʻlib, 72 qismdan iborat Yasna «Ibtido» deb nomlanguvchi alohida alohida duolar, madhiyalar, munojotlardan tuzilgan. Zardushtiyarning kundalik turmushiga singdirilgan bu alqov va duolarda butun borliqqa yogʻilgan avestoyi ilohlar nom-banom ulugʻlanadi, ularga nazr-niyoz keltirish tartib-qoidalari zikr etiladi. Yasnalarda Axura Mazda yovuz kuchlarga qarata shunday xitob qiladi «Ey, devlar! Sizlarning barchangiz qabih niyatga qarindoshsiz. Sizlarni azaldan qoʻllab-quvvatlab, asrab-avaylab, kelayotgan kuch kazzoblik va xudbinlikdan boshqa hech narsa emas. Bu yolgʻon va munofiqona amallaringiz bilan etti iqlimga nom taratdingiz va oxir-oqibat sharmanda boʻldingiz ...»

«Avesto»ning nisbatan salmoqli tarkibi Uchinchi daftar -«Vandidod»dir. Baʼzi avestoshunoslarning fikriga koʻra, «Vandidod» yaxlit asar. U qadimiy mugʻlarning odat va rasm-rusumlarini oʻz ichiga olib, «Devlarni uzoqlashtiruvchi nizom» yoxud «Devlarga qarshi nizom» maʼnosini anglatadi. «Vandidot» avestoyi «Vaydaivadota» istilohining ixchamlashgan shakli. Fargard - boʻlimlardan iborat «Vandidod» boshdan-oyoq Zardushtning savollariga Ahura Mazdaning javoblaridan iborat. Zardusht oʻz panohi boʻlmish Ahuradan mazdaparstlikning mohiyati, uning borliq-olam, inson va uning ruhiyati, ong-tafakkuri, kundalik hayoti xususida yuzlab savollar bilan murojaat qiladi. Ahura esa bu savollarga atroflicha javob beradi:

«- Ey, olamni yaratgan Zot! Ey, Haqiqat! Zamini hammadan koʻra baxtliroq boʻlgan dunyodagi birinchi joy qaer? - deydi Zardusht.

Ahura Mazda javob beradi: - Bunday joy, qoʻlda pokiza oʻtin, barsam, havona, yangi sogʻilgan sut tutugan, oʻz amal-eʼtiqodiga dilda ishonchi sobit, oʻktam ovoz, keng



yaylovlar ishqı bilan masrur va bu yaylovlarnı qo‘shıqqa solgan bir ashavan oyoq bosgan zamındır.

To‘rtıncı daftar she‘riy va mansur yashatlar (qasıdalar)dan jamlangan bo‘lib, unda zardushtıylikning Ahura Mazda, Ardvisura Anahita, Quyosh, Mitra. Vartragna, Asha, Huvarna kabi iloh va ma‘budları sharaflanadı.

Kitobning beshıncı daftarı - «Vispirad». «Vispirad» - jamiyki radlar (hakam madhi ma‘nosını anglatib, 24 bo‘limdan iborat. Zardushtıylar ta‘limotıga ko‘ra, butun borlıq aslıda jonlı maxluqlar yashovchi bir fano manzılı. Unda har bir unsur o‘z qonunları asosıda, muayyan kuchlarını homıyılıı ostıda yashaydı. Chunonchi, «rad» istilohı «Avesto»da hakam ma‘nosıdan tashqari manzil makon kabi tushunchalarnı ham ifoda etadı.

Nihoyat, Oltıncı daftar - «Kichik Avesto» yoxud «Xurda Avesto»dir. «Kichik Avesto», asosan, zardushtıylarnı kunduzgi toat-ıbotatları, duo va olqıshlarıdan tashkil topgan. Jumladan, «Surush boj» deb nomlanguvchi duo har kuni uyqudan so‘ng o‘qıladıgan mazdaparstlarını mashhur duolarıdan biri Uni «Qo‘l yuvısh duosi» ham deydılar. «Surush boj» tun qorong‘ulıı chekinib, tong yorısha boshlagach, butun kecha jahonni qo‘riqlab turgan iloh Surush sha‘nıga bag‘ıshlangan. Zardushtıylarnı barcha marosımları, xususan, marhumlarıni xotirlash marosımı «surush boj» duosi bilan boshlanadı: «Rad avashan», olamlarga kenglik bag‘ıshlaguvchi baxtiyor, cheksız qudrat sohibı, porsa Surushni olqıshlaymız!»

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Zardushtıylikning mohıyatını tushuntiring.
2. Zardusht kim?
3. «Avesto»ning adabıy qimmatını gapiring.

#### **Adabıyotlar:**

1. Darsliklar.
  2. «Avesto». Asqar Mahkam tarjıması. T., 2001.
  3. H.Homidıy, B.Do‘stchonov. «Avesto» va tibbiyot. T., 2001.
  4. I.Stebleva. Poeziya tyurkov VII-VIII vekov. M.,1965.
  5. A.Qayumov. Qadimiyat obıdaları. T.,1972.
  6. Qadimiy hikmatlar. T.,1987.
  7. N.Rahmon. Turk xoqonlııı. T.,1993.
  8. T.Mahmudov. «Avesto» haqıda. So‘ng so‘z. Avesto. T.,2001.
- R.Vohıdov, H.Eshonqulov. Mumtoz adabıyot-hikmat xazınası. Buxoro, 2001.

## 4-mavzu: O'RXUN-ENASOY YODGORLIKLARI

### Reja:

1. «O'rxun-Enasoy» yodgorliklari.
2. Kultegin va Bilga xoqon bitigtoshlari.
3. O'rxo'n-Enisey yodgorliklarining ahamiyati

**Mavzuga oid tayanch so'z va tushunchalar:** Topilishi va o'rganilishi, Remezov, Iogann Strallenberg, olim Messershmidt, To'nyuquq Kultegin Bilga xoqon Eltarish Yo'llug' tigin Irq bitigi, Vilgelm Tomson, rus olimi V.Radlov, Mo'g'uliston, «Ungin bitigi», «Moyun Chur bitigi».

### 1. O'rxun-Enasoy yodgorliklari

Mazkur obidalarining topilishi O'rxun hamda Enasoy daryolarining havzalari bilan bog'liq. Keyinchalik bu obidalar Sibir va Mo'g'ulistonning boshqa joylaridan, Sharqiy Turkiston, Markaziy Osiyo, Kavkaz, Volga bo'yi va boshqa joylardan topilgan bo'lsa ham, shu nom bilan ataladigan bo'lib qoldi. Bu yodgorliklarning topilishi va o'rganilishi XVIII asrdan boshlanadi. Rus xizmatchisi Remezov bu haqdagi dastlabki xabarni beradi. Shved zobiti Iogann Strallenberg, olim Messershmidt yodgorliklarni evropa ilm ahliga ilk marta taqdim qiladilar. 1893 yilda daniyalik olim Vilgelm Tomson va rus olimi V.Radlovlar yodgorliklardagi harflarni o'qidilar. Bu yodgorliklar «tosh bitiklari» deb ham yuritiladi. Ular Mo'g'uliston, Germaniya, Rossiya, Xitoy, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Shvetsiya, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'izistonda saqlanadi. Yodgorliklar asosan VI-VIII asr voqealarini aks ettiradi. 545-yilda Turk xoqonligi yuzaga keladi. V-VIII asrgacha hukmronlik qiladi. Tosh bitiklarining katta qismi ana shu xoqonlikning tarixini tasvirlaydi.

«To'nyuquq» bitigtoshi ikkita ustunga yozilgan. Ularning biri 170, ikkinchisi 160 sm. dan iborat. Bu yodgorlikni 1897-yili Elezaveta Klements Shimoliy Mo'g'ulistonda eri Dmitriy Klements bilan birgalikda izlab topgan. «Kultegin» bitiktoshi marmardan ishlangan. Balandligi 3 m 15 sm, qalinligi 41 sm, tub qismi 1 m 24 sm bo'lib, yuqoriga tomon torayib borgan. Yodgorlikni rus ziyolisi N.Yadrintsev 1889 yili Mo'g'ulistonning Ko'kshin O'rxun daryosi qirg'og'idan topgan.

To'nyuquq - Eltarish xoqonning maslahatchisi va sarkardasi. Unga qo'yilgan toshda To'nyuquqning xalq oldidagi xizmatlari, turkiylarning bir qancha dushman qabilalariga qarshi kurashi, To'nyuquqning donoligi, tadbirkorligi, vatanparvarligi, turk xalqiga sadoqati ko'rsatilgan. Mana bu tasvir shundan dalolat beradi: «Nega chekinamiz, dushmanni ko'p deb, nega qo'rqamiz, o'zimizni oz deb, qani bosaylik, hujum qilaylik, dedim. Hujum qildik, dushmanni tor-mor qildik. Ikkinchi kun keldi. Urushdik. Ularning qo'shini biznikidan ikki qanoti yarmicha ortiq edi. Tangri yorlaqagani uchun, dushman ko'p deb biz qo'rqamadik, jang qildik. Ularni ham tor-mor qildik...» (Qadimiy obidalar. 21-bet).

Bulardan tashqari, «Ungin bitigi», «Moyun Chur bitigi» borki, bular O'rxun bitiglariga kiradi. Enisey bitiglari hozirgi Tuva, Xakasiya hududidan topilgan. Bu bitiglar turli shakldagi-yumaloq, to'g'ri burchakli granit toshlariga bitilgan. Ayrim lari qoyalarga, metallarga, oltin va kumush idishlariga yozilgan. Hozirgacha hammasi

bo'lib 250 ga yaqin bitigtoshlar topilgan. Enisey bitiglari «Eletmish bilga xoqon yodnomasi», «Uyuq Tarlak yodnomasi», «Uyuq Turan yodnomasi», «Begra yodnomasi», «Chakul yodnomasi» kabi yodgorliklardan iborat. Ularda ham mardlik, qahramonlik, dushmanga qarshi kurash tasvirlangan.

Bu yodgorliklarni nasr namunasi deb qarovchi olimlarimiz bo'lganidek, Stebleva ularni turkiy xalqlar she'riy ijodining namunalari sifatida beradi

Bitiglarda «Edguti eshid, qatug'du tungla» «Yaxshi eshit, qattiq tingla», «Ichra oshso'z, tashra jonso'z» «Ichda oshsiz, toshida to'nsiz» kabi maqolga o'xshash jumlar mavjud.

Yodgorliklarning tili quyidagicha:

Qog'on ulurup yo'q jig'ay budunug Qoon bo'lgach kambag'al xalqni ko'p ko'portdum Yuksakka ko'tardim.

Jig'oy budunug bay qilim Kambag'al xalqni boy qildim.

Umuman, O'rxun-Enasoy yodgorliklari V-VIII asrlarda yashagan turkiy xalqlarning madaniy merosi sifatida ajdodlarimizning ma'naviy -badiiy, ilmiy-tarixiy salohiyatining balandligi, qadimiy va boyligidan yorqin nishonadir.

## **2. Kultegin va Bilga xoqon bitigtoshlari.**

«Bilga xoqon» bitigini ham Yadrintsev topgan. U Kultegin bitigtoshidan 1 km janubiy-g'arbga o'rnatilgan. Uning bo'yi 3 m 45 sm, eni 1 m 72 sm, qalinligi 72 sm. U 80 satrdan iborat.

Kultegin - Eltarish xoqonning kichik o'g'li. Bitigtosh 702 yilda o'rnatilgan. Akasi Bilga xoqon tilidan Yo'llug' tigin yozgan. Unda Bilga xoqonning turk xalqiga aytgan yurak so'zlari bayon qilingan. Kultegin dono, bahodir inson sifatida tasvirlanadi.

Bilga xoqon-Eltarishning katta o'g'li. Uning qabridagi yozuv ham Yo'llug' tigin tomonidan yozilgan. Tosh 735 yilda o'rnatilgan.

VI asr o'rtalarida Oltoy, Ettisuv va Markaziy Osiyodagi turli qabila va xalqlar birlashib, turk hoqonligi deb atalgan davlat vujudga keldi. Biroq bu davlat markazlashgan davlat bo'lmay, balki o'nta turk qabilasining federasiyasi edi. Turk xoqonligidagi qabila va xalqlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoning turli bosqichida yashar edilar. Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi o'troq aholi bilan birga chorvachi ko'chmanchilar ham juda ko'p edi; o'troq aholi patriarxal-feodal bosqichida yashasa, ko'chmanchi aholi, asosan, patriarxal-jamoa tuzumi bosqichida bo'lib, ularning jamoasi sinfiy ziddiyatlarning chuqurlashuvi va tobelarning ko'payishi bilan asta-sekin feodallashib bormoqda edi. Davlat boshida «xoqon» va zodagonlarning kengashi «qurultoy» turar edi. Qabila boshliqlari «bek», yirik amaldorlar «tagin», «shodi» va boshqa nomlar bilan, aholi «budun» yoki «qora budun nomi bilan yuritilar edi. Turk hoqonligi Xitoy, Vizantiya va boshqa mamlakatlar bilan savdo-sotiq aloqalarida bo'lgan. Davlat territoriyasida yagona hokim din bo'lmay, osmon kulüti, zardushtiylik, shamanizm va boshqa dinlar hamda ularning sinkretik formasi tarqalgan edi.

Xitoy yilnomasi «Tan-shu»da turklarning kumish marosimi bunday ta'riflanadi: murda boyliklari, jangda mingan oti bilan birga kuydiriladi, xoki dafn

qilinib, marhum qancha dushmani o'ldirgan bo'lsa, uning qabriga shuncha tosh qo'yiladi va marhumning surati ishlanadi, uning qilgan ishlari o'yib yoziladi.

O'rxo'n-Enisey yodgorliklarining ko'pi mana shunday qabr toshi yodgorliklaridir. Bulardan Mog'ilyon va, xususan, Kulteginning qabr toshlari juda muhimdir.

Shundan so'ng Bilga xoqon o'zining davlat chegaralarini, qo'shni xalqlar bilan bo'lgan do'stoni munosabatda hamda olib borgan urush-yurishlari va boshqalarni hikoya qiladi. U o'zini «Yo'qsul xalqni boyitgan», «Oz sonli xalqni ko'paytirgan» «adolatli hukmron» sifatida tasvirlaydi: *Joq cho' qay buduvo'q kop kabartdo'm (yoki kobratdo'm) cho'qan buduno'q bal qo'lto'm az buduno'q o'ko'sh qo'lto'm . Azu bu sabo'mda irid barqu ?*

Mazmuni:

Men halok bo'lgan, qashshoq xalqni butunlay (oyoqqa) turg'izdim (yig'dim), qashshoq xalqni boy qildim, oz sonli xalqni ko'p sonli xalqqa aylantirdim. Mening so'zlarimning biror yolg'oni bo'lmas!..

Bilga xoqonning balanparvoz so'zlaridan keyin turk xoqonligi tarixi, urush-yurishlar hikoya qilinadi. Bilga xoqon davridagi voqealar bayonida Kulteginning faoliyatiga ko'proq o'rin beriladi. Uning davlatni kengaytirish va mustahkamlashdagi, urush-yurishlardagi xizmatlari tasvirlanadi, qahramonona janglardan epizodlar hikoya qilinadi. Tekst Kulteginning o'lkalardan ta'ziya uchun choparlar keladi, qo'y yili - (732) 9-qoyning 27 kuni dafn etish marosimi o'tkaziladi. Bilga xoqonning tilidan aytilgan so'zlarda Kulteginning judolik qayg'usi marsiyaga xos uslubda bayon etiladi, turli badiiy til vositalari qo'llaniladi: *Ko'l tigin yo'q arsar, kop oltachi artigiz! Inim Ko'l tigin kargak bolti, o'zim saqintim ; korur kozim kormaz tag, bilir biligim bilmaz tag bo'ldi, o'zim saqintim. OD TANGRI yasar, kisi oqli ko'p o'lrali torumis.*

**Mazmuni:**

Agar Kultegin bo'lmasa edi. Hamangiz halok bo'lar edinglar. Mening inim Kultegin o'ldi, men qattiq qayg'urdim; ko'rar ko'zlarim ojiz bo'ldi, aql fahmim o'tmas bo'lib qoldi. O'zim qayg'yordim. Qismat (vaqti)ni ko'k samo (xudo) taqsim qiladi, odam bolasi o'lish uchun tug'ilgan...

Kultegin qabr toshi yozuvi turk xoqonligi davlatining ijtimoiy-siyosiy hayoti, qabila va xalqlarning urf-odatlarini, tili va ma'lum darajada badiiy so'z san'ati bilan tanishtiradi.

### **3. O'rxo'n-Enasoy yodgorliklarining ahamiyati**

O'rxun-Enasoy yozuvidagi xotiralar V-VIII asrlarning juda qimmatli yodgorligidir. Ular qabr toshlariga o'yib yozilgan tarix va marsiyalardan, turli xil hujjat, tamg'a, pul va boshqalardan iborat. «To'nyuquq», «Uyuk-arxon», «Borliq», «Tuva» va boshqalar ham kultegin va Bilga xoqon yodgorliklari singari muhim yodgorliklardir. Bular Oltoydan Mo'g'ulistonga qadar cho'zilgan bepoyon territoriyada yashagan xalqlar va qabilalar tomonidan yaratilgan. Tekstlarda qirg'iz, uyg'ur, o'g'uz va yana bir qancha xalqlarning, qabilalarning nomlari tilga olinadi, ayrim tarixiy shaxslar u yoki bu etnik qatlamga mansub kishilar sifatida gavdalanadi. Yodgorliklarning tili bir-biridan birmuncha farq qiladi. Shular asosida ayrim yodgorliklarni hozirgi ma'lum bir tilning qadimgi yodgorligi deb aytish mumkin. V-

VIII asrlarda Movarounnahrda turkiy til juda keng yoyildi. O'rxo'n-Enisey yodgorliklariga xos leksik boylik va grammatik shakllarni qirg'iz, uyg'ur, tuva, turkman, o'zbek va boshqa turkiy tillarda ko'rish mumkin. Shunga ko'ra, S.E. Malov ta'kidlaganidek, bu yodgorliklar ko'pchilik turkiy tillar tarixini o'rganishda mushtarak bir manba sifatida ahamiyatlidir. Shu jihatdan qaraganda, hozirgi o'zbek tilining ildizlarini ham O'rxo'n-Enisey yodgorliklarida ko'rish mumkin.

O'rxo'n-Enisey yodgorliklarining ma'lum badiiy qimmati ham bor. Ularda ko'pgina she'riy misralar bo'lishi bilan birga ba'zi nasriy parchalar ham she'r kabi jaranglaydi, turli tarixiy voqealar bayonida ayrim lavhalar birmuncha badiiy uslubda tasvirlanadi, badiiy til vositalari qo'llaniladi. Xususan, qabr toshlaridagi «marsiyalar»ning badiiy ahamiyati ko'proq. Ular orqali biz vafot etgan kishining ma'lum portreti bilan, motam tutuvchilarning ichki ruhiy kechinmalari bilan tanishamiz. Shunga ko'ra, S.E. Malov V asr Enisey yodgorliklarini «qabriston poeziyasi» deb atadi. I.V. Stebleva o'z tadqiqotini «Poeziya tyurkov VI-VIII vekov» (Moskva, 1965) deb nomladi.

Masalan, Qizil-chir (Enisey havzasi)dan topilgan bir yolg'orlikda quyidagilarni o'qiymiz:

*Alim kanim siza boqmadim kun at azidim jita!*

*Qadashim kunim jita adiriltim sizima o'z kumush budunum jita adiriltim.*

*Ar ardamimda boqmadim qirq jashimda adiraldim*

*Uchin Kulug Tirig oqli ban Ko'lo'r Toqan ban*

### **Mazmuni:**

Mening davlatim va mening xonim, men sizlardan lazzat ko'rmadim, hayhot, men quyoshni va oyni sezmaydigan bo'lib qoldim.

Mening do'stlarim va mening qarindoshlarim, hayhot, men (sizlardan) uzoqlashib, o'z kumush xalqimdan yiroqlashdim.

O'z qahramonlik shijoatimdan lazzatlana olmadim. Qirq yoshimda o'ldim.

Men O'chin-Qulug'-Tirig o'g'li. Men Kulug'-To'g'an.

Bular «Devonu lug'otit turk»dagi marsiyalarga juda yaqin bo'lib, «Devon»dagi adabiy yodgorliklar bilan O'rxo'n-Enisey yodgorliklarining ma'lum aloqasi borligini ko'rsatadi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Eng qadimgi adabiy yodgorliklarga nimalar kiradi?
2. Qadimgi madaniyat deganda nimani tushunasiz?
3. Ilmiy ekspeditsiyalar nima?
4. Xalqimizning qadimgi san'ati nimalarda ko'rinadi.
5. Qadimgi Turon xalqlari yozuvi, tili, ilm-fani haqida nimalarni bilasiz?
6. O'rxun-Enasoy yodgorliklarining topilishi, o'rganilishi haqida nimalarni bilasiz?
7. Bu yodgorliklarda qanday masalalar yoritilgan?
8. Ulardagi obrazlar haqida gapiring.
9. Irq bitigi nima?

### **Adabiyotlar:**

1. A.Qayumov. Qadimiyat obidalari. T., 1972.
2. B.To'xlied. O'zbek adabiyoti. 9-sinf. Darslik. T., 2000.
3. Darsliklar.
4. I.A.Karimov. Istiqlol va ma'naviyat. Toshkent, 1994.
5. I.Stebleva. Poeziya tyurkov VII-VIII vekov. M.,1965.
6. M.Ishoqov va boshqalar. O'lmas obidalar. T., 1989.
7. N.Rahmon. Turk xoqonligi. T.,1993.
8. Qadimiy hikmatlar. T., 1987.
9. R.Vohidov, H.Eshonqulov. Mumtoz adabiyot-hikmat xazinasii. Buxoro, 2001.

## **5-mavzu: MAHMUD QOSHG‘ARIY VA UNING “DEVONU LUG‘ATIT TURK” ASARI**

### **Reja:**

1. M.Qoshg‘oriy haqida ma‘lumot
2. “Devonu lug‘otit - turk” va badiiy adabiyot
3. “Devonu lug‘otit - turk”da adabiy janrlar

### **1. M.Qoshg‘ariy haqida ma‘lumot**

Mahmud Qoshg‘ariy Markaziy Osiyoda ilk o‘rta asr madaniyatining buyuk arboblardan. U tilshunoslik, xususan, turkiy tillarni o‘rganishda mashhur bo‘ldi va tarixda o‘chmas iz qoldirdi. Mahmud Qoshg‘ariy XI asrga kelib turkiy xalqlar madaniyati, san‘ati rivojlangan, qoraxoniylar davlati mustahkamlangan, Buxoro, Samarqand, Shosh, Qashqar kabi shaharlar yirik madaniyat markaziga aylangan bir davrda yetishib chiqdi.

Qoraxoniylar davlatining markazlari bo‘lmish Bolosog‘un, Sayram, Shosh, Taroz shaharlarida ilm-fan egalari, turli sohalarning yirik vakillari, dono va fozil kishilar to‘plangan. Mahmud Qoshg‘ariy Bolosog‘un shahrida dunyoga kelgan. Uning to‘liq ismi Mahmud ibn Husayn ibn Muhammaddir. Otasining ismi Husayn, bobosi Muhammad bo‘lib, kelib chiqishiga ko‘ra Qoshg‘ariy nisbatini olgan.

Mahmud Qoshg‘ariy ilmda, tarixda «Devonu lug‘otit turk» asari bilan shuhrat topdi. Yana bir asari «Javohir-un-nahvfi lug‘otit turk» «Turkiy tillarning nahv sintaksis durdonalari, qoidalari» deb ataladi. Bu asari bizgacha yetib kelmagan yoki hali noma‘lum bo‘lib qolmoqda. «Devonu lug‘otit turk» 1072 yilda yozila boshlangan. 1074 yilda yozib tugallangan. Muallif kitobiga «Devonu lug‘otit turk» «Turkiy tillar lug‘atlari» deb nom bergan va uni abbosiy xalifalar avlodidan bo‘lgan baland mavqeli Abulqosim Abdulloh binni Muhammad al-Muqtadoga bag‘ishlagan. Asarning asosiy matni o‘sha davrda din va fan tiliga aylangan arab tilida yozilgan bo‘lib, turkiy tilning boyligini ko‘rsatadi.

«Devonu lug‘otit turk»ning asl qo‘lyozmasi bizgacha etib kelmagan. Uning yozilgan sanadan ikki yuz yil o‘tgach ko‘chirilgan birdan-bir nusxasi Istanbul kutubxonasida saqlanadi. Muhammad binni Abu Bakr Damashqiy degan kishi tomonidan asl nusxasidan ko‘chirib yozilgan qo‘lyozmadir. Uch tomdan iborat bu kitob 1939-41 yillarda hozirgi turk tiliga tarjima qilinib nashr etildi. Tarjimon Bosim Atalay asarga izohlar yozgan. O‘zbekistonda «Devon»ning birinchi tadqiqotchisi sifatida Fitrat tilga olinadi. U «Devon»dagi barcha she‘riy parchalarni yiqqan, tarjima qilgan, alohida lug‘at bilan nashr etgan. Asarni prof. S.Mutallibov hozirgi o‘zbek tiliga ag‘dargan.

Mahmud Qoshg‘ariy Bolosog‘unda tug‘ilib, shu yerda yigitlik chog‘larini kechirgan bo‘lsa ham uzoq yillar «Yuqori Chindan boshlab butun Movarounnahr, Xorazm, Farg‘ona, Buxoro, hozirgi Shimoliy Afg‘onistonga qadar cho‘zilgan» turkiy o‘lkalarni, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar, qirg‘izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarni kezib chiqdi, turli sheva, lahja xususiyatlarini o‘rgandi, ularni adabiy til bilan chog‘ishtirdi, o‘z ishi uchun boy material to‘pladi. Ba‘zi olimlar

fikricha, bu materiallar 10-15, ehtimol 15-20 yillar davomida to'plangan. Qoshg'ariy asari, o'zi ta'kidlashicha, «oldin hech kim tuzmagan va hech kimga ma'lum bo'lmagan alohida bir tartib»da tuzilgan. Asar sodda va lo'nda yozilgan. Unda qadimgi turk alifbosi, fonetik qonuniyatlar, orfoepik va orfografik qoidalar puxta tushuntirib berilgan. Muallif ko'rsatishicha, kitob 8 bo'limdan, muqaddima va xulosadan iborat. «Devon»da 7500 dan oshiq turkiy so'z va iboralar izohlangan. Lug'atda yuzlab kishi ismlari, shahar va qishloq, o'lka nomlari, daryo, tog', yaylov, vodiy, dara, yo'l, dovon, ko'l, soy kabi jo'g'rofiy atamalar, turli qabila, urug', elat, sayyora, yulduzlar, fasllar tilga olinadi.

«Devonu lug'otit turk»-adabiy manba. Unda turkiy xalqlar tarixiga oid qadimiy afsona va rivoyatlar, 300 ga yaqin maqol va matallar, hikmatli so'zlar, 700 satrdan oshiq she'riy parchalar o'rin olgan. «Devon»da keltirilgan she'riy parchalardan 150 satrga yaqini islom davri she'riyatiga xos bo'lgan «bayt» tipidagi masnaviy, qasida, g'azal, qit'a parchalari bo'lib, muallif ularni «bayt» deb ataydi.

«Devon»dagi qo'shiqlar ko'proq jangnoma xarakterida bo'lib, ba'zi yirik she'riy parchalarga shartli ravishda «Tangutlar bilan jangnoma», «Uyg'urlar bilan jangnoma», «Yabaku bilan jangnoma» deb nom qo'yilgan. Ularda turkiy elatlarning shijoati, qiyinchiliklarga bardoshi, jasurligi, harbiy hiylalar, elparvarlik, mardlik, himmat, mehr va qahr tuyg'ulari tasvirlangan. Qadimgi epik qo'shiqlardan «Devon»da saqlangan ikki yirik asar ko'pchilikning e'tiborini tortadi. Biri «Alp Er To'nga marsiyasi», ikkinchisi «Qish va yoz munozarasi»dir. Marsiya 44 satrdan iborat. Alp Er To'nga turklarning qadimiy qahramoni. Yusuf Xos Hojib tojiklar uni Afrosiyob deb atashini yozgan. To'nga Alp Er yo'lbars kabi kuchli bahodir odam demakdir. Uning Barman, Barsg'an degan o'g'illari hamda Qaz ismli qizi haqida ham ma'lumotlar bor.

Marsiyada Afrosiyob-Alp Er To'nganing achchiq qismati dahshatli fojia, o'rnini to'ldirib bo'lmaydigan yo'qotish sifatida baholanadi.

Alp Er To'nga o'ldimu?

Esiz ajun qaldimu?

O'dlak o'chin aldimu?

Emdi yurak yirtilur.

Alp Er To'nga xalq sevgan qahramon. Mana bu misralar motam marosimini eslatadi:

Bo'ri bo'lib uldilar.

Yoqa yirtib turdilar.

Yig'lab-siqtab yurdilar

Ko'z yoshlari mo'l bo'ldi.

«Qish va yoz» munozarasi turkiy munozara janrining bizgacha yetib kelgan birinchi erkin namunasi. Unda turkiy elatlarning tabiati, yashash, tafakkur tarzi, sevinchlari, qayg'ulari aks etgan, tabiatga mehr ifodasini topgan. Asar majoziy tasvirlar, tashbehlar, sifatlashlar, jonlantirish, engil kinoyalarga boy. Tabiat tasviri:

Alin topu yashardi

Urut o'tin yashirdi,

Ko'lning suvin ko'shardi



Sigir buva mungrashur.  
Mazmuni:  
Tog‘ boshlari yashardi,  
Qurug‘ o‘tni yashirdi,  
Ko‘l suvlari toshirdi,  
Sigir, buqa ma‘rashur.  
Bahor tasviri shu xilda aks ettirilsa, qish tasviri mana bunday:  
Keldi asin asnayu,  
Qozga tupal usnayu,  
Kirdi budun ko‘snayu  
Qara bulut ko‘krashur.

Mazmuni:  
Keldi shamol huvillab,  
Bo‘ron bo‘lib guvillab.  
Xalq titrashur uvillab  
Qora bulut guldirar.  
Qish bilan yoz bir-biri bilan tortishadi. Bu tortishuvda xalq o‘z qarashlarini,  
yoz va qishga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi:  
Qish yoy bila to‘qushti  
Qinir ko‘zunug‘ baqishti.  
Tutishqali yaqishti,  
Utg‘olimat o‘g‘rashur.

Mazmuni:  
Qish bilan yoz to‘qnashdi,  
Qing‘ir ko‘z bilan qarashdi.  
Tutib olishga intilishdi,  
Yutishga tirishar edi.

Yoz aytadi:  
Sendan qochar sundiloch,  
Menda tinar qaldirg‘och,  
Bulbul ko‘ylab nag‘ma soch  
Erkak, ayol juftlashur.

Qish yozga aytadi:  
Senda barcha yomonlar  
Chibin, pashsha, ilonlar  
Dumi gajjak chayonlar  
Hamla qilib yugurar.

Devondagi she‘riy parchalar mavzu jihatdan rang-barang. Pand-nasihat:  
Boqmas jahon sovuq so‘z,  
Shilqim, yuzsiz, baxilga.  
Yoqimli bo‘l, xushxulq bo‘l,  
Qolsin noming ko‘p yilga.

Yor tasviri  
Aldadi meni,  
Yumshoq badan qiz.

Qomati nihol,  
Burni ham tekis.

Sevgi va uning kechinmalari tasviri:

Sevgim mening kuchayur,  
Kecha-kunduz yig'layman.  
Ko'rdi ko'zim ketganin,  
Yurtda yolg'uz qolmayman.  
Seviklim ketdi uzoq,  
Ko'nglim unga bog'layman.  
Qoldim chuqur qayg'uda,  
Uzzu kunlar yig'layman.

«Devon»da juda ko'p maqollar uchraydi. «Qut belgisi bilig», «Emgak ekinda qolmas» Mehnat erda qolmas, «Osh totig'i tuz», «Qo'rqmush kishiga qo'y boshi qo'sh ko'rinur», «It isirmas, ot tepmas dema», «Quruq yog'och egilmas», «Uma kelsa qut kelar» Mehmon kelsa qut kelar, «Ag'ilda o'g'laq tug'sa, ariqda o'ti unar» va hokazo.

Umuman, «Devonu lug'otit turk» tilshunoslar, adabiyotshunoslar, tarixchi va boshqa soha kishilari uchun ham qimmatli manba ekanligi bilan e'tiborlidir.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Mahmud Qoshg'ariy kim?
2. Uning hayoti va ijodi haqida nima bilasiz?
3. «Devonu lug'otit turk» qanday asar?
4. «Devon»dagi she'riy parchalar qaysi mavzuda?
5. «Devon»dagi xalq maqollaridan misollar keltiring.
6. «Qish va yoz» munozarasini tahlil qiling.
7. Alp Er To'nga marsiyasida nima haqda gap boradi?

#### **Mavzuga oid tayanch so'z va tushunchalar:**

- |                            |                  |
|----------------------------|------------------|
| 1. Mahmud Qoshg'ariy.      | 6. Alp Er To'nga |
| 2. Qoraxoniylar davlati.   | 7. Afrosiyob.    |
| 3. «Devonu lug'otit turk». | 8. Marsiya.      |
| 4. «Qish va yoz».          | 9. Qaz.          |
| 5. Munozara.               |                  |

#### **Adabiyotlar:**

1. Darsliklar.
2. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit turk. 3-tomlik. T., 1960-63.
3. Qadimiy hikmatlar. T.,1987.
4. Buyuk siymolar, allomalar. 1-kitob. T.,1995.
5. A.Qayumov. Qadimiyat obidalari. T.,1973.
6. B.To'xlijev. O'zbek adabiyoti. 9-sinf. Darslik. T.,2000.

## **6-mavzu: YUSUF XOS HOJIB VA UNING “QUTADG‘U BILIG” ASARI**

### **R e j a:**

1. Kirish.
2. Yusuf Xos Hojibning hayoti va faoliyati haqida.
3. «Qutadg‘u bilig» dostoni.
4. Asarning qo‘lyozma nusxalari, topilishi va o‘rganilishi.
5. Dostonning syujeti.
6. Asarda turli ijtimoiy guruhlariga munosabatning ifodalanishi.
7. Ilmiy-ma‘rifiy va axloqiy-ta‘limiy qarashlari.
8. «Qutadg‘u bilig»ning badiiy xususiyatlari.
9. Xulosa.

**Mavzuga oid tayanch so‘z va tushunchalar:** Yusuf Xos Hojib, O‘gdulmish, “Qutadg‘u bilig” O‘zg‘urmish, Tavg‘achxon, Ofiyat, Oyto‘ldi, Majoziy obraz, Kuntug‘di.

X-XII asrlarda turkiy tildagi adabiyot ancha rivojlandi. Bir qator shoir va adiblar yetishib chiqdi. Ana shulardan biri Yusuf Xos Hojibdir. Muallifning ismi Yusuf. U haqdagi ma‘lumotlar juda oz. «Qutadg‘u bilig»da ayrim ma‘lumotlar uchraydi. Bu asarini 50 yoshlarda ijriy 462 yili 1069-1070 yozib tugatgan. Yusuf o‘zi haqida asar muqaddimasida shunday ma‘lumot beradi: «Bu kitobni tasnif qilig‘li Balasag‘un mavludlig‘ parqiz idisi er turur. Ammo bu kitobni Qashg‘arda tugal qilib, Mashriq maliki Tavg‘achxon uskinga kechurmish, malik ani ag‘irlab, ulug‘lab o‘z Xas Hojiblikni anga bermish turur, aning uchun Yusuf ulug‘ Xas Hajib teb atijavi yozilmish turur». Kitobda tilga olingan xoqon Nasiriddin Tavg‘ach Bug‘ro Qoraxon 1075-1103 yillar davomida qoraxoniylar davlatini boshqargan. Asar unga bag‘ishlangan. Qoraxoniylar davrida mamlakat mulklarga taqsim qilinib idora qilingan. Mana shu ulushlarning boshida turgan hukmdorlar Eligxon nomi bilan ataladi. Eligxonlar ustidan nazorat qiluvchi oliy hukmdor esa Tavg‘achxon nomi bilan yuritiladi. Markazlashgan, yagona feodal davlatni barpo etish, uni mustahkamlash, idora qilish, ulushlar va ulush ichidagi begliklar o‘rtasidagi nizolarga barham berish Tavg‘achxonlarning ezgu orzusi edi. Xuddi ana shunday davlatni idora qilish usulini, siyosatini, qonun-qoidalarini, rasmu odatlarini, axloq me‘yorlarini o‘zida mujassamlashtirgan nizomnoma, qomus sifatida «Qutadg‘u bilig» yuzaga keldi. Yusuf Xos Hojib mana shu masalalarga javob berib, o‘z asarini yaratar ekan, u bir tomondan, o‘z davrining yirik olimi, fozili, donishmandi, faylasufi, shoiri, tarix, tib, riyoziyot, nujum va shu kabi boshqa fanlardan xabardor bo‘lgan barkamol kishi sifatida, ikkinchi tomondan, feodal sinfnings vakili, yuqori tabaqa kishilarining himoyachisi sifatida namoyon bo‘ladi. Asar mazmuni muallifning arab va fors tillarini mukammal bilgan, bu tillardagi diniy, ilmiy, badiiy adabiyot bilan chuqur tanishgan, ayni paytda turkiy yozma adabiyot, xalq og‘zaki ijodi bilan ham yaxshi tanish bo‘lganini ko‘rsatadi.

Hajman katta, badiiy jihatdan puxta bo‘lgan «Qutadg‘u bilig» 6500 bayt yoki 13 ming misruga yaqin she‘rdan iborat. Asar 18 oyda yozib tugatilgan. Muallif o‘z

asariga «Qutadg‘u bilig» deb nom beradi. Bu baxt va saodatga eltuvchi bilim, ta‘lim demakdir. Shoir shunday yozadi:

Kitab ati urdum «Qutadg‘u bilig»,  
Qutadsu o‘qug‘lika tutsu elig  
Kitob otini «Qutadg‘u bilig» qo‘ydim,  
O‘quvchiga baxt keltirsin, qo‘lidan tutsin.

Shu sababdandir kim, kitobni chinliklar «Adab-ul-muluk»/’«Hukmdorlar odobi»/, mochinliklar «Oyin-ul-mamlakat» /«Mamlakatning tartib usuli», sharqliklar «Zain-ul-umaro»/, /«Amirlar ziynati»/, Eron liklar «Shohnomai turkiy», turonliklar «Qutadg‘u bilig», ba‘zilar «Pandnomai muluk»/«Hukmdorlar pandnomasi»/ deganlar.

«Qutadg‘u bilig» haqidagi dastlabki xabar XIX asrning birinchi choragida paydo bo‘ldi. Bu asarning 1439 yilda Hirotda uyg‘ur yozuvi bilan Hasan Qara Sayil Shams tomonidan ko‘chirilgan nusxasi Turkiyaning Tug‘ot shahriga, bu yerdan esa, 1474 yilda Abdurazzoq Shayxzoda baxshi uchun Faxri o‘g‘li Qozi Ali tomonidan Istambulga keltirilgan. Uni sharqshunos olim Hammer Purgshtall Istambulda sotib olib Vena saroy kutubxonasiga keltiradi. 1870 yilda venger olimi Herman Vamberi «Qutadg‘u bilig»ning eng muhim qismlarini «Uyg‘ur tili obidalari» va «Qutadg‘u bilig» nomi bilan nashr qildi. 1823 yilda fransuz sharqshunosi Jaubert Amedi ham nashr ettirgan. 1890 yildan boshlab bu asarni o‘rganishga V.Radlov kirishadi. 1896 yilda «Qutadg‘u bilig»ning arab yozuvi bilan ko‘chirilgan ikkinchi bir nusxasi Qohirada topildi. Radlov 1910 yilda asarni rus alfavitiga asoslangan to‘liq transkripsiyasini nemis tiliga tarjimasini bilan nashr qildiradi. Bu asarning arab yozuvi bilan ko‘chirilgan uchinchi nusxasi 1913 yilda Namanganda topildi. 1924 yilda Fitrat namanganlik Muhammadhoji eshon Lolaresh ismli kishidan bu nusxani oladi va Toshkentga Asosiy kutubxonaga keltiradi.

«Qutadg‘u bilig» tarkibi quyidagicha: Uch bosqich muqaddima:

Nasriy muqaddima 38 satr.

She‘riy muqaddima 77 bayt.

Muqaddimaviy boblar 11 bob. 390 bayt.

Asosiy qism - doston mavzui 68 bobda rivojlanadi. Undagi sarlavhalar hisobiga ishtirok etuvchilarning savol-javoblarini ham kiritsak, 174 sarlavha ostida berilgan. Umumiy hajmi 5896 bayt. Xotima qismi - 2 qismda va masnaviy bobdan iborat bo‘lib, masnaviy bob mazmunigina dostonga aloqador.

Muqaddimada tangriga hamd, payg‘ambar va chahoryorlarga na‘t aytiladi. «Qutadg‘u bilig» 180 ga yaqin to‘rtlik, masnaviy va uch bob qasidadan iborat. Asar aruzda yozilgan. Mutaqorib bahrida.

«Qutadg‘u bilig» o‘sha davrda Qoshg‘ardan Kaspiygacha bo‘lgan keng maydonga yoyilgan barcha turkiy qabilalar uchun tushunarli bo‘lgan «Bug‘raxon tili»da yozilgan.

«Qutadg‘u bilig»-adabiy asar, badiiy adabiyot numunasi. Asar qahramonlari 4 timsoldan tashkil topgan:

Biri to‘g‘rilikka tayanch-Adolat

Biri Davlat erur, u qutli g‘oyat.

Uchinchi-ulug'lik Aql ham Zako  
To'rtinchi - Qanoat erur bebaho.

Birinchisi, Adolat-u bosh hukmdor, uning nomi Kuntug'di, u quyoshdek barchaga barobar nur taratadi. Ikkinchisi, Davlat-turkiyda Qut, u bosh vazir, uning nomi Oyto'ldi. Asarning bosh qahramoni O'gdulmish-Aql va Bilimdir. To'rtinchi timsol-Qanoat. Uning ismi O'zg'urmish. Olimlarimiz fikricha, bular islom ma'naviyatining bosh timsollari edi: O'zg'urmish obrazi tarkidunyo qilgan, zohidlik va taqvoni yashash tarziga aylantirgan so'fiylarni anglatadi. Asarda tasavvufiy g'oyalar ham ko'zga tashlanadi.

Muallif Xudoni e'tirof etadi. Din va shariat yo'lini unutmashlikka chaqiradi. Uning dunyoqarashida Farobiy, Ibn Sinolar dunyoqarashining ta'siri seziladi. U yetti planeta, o'n ikki burj haqida gapiradi. Yusuf Xos Hojibning davlat, uning qurilishi, hokimiyatni boshqarish, moddiy, siyosiy, ijtimoiy qarashlari asardagi to'rt obrazning o'zaro munozara, bahs, savol-javoblari orqali namoyon bo'ladi.

Muallif barcha ijtimoiy tabaqa, toifa va guruhlar, ularning jamiyatdagi mavqelari, o'rni, yashash sharoitlari, ongi, ruhiyati, kasbu korlari kabilar haqida batafsil fikr yuritadi. U odamlarni ikki yo'nalish asosida guruhlariga ajratadi:

1. Moddiy boylikning taqsimlanishi, mulkka egalik jihatidan. Bunga ko'ra uchga ajratiladi: a) boylar, b) o'rta hollar, v) chig'aylar /kambag'allar/.

2. Asosiy mashg'ulotlari, kasblari, ijtimoiy mehnatning jamiyat a'zolari o'rtasida taqsimlanishi jihatidan. Bu jihatdan kishilar hukmronlar, amaldorlar, mansabdorlar, saroy kishilari, avom a'laviylar /Ali xonadoniga mansublar/, olim va donishmandlar, tabiblar, afsunchilar, azayimxonlar, tush ta'birlovchilar, yulduzchilar, shoirlar, lar, savdogarlar, chorvadorlar, hunarmandlar, qashshoqlar va boshqalarga bo'linadi.

Muallif olimlar haqida alohida gapiradi. Ularni ulug'laydi. Ularga ozor bermaslikni, moddiy jihatdan quvvatlashni aytadi:

Yo'q ersa ajunda bu alim bo'gu,  
Tikib unmagay erdi erda egu.  
Ularni qattiq sev, ag'irla so'zin,  
Biliglarin o'gran o'gush azin.  
Ular ilmi bo'ldi buzunga yo'la,  
Yarusa yo'la tunla azmas yo'l-a.

Mazmuni:

Yo'q ersa jahonda gar olim, dono,  
Ekib unmagay erdi erda dona.  
Ularni juda sev, qadrla so'zin  
Bilimlarin o'rgan ko'pin yo ozin.  
Ular ilmi xalqqa bo'ladi chiroq,  
Chiroq yonsa, tunda adashmas oyoq.

Shoirlar juda ulug' kishilar, ular kishilarni ham madh, ham fosh qiladilar. Ularning tillari qilichdan o'tkir, xotiralari nozik va chuqur:

Yana keldi shoir-bu so'z terguvchi,  
Kishin madh etuvchi yo fosh qilguvchi.  
Qilichdan ham o'tkir bularning tili,

Va qildan nozikroq xotirlash yo‘li.  
Nozik so‘z, kalom kim eshitay desa,  
Bulardan eshitsin, qilar zavq rosa...

Yusuf Xos Hojib dehqonlarga ham yuqori baho berdi. Ularning mehnati halol, sharaflil, barchaga manfaatli ekanligini ta’kidlaydi:

Bo‘lar dehqon ahli juda qo‘li keng,  
Xudo berganidan erur ko‘ngli keng.  
Qimirlaguvchidan er uzra hamon  
Yuruvchiga osh, non, uchuvchiga don.  
Ularga aralash, qo‘shilish o‘zing,  
Shirin so‘zla tilda, ochiq tut yuzing.

Chorvadorlar haqida: Qimiz, sut, yungu yog‘, qurut va qatiq,  
Namat va kigiz ham to‘qima tutiq.  
Bular manfaatli kishilar turur,  
Bularni juda yaxshi tut, ey unur.

Yusuf Xos Hojib o‘z zamonasining donishmandi, turli ilmlardan bahs yuritishga qodir olim va fozil kishisi,, faylasufi edi. Shuning uchun ham u o‘z asarida ilm-fan, bilim-zakovat, ma’rifat targ‘ibotchisi sifatida namoyon bo‘ladi. U kishilarni tinmay ilm olishga, bu ilmni amalda tadbiiq qilishga undaydi. U ilm ahlini qadrlashga chaqiradi:

O‘quv qayda bo‘lsa, ulug‘lik bo‘lar,  
Bilim kimda bo‘lsa, buyuklik olar.  
Bilimsiz kishilar bo‘lar ko‘r misol,  
Bilimsiz, bilimdan kelib hissa ol.  
Hamma xayrli ishlar bilim nafidur  
Bilim hatto osmon sari yo‘l ochur.

«Qutadg‘u bilig»da muallif odob-axloq masalalariga alohida to‘xtaladi. U turli tabaqalar o‘rtasidagi munosabat, axloq, muomala, odamgarchilik, to‘g‘rilik,sofliq, mehr-muhabbat, vafo, shafqat, adolat, insof, saxovat, aql, zakovat kabi xususiyatlarni g‘ayri insoniy, yolg‘onchilik, insofsizlik, egrilik, bemehrlik, zulm, nomardlik, johillik kabi tomonlar bilan qiyoslaydi:

Yomonlikni qilma, e xulqi suzuk,  
Bu kun ezgu ish qil, fe’ling qil tuzuk.  
Yomon ishni qilma, u koni zarar,  
Yomonlik ilon bir, seni u chaqar.

Barcha odob-axloqning boshi tildir. Tilning foyda va zarari behisobdir. Oz so‘zlash, ko‘p tinglash kerak. Qizil til qora boshning yovi:

Kishin til ulug‘lar, topar qut kishi,  
Kishin til tubanlar, yorilar boshi.  
So‘zing ehtiyot qil, boshing ketmasin,  
Tiling ehtiyot qil, tishing sinmasin.  
Talay so‘zlama so‘z, biroz so‘zla oz,  
Talay sir-sinoatni oz so‘zda yoz.  
Qora bosh yovi bu qizil til erur,

Talay bosh egan u, yana ham eyur.

Muallif farzand tarbiyasi, o'g'il-qiz o'stirish, ziyofatga borish, u erda o'tirish, ovqatlanish odobi haqida o'git beradi.

«Qutadg'u bilig»da yozma adabiyot va xalq og'zaki ijodining chuqur ta'siri seziladi. Muallif bu asarni yozishda epik asarlardan, tarixiy va diniy adabiyotlardan o'rinli foydalangan. Asarda «Shohnoma»ning ta'siri seziladi. Asarda Iskandar, Kisra, Qaysar, Qorun, Shaddod, Od, Faridun, Zahhok kabi qirqqa yaqin obrazlar uchraydi. Asarda ko'pgina maqollar, hikmatli so'zlar ko'zga tashlanadi. Alp Er To'nga marsiyasi uchraydi.

Agar nafs tiyilsa-bu bosh sog'lig'i  
Fizo oz eyilsa-og'iz totlig'i.  
Qorinda yaralgan qiliq, o'rganik  
Qora er tagida kyetar,ey tetik.  
Uy olmoqchi bo'lsang so'ra qo'shnisin  
er olmoqchi bo'lsang so'ragin suvin.

Asarda ko'plab badiiy tasvir vositalari uchraydi. Turli tashbehlar, omonimlar, o'xshatishlar ishlatilgan.

Umuman, «Qutadg'u bilig» bundan keyin ham o'quvchilarimizni axloqli qilib tarbiyalashda ahamiyat kasb etaveradi.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Yusuf Xos Hojib kim?
2. U haqda qaysi manbalarda ma'lumot bor?
3. «Qutadg'u bilig» qanday asar?
4. Uning topilishi, o'rganilishi, nusxalari haqida gapiring.
5. Dostonda qanday masalalar qo'yilgan?
6. Asardagi obrazlarga tahlil bering.
7. Dostondagi xalq og'zaki ijodining ta'sirini belgilang.

#### **Adabiyotlar:**

1. Darsliklar.
2. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. T.,1971.
3. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. T.,1990.
4. Qadimgi hikmatlar. T.,1987.
5. Buyuk siymolar, allomalar. 1-kitob. T.,1995.
6. Q.Karimov. Ilk badiiy doston. T.,1976.
7. B.To'xliiev. O'zbek adabiyoti. 9-sinf. Darslik. T.,2000.
8. H.Homidiy. Ko'hna Sharq darg'alari. T.,1999.

## 7-mavzu: AHMAD YASSAVIY VA UNING HIKMATLAR TO‘PLAMI

R e j a:

1. Kirish.
2. Ahmad Yassaviy haqida.
3. Sobiq Sho‘rolar davrida Ahmad Yassaviy merosiga bo‘lgan munosabat.
4. Ahmad Yassaviyning hayoti va ijodi.
5. «Devoni hikmat»ning mavzulari.
6. Xulosa.

**Mavzuga oid tayanch so‘z va tushunchalar:** Ahmad Yassaviy, Yusuf Hamadoniy, «Devoni hikmat», Jahriya, Hikmatlar, Nafs, Tasavvuf, Nodon, Zohidlik, Johil, Chilla, Pir, Ilohiy ishq, Darvesh, Arslonbob.

Ahmad Yassaviy Sharq olamining ulug‘ siymolaridan biri. Alisher Navoiy ta’kidlaganidek, «Xoja Ahmad Yassaviy-Turkiston mulkining shayxul mashoyixidir. Maqomati oliy va mashhur, karomoti matavoliy hayratlanarli va nomaxsur chegarasiz ermish. Imom Yusuf Hamadoniyning ashobidindur suhbatdoshi». Ahmad Yassaviyning sharq dunyosidagi, islom olamidagi nufuzi nihoyatda baland bo‘lgan. Shuning uchun ham «Makkada Muhammad, Turkistonda Xoja Ahmad» degan gaplar paydo bo‘lgan.

Ahmad Yassaviy merosini o‘rganish borasida chet mamlakatlarda, ayniqsa, Turkiyada ko‘p ishlar amalga oshirilgan. Uning merosi bilan bog‘liq tadqiqotlar turk olimi F.Ko‘prilzoda, Likoshin, Bertels kabi chet el olimlari faoliyatida ko‘zga tashlanadi. O‘zbek adabiyotshunosligida 20-yillarda Fitrat, A.Sa’diy tadqiqotlarida Yassaviy merosiga munosabat ko‘rinadi. Keyingi yillarda N.Mallaev, V.Zohidov, 1974-yilda «O‘zbek tili va adabiyoti» jurnali, «Toshkent oqshomi» gazetida f.f.doktori E.Rustamovning Yassaviy haqidagi maqolalari chop etildi. Hozirgi kunda o‘ziga xos yassaviyshunoslik yuzaga keldi. N.Komilov, I.Haqqul, Orif Usmon, bir qator yosh olimlar Yassaviy merosiga doir u yoki bu darajadagi tadqiqotlar yaratdilar va yaratmoqdalar.

Sobiq Sho‘rolar davrida Yassaviyga zamonasozlik jihatdan yondashildi. Uning merosi din nuqtai nazaridan talqin etilib, asosan, bir yoqlama mulohaza yuritildi. U «klerikal adabiyot vakili», «reaktsion diniy adabiyot vakili», «diniy-mistik adabiyot namoyondasi», «tarkidunyochi» nomlari bilan tilga olinadi. Uning merosidan xalqimiz bebahra qoldirildi. «Hikmat»lari chop etilmadi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng ko‘pgina shoirlar qatori Yassaviy merosi ham xalqimizga qaytarildi. Mamlakatimizda 1993 yil-Yassaviy yili deb e’lon qilinishi bu boradagi eng ulug‘ harakat bo‘ldi. Shoir kitoblari nashr etildi. O‘rta maktab darsliklaridan o‘rin oldi. Yassaviyga munosib ehtirom ko‘rsatilmoqda.

XII asrda Markaziy Osiyoda paydo bo‘lgan ilk tasavvufiy tariqatning asoschisi Xoja Ahmad Yassaviyning tug‘ilgan yili bahslidir. Orif Usmon uni 1041-yilda Sayramda Shayx Ibrohim oilasida dunyoga kelgan deb ko‘rsatadi. Ko‘pchilik uning tug‘ilgan yili noma’lum deb ko‘rsatishadi. Tug‘ilgan joyi Turkistonning Yassi shahri, ba’zi o‘rinlarda esa Sayramda deb ko‘rsatiladi. Uning vafot yili ko‘pgina qo‘lyozma



manbalarda hijriy 562 1166-67 deb yozilgan. Ahmad yoshligida onasidan, yetti yoshda otasidan ajraladi. Uni bobosi Arslonbob ba'zi manbalarda qarindoshligi yozilmay, yirik mutasavvuf olim ekanligi qayd etiladi tarbiyalab voyaga yetkazadi. So'ngra Buxoroga borib Yusuf Hamadoniydin ta'lim oladi. Dastlabki ta'limotni esa Yassida mashhur olim Shahobiddin Isfijobiydan oladi. Ahmad Yassaviyning o'zi «Ustoz Yusuf Hamadoniyning huzuriga 23 yoshda borganini va ul Hazratning tarbiyasiga noil bo'lg'onligini» aytadi. U yerda tasavvufdan ta'lim olib, o'z yurti Turkistonga qaytadi. O'z ta'limotini targ'ib etib, shogird, muridlar tayyorlay boshlaydi. Rivoyatlarga ko'ra, Yassaviy 63 yoshga yetkach, yer ostida hujra yasatib, «chilla»ga kirgan, qolgan umrini toat-ibodat bilan, hikmatlar yozib, riyozatlar chekib, yer ostida o'tkazgan. Bir rivoyatga ko'ra u 125 yil, boshqa rivoyatga qaraganda, 133 yil umr ko'rgan.

Ahmad Yassaviyning shuhrati vafotidan keyin ham pasaymaydi. Amir Temur unga alohida e'tiqod bilan qaragani ma'lum. U 1395-97 yillarda Turkistonda Ahmad Yassaviyning eski qabri o'rnida yangidan muhtasham maqbara qurdirgan. Bu maqbara hozir ham mavjud.

Ahmad Yassaviydan bizgacha «Devoni hikmat»i yetib kelgan. Olimlarning ta'kidicha, bu nom XVI asrdan keyin berilgan. Turk olimi Ko'prilizoda diniy-tasavvufiy manzumalar X asrdan e'tiboran hikmat deb atalganini yozadi. Mutasavvuf shoirlar, jumladan, Ahmad Yassaviy uchun ham ilmi laduniy, ya'ni ilmi g'ayb haqqoyiq va ilohiy sirlarni kashf etmoq va ifodalamoq hikmat mazmuniga teng. «Devoni hikmat»da prof. Orif Usmonning ta'kidicha, Yassaviy tariqatining muayyan qoidalari o'z ifodasini topgan. «Hikmatlar»da Ahmad Yassaviy merosi jamlangan. «Hikmat» XII asr turkiy tasavvufiy she'riyatning yuksak namunasi. Yassaviy turkislom tasavvufiy she'riyatining asoschisi sifatida dunyoga tanildi. Yassaviy hikmatlari keyingi davr turkiy adabiyotning rivojlanishga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Hikmatlarga «Qul Xoja Ahmad», «Xoja Ahmad Yassaviy», «Ahmad ibn Ibrohim», «Sulton Xoja Ahmad Yassaviy», «Yassaviy miskin Ahmad», «Miskin Yassaviy», «Ahmadiy», «Qul Ahmad», «Miskin Ahmad» kabi taxalluslar qo'llangan. Ayrim manbalarda Ahmad Yassaviy «Hikmat»larining soni 240 ga yaqin she'rdan iborat (9-sinf darslik. 164.) Boshqa bir xillarida 4400 ta, ay rimlarida esa 9900 ta deb ko'rsatiladi. Yassaviy ijodining asosiy qismini islom dini, Alloh, Muhammad payg'ambar, turli piru mashoyixlar, tasavvuf bilan bog'liq tafsilotlar tashkil etadi. Ammo ana shular asosida inson ma'naviyati, poklik, jamiyat, hayot haqidagi chuqur mulohazalar yuritiladi. Hikmatlarda yaxshilik, mehr-oqibat, beva-bechoralarga muruvvat ko'rsatish, sabr-qanoat, shaxs kamoloti, vatan tuyg'usi, iymon va e'tiqod xususida, nafs va nodonlik, ilmsizlik va johillikning oqibatlari kabilar borasida bahs yuritiladi. Shoir ishq, haqiqat, adolat, qanoat, diyonat singari masalalarga o'zgacha yondashadi. Qiyinchilik, musibat, mehirsizlik, yo'ldan adashishni qoralaydi:

Na onoda rahm qoldi, na otoda,  
Og'o, ini bir-biriga mojaroda.  
Musulmonlar da'vo qilur, ichar boda,  
Mastlig' bilan qarindoshdin tondi, ko'rung.

Yassaviy «Koʻngli qatigʻ xaloyiq»ni shafqatga, gʻarib, etim, mazlumlarga ozor yetkazmaslikka chaqiradi:

Fariblarni koʻrgan erda ogʻritmangiz,  
Fariblarga ochigʻlanib soʻz qotmangiz.  
Zaif koʻrub gʻariblargʻa tosh otmangiz,  
Bu dunyoda gʻaribliktek balo boʻlmas.

Yassaviy hikmatlaridagi markaziy obraz-Oллоh. U xudo ishq, yaʼni ishq ilohiyini tan oladi. Navoiy «Mahbubul qulub» asarida ishqni uch qismga ajratgan. Uchinchisini «Haqgoʻylar ishq boʻlib, ular haqning ishq bilan atilibdirlar», -deydi:

Ishq yoʻlida kecha-kunduz yigʻlagʻonlar,  
Jondin kechib belin mahkam bogʻlagʻonlar.  
Xizmat qilib haq sirini anglagʻonlar  
Tun uyquni harom qilib nolon boʻlur.

Bu misralarda Oллоhni tanish va uning ishqini idrok qilish ehtiroslarida oʻrgangan oshiqlar nazarda tutilgan.

Ahmad Yassaviy hikmatlarining katta bir qismi nafs masalasiga qaratilgan. Shoir taʼkidicha, «nafs yabon qushdek qoʻlga qoʻnmas» bir narsa. Bu qush oʻz xohishicha parvoz etaversa, odamni kundan kunga toʻgʻrilikdan ozdiraveradi. Oqibatda esa:

Nafs yoʻliga kirgʻon kishi rasvo boʻlur,  
Yoʻldin ozib, toʻzib, toyib gumroh boʻlur.  
Yotsa-tursa shayton bila hamroh boʻlur...

Shoir nafs bandalariga qarata, «Nafsni tebgil, nafsni tebgil, ey badkirdor», deb murojaat etadi.

Yassaviy «olloh dardi»ni ishq oʻtlarida dilni yoqmoq, poklanish iztiroblari, tama, yolgʻon, makr, mansab va boylik hirslariga qul boʻlmaslik deb tushungan. Baʼzan imkonsizlik kayfiyati ifodalanadi:

Koʻzum namlik, dilim gʻamlilik, men alamlik,  
Nechuk iloj aylarimni bilmom, doʻstlar.  
Bu hasratda, nadomatda yoshim oqib,  
Qayu taraf kyetarimni bilmom, doʻstlar.

Yassaviy «Xalqda saxovat», «podsho, vazirlarda adolat» yoʻqligidan afsuslanadi. «Turluk balo xalq ustiga yogʻ»qanidan achinadi:

Ahli dunyo xalqimizda saxovat yoʻq,  
Podsholarda, vazirlarda adolat yoʻq.  
Darveshlarni duosida ijobat yoʻq,  
Turluk balo xalq ustiga yogʻdi, doʻstlar.

Yassaviy hikmatlarida asosiy oʻrinlardan birini nodonlik egallaydi: shoir nodonlikni qoralaydi. Undan ranjiydi. Shoir «Duo qiling nodonlarni yuzin koʻrmay», deydi. Oʻnlab hikmatlarida uni qoralaydi:

Duo qiling nodonlarni yuzin koʻrmay,  
Haq taolo rafiq boʻlsa birdam turmay.  
Bemor boʻlsa nodonlarni holin soʻrmay,  
Nodonlardin yuz ming jafo koʻrdum mano.  
Ayo doʻstlar, nodon birla ulfat boʻlib,

Bag‘rim kuyub, jondin to‘yub, o‘ldim mano.  
To‘g‘ri aytsam egri yo‘lga bo‘yin to‘lg‘ar,  
Qonlar yutub g‘am zahriga to‘ydim mano.  
er ostig‘a qochib kirdim nodonlardin  
Ilkim ochib duo tilab mardonlardin.  
Farib jonim yuz tasadduq donolardin,  
Dono topmay er ostig‘a kirdim mano.

Ahmad Yassaviy she‘riyatidagi obrazlar tizimi ham tasavvuf ta‘limoti bilan bog‘liq. Pir, darvesh, oshiq, obid, oqil, zohid, ishq, tolib, ummat, rasul, shayton, iymon kabi obrazlar tasavvuf bilan bog‘liq. Yo‘l, rabot, karvon, o‘q kabilar og‘zaki ijod an‘analari bilan bog‘liq.

Beshak biling, bu dunyo borcha xalqdin o‘taro,  
Ishonmag‘il molingga, bir kun qo‘ldan kyetaro.  
Oto-ono, qarindosh qayon ketdi-fikr qil,  
To‘rt oyog‘lig‘ cho‘bin ot bir kun sang‘a yetaro...

Umuman, Yassaviy merosini chuqur o‘rganish har birimizning burchimizdir.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Ahmad Yassaviy kim?
2. Yassaviy haqida qaysi manbalarda ma‘lumot keltirilgan?
3. Yassaviy «Hikmatlar»ining mohiyati nimada?
4. Yassaviy «Hikmatlar»ining obrazlari kimlar?
5. Chet ellarda Yassaviy ijodining o‘rganilishi haqida nimalar bilasiz?
6. O‘zbek yassaviyshunosligi haqida gapiring.

#### **Adabiyotlar:**

1. Darsliklar.
2. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. T.,1991.
3. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. T.,1992.
4. I.Haqqul. Tasavvuf va she‘riyat. T.,1991.
5. I.Haqqul. O‘zbek tasavvuf she‘riyatining shakllanishi va taraqqiyoti. Dok.diss.avtor. T.,1995.
6. Orif Usmon. Ahmad Yassaviy. Buyuk siymolar, allomalar. 1-kitob. T.,1995.
7. Foyiblar xaylidan yongan chiroqlar. T., 1994.
8. Yassaviy kim edi. T.,1994.
9. B.To‘xliiev. O‘zbek adabiyoti. Darslik. 9-sinf. T.,2000.

## 8-MAVZU: XIII - XIV ASRNING BIRINCHI YARMI ADABIYOTI

### R e j a

1. Kirish.
2. XIII asr va XIV asr boshlaridagi ijtimoiy va madaniy hayot.
3. Xalq og‘zaki ijodi.
4. Yozma adabiyot.
5. Xulosa.

XIII asr va XIV boshlari Markaziy Osiyo xalqlari hayotida qayg‘uli bir davrni tashkil etadi. Bu davr mo‘g‘ul istilosi bilan bog‘liq. Shuning uchun ham bu davrdagi tarixiy sharoit, madaniy hayot, san‘at va adabiyot mo‘g‘ul bosqinchiligi bilan uyg‘un holda o‘rganiladigan murakkab bir jarayon hisoblanadi.

Bu davr hayotini har tomonlama tasavvur qilish, o‘rganish uchun manba bo‘luvchi asarlar anchagina. Jumladan, Rashiddinning «Jome ut-tavorix», Juvayniyning «Tarixi jahonkushoy», Banokatiyning «Ravzatul-asbob...», Hamdulloh Qazviniyning «Nuzhat al-qulub» (Nuzhat-huzur qilish, bezanish, qulub-qalblar) asarlari, shuningdek, Batuta, Vamberi, S.Tolstovlarning qaydlari ham xarakterlidir. Ko‘pgina tarixchi olimlarimizning tadqiqotlari, yozuvchilarimiz Mirmuhsin va Muhammad Alining badiiy asarlari ham bu davr manzarasini tasavvur qilish imkonini beradi.

Tarixdan ma‘lumki, Markaziy Osiyo XIII asrning boshlarida Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ul bosqinchilarining asoratiga tushib qoladi. XII asrning II yarmida vujudga kelgan Xorazm davlati XIII asr boshlarida, Muhammad Xorazmshoh (1200-1220) hukmronligi davrida tobora inqirozga yuz tuta boshladi.

1206-yilda Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ullarning ilk feodal istilochilik harakatlari avj olib ketdi... 1219-yili Chingizxon qo‘mondonligidagi 150 mingdan ziyod mo‘g‘ul askarlari O‘rta Osiyoga bostirib kiradi. Muhammad Xorazmshoh o‘z qo‘shinini bir joyga to‘plash o‘rniga, bo‘lib-bo‘lib shahardagi qal‘alarga joylashtirdi. Bu mo‘g‘ullarning osonlik bilan mamlakatni bosib olishga qulaylik tug‘dirdi. (B.Ahmedov. Tarixdan saboqlar. T.,1994. 418-bet).

Mo‘g‘ul bosqinining dahshatli oqibatlari haqida ko‘p yozilgan. H.Vamberi Buxoro bosib olingandan keyingi holatni shunday tasvirlaydi: «Barcha uylar vayron qilindi, hamma sandiqlar buzildi. Behisob xazinalar talandi. Kitoblar yirtilib, hayvonlar oyog‘i ostiga somondek sochildi. Muqaddas kitoblar saqlangan sandiqlarni otlarga oxur sifatida ishlatdilar. Ilm yulduzlari bo‘lgan mullolar, shayxlar qullar kabi, e‘tiborli jangchilarga xizmatkor qilib, goho esa, mo‘g‘ul baxshilariga masxara uchun berildi... mo‘g‘ullarning ushbu birinchi hujumidan keyin, shubhasiz, Buxoro ko‘p ziyon ko‘rdi va dahshatlarni boshidan kechirdi». (H.Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. T.,1990.23-bet).

Xalq mo‘g‘ul zulmiga qarshi, o‘z mustaqilligi yo‘lida jon berib jon oldi. Mahmud Torobiy, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi jasorati tillarda doston bo‘ldi. Ayniqsa, Muhammad Xorazmshohning o‘g‘li Jaloliddin Manguberdining mustaqillik yo‘lidagi mardona kurashi hammaga saboq bo‘larlidir. Shuning uchun ham

Prezidentimiz I.A.Karimov Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi munosabati bilan soʻzlagan nutqlarida shunday degan edilar: «Sulton Jaloliddin siyosi nafaqat Xorazm, balki butun Oʻzbekistonning faxru gʻururidir. U bizning ozodligimizga, istiqlolimizga tajovuz qilmoqchi boʻlgan har qanday yovuz kuchga qarshi tik turib kurashishga, mardona zarba berishga qodirligimizning tasdigʻi va timsolidir». (I.A.Karimov. Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimda soʻzlangan nutq. 1999 yil 5 noyabr. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. 8-tom. Toshkent: Oʻzbekiston, 2000. 75-bet).

Shuning uchun ham hukumatimizning alohida eʼtibori bilan 1999-yilda uning 800 yilligi zoʻr tantanalar bilan nishonlandi. Uning mahobatli haykali Urganchda salobat toʻkib turibdi...

Chingiz istilosining dahshatli oqibatlarini, xalqning ularga munosabati, nafrati, bosqinchilarga qarshi kurash, bu yoʻldagi qahramonlik gʻoyalari badiiy adabiyotda, xalq ogʻzaki ijodida oʻz ifodasini topdi.

Professor N.Mallaevning «Oʻzbek adabiyoti tarixi» kitobida yozilishicha, bizgacha yetib kelgan ayrim afsona, ertaklarda bu narsa tasvirlanadi. Kitobda arxeolog S.Tolstovning Xorazm boʻylab olib borgan tadqiqotlari asosida Qoraqalpogʻiston hududidagi Guldursun xarobalarining topilishi va u bilan bogʻliq afsona keltiriladi. Unda xalq qahramonligi, mardona kurashi va ayni paytda xoinlarga munosabati oʻz ifodasini topgan. (Izoh: afsona tahlil qilinadi).

Chingizxon istilosi yozma adabiyotga ham salbiy taʼsir koʻrsatadi. Bosqinchilar madaniyat yodgorliklarini, sanʼat va adabiyot asarlarini yoʻq qilib yuboradilar. Ilm-fan, sanʼat vakillarining bir qismi janglarda halok boʻladi, ayrim lari asir qilinadi. Ayrimlari boshpana izlab boshqa oʻlkalarga kyetib qolishga majbur boʻladi. Buxorolik shoir, adib va adabiyotshunos Muhammad Avfiy, toshkentlik shoir Badriddin Chochiy, naxshablik (Qashqadaryo vodiysi) shoir Ziyo Naxshabiy va boshqalar bir muncha tinch boʻlgan Hindistonga borib, ijodiy ish bilan shugʻullanadilar. Ayrim olimlar, sanʼatkorlar va yozuvchilar Eron ga, Turkiyaga, Misrga va boshqa mamlakatlarga boradilar. Jumladan, shoir Kamol Xoʻjandiy, Nosir Buxoriy va boshqalar Eron ga borib, oʻsha erda turgʻun boʻlib qolgan.

Ayrim ijodkorlar bir necha tilda ijod etadilar. Masalan, asli balxlik boʻlgan Jaloliddin Rumi Kichik Osiyoga borib, fors-tojik tilidagina emas, balki turk tilida ham asarlar yaratadi. Husomiddin Osimiy fors-tojik tilida, turkiy tilda va arab tilida ijod etadi. Muhammad as-Samarqandiy esa toʻrt tilni-turkiy, fors-tojik, arab va moʻgʻul tillarini mukammal bilgan. Bu davrda mulammaʼ-shiru shakar (ikki yoki undan ortiq tilda asar bitish) janri taraqqiy etadi. Masalan, shoir Purbahoi Jomiy misralari uch tilda-turkiy, fors-tojik va moʻgʻul tillarida bitilgan qasida yaratadi.

Bu davr adabiyotdagi boʻshliqni toʻldirishda mashhur «Maʼnaviyi masnaviy» asarining muallifi Jaloliddin Rumiyning xizmatlari buyukdir. U Mavlaviya tariqatining asoschisi sifatida oʻz asarlarida tasavvufiy gʻoya, istiloh va timsollardan keng foydalandi. Shuningdek, Saʼdiy Sheroziy asarlari, Rabgʻuziyning «Qisasi Rabgʻuziy», Qurʼoni karim mavzulari asosida Ali degan shoir tomonidan 1233-yilda

o'g'uz lahjasida yozilgan «Qisasi Yusuf» dostoni, Pahlavon Mahmud, Badriddin Chochiy merosi ham xarakterlidir.

**Adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov. Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlangan nutq. Manba: Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. 8-tom. Toshkent: O'zbekiston, 2000.
2. N.Mallaev. O'zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob. T.,1976.
3. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 1-tom. T.,1978.
4. B.Ahmedov. Tarixdan saboqlar. T., 1994.
5. O'zbekiston xalqlari tarixi. 1 jild. T.,1992.
6. R.Vohidov, H.Eshonqulov. Mumtoz adabiyot-hikmat xazinasini. Buxoro-2001.
7. Mirmuhsin. Temur Malik. Roman. T.,1996.

## PAHLAVON MAHMUD IJODIY MEROSI

(1247—1326)

Reja:

1. Pahlavon Mahmud hayoti.
2. Pahlavon Mahmud ijodiy merosi.
3. Pahlavon Mahmud ruboiylari
4. Pahlavon Mahmud maqbarasi.

Mazmunan boy va teran, shaklan pishiq va go‘zal falsafiy ruboiylari tufayli «Xorazm Xayyomi» nomi bilan shuhrat qozongan bu ulug‘ inson Pahlavon Mahmud, Puryorvaliy deb dovrug‘ taratgan hassos shoir, yengilmas pahlavon va mashhur avliyodir. Eron, Hind kabi ko‘plab Sharq mamlakatlaridagi kurash musobaqalarida qatnashib, hamisha zafar quchgan, bir umr kuragi yerga tegmay, mamlakatning birinchi polvoni, pahlavonlar peshvosi bo‘lgan.

Ko‘pgina manbalarda shoirning «Kanz ul-haqoyiq» («Haqiqatlar xazinasini») nomli masnaviysi borligi aytiladi. Ammo Yo. Ishoqovning ma‘lumot berishicha, eronlik olim Said Muhammad Ali Safir 1967 yili uni Mahmud Shabustariyga nisbat berib, nashr ettirgan.

Pahlavon Mahmud «din nazariyasi, falsafa va mantiqqa doir bir necha risolalar yozgan» bo‘lsa-da, ular hozirgacha topilgan emas. Pahlavon Mahmudning vasiyatiga ko‘ra shogirdlari uni o‘zining po‘stindo‘zlik do‘koni atrofida dafn etganlar. Keyinchalik u qabr ustida maqbara tiklanib, avliyo poyiga Qo‘ng‘irot urug‘idan bo‘lgan Xiva xonlari ko‘milgan. Bu maqbara nodir me‘morchilik yodgorligi sifatida mana necha asrdiki, barchaning diqqatini o‘ziga tortib kelmoqda. Dunyoning turli burchaklaridan kelayotgan sayyohlar bu buyuk insonning qabrini ziyorat qiladilar. Maqbara devorlariga shoir ruboiylari darj etilgan.

Pahlavon Mahmud Xivadagi futuvvatchilar jamoasining boshlig‘i, javonmardlar peshvosi bo‘lgan. Uning o‘zi ham mardlik va saxovatning eng oliy namunalarini ko‘rsatib, boshqalarga ibrat bo‘lgan. Ruboiylarida futuvvatning nazariy qoidalarini bayon qilgan.

Ma‘lumki, javonmardlikka ko‘proq pahlavonlar talabgor bo‘lganlar. Shu jihatdan, Pahlavon Mahmud pahlavonlarni tarbiyalovchi ustozgina bo‘lib qolmay, balki javonmardlik odobini o‘rgatuvchi pir ham edi. Javonmardlarning shiori dunyodagi yovuzlikning barcha ko‘rinishlariga qarshi hamisha, hamma yerda ezgulikni himoya qilish, targ‘ib etish va qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Bu g‘oyalar Pahlavon Mahmudning ko‘pgina ruboiylarida o‘z aksini topgan. Pahlavon Mahmud hayoti va ijodini o‘rganish, ruboiylarini topib, xalqqa yetkazishda taniqli olim va zabardast mutarjim To‘xtasin Jalolovning xizmatlari katta. Shoir ruboiylarini, shuningdek, Muinzoda, Vasfiy, Ulfat, Boqir, M. Abdulhakim kabi tarjimonlar ham tarjima qilganlar. Yo. Ishoqov, H. Homidiy, N. Komilov, S. S.

Buxoriy, M. Hasaniy, Y. Jumaboev kabi olimlar bu buyuk vatandoshimiz adabiy merosi va tarjimai holini ma'lum darajada tadqiq etganlar.

Pahlavon Mahmud ruboiylari badiiy tasvir vositalariga boy, xalqona sodda va yengil uslubda, ifoda tarzi aniq va lo'nda, o'ynoqi, sershiddat tuyg'ularga yo'g'rilgan. Barcha Sharq shoirlari kabi Pahlavon Mahmud ham ikki ulug' manba — Qur'oni karim va Hadisi sharifdan ta'sirlangani, ulardan ilhomlanib qalam tebratgani qudsiy nafas ufurib turgan ruboiylaridan shundoqqina sezilib turadi. Ayniqsa, ilohiy ishq tarannum etilgan va vahdati vujud falsafasini tushuntirishga bag'ishlangan she'rlarida bu narsa yaqqol ko'zga tashlanadi. Lekin shoir faqat ilohiy mavzular bilangina chegaralanmay, zaminiy dardni ham qalamga olgan. Pahlavon Mahmud ruboiylarida ilohiy va dunyoviy dard ko'pincha birga, o'zaro qo'shib zuhur etadi. N. Komilov: «Pahlavon Mahmud ruboiylarini to'rt guruhga bo'lish mumkin: birinchisi — zamona ahlidan nolish, ijtimoiy tengsizlikni ifodalovchi ruboiylar; ikkinchisi — tariqat suluki haqida yozilgan ruboiylar; uchinchisi — vahdati vujud falsafasi asoslarini tushuntiruvchi ruboiylar va to'rtinchisi — ilohiy ishqni tarannum etgan ruboiylar», — deb yozgan edi. Kezi kelganda, biz shu paytgacha shoirning axloqiy qarashlariga nisbat berib tadqiq etgan pand-nasihahat ruhidagi ruboiylari aslida futuvvat ruknlarining she'riy ifodasidan iborat ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Ha, bunday she'rlarida u javonmardlar axloqini targ'ib etgan, ulardan ibrat olishga chaqirgan.

### ***Pahlavon Mahmud maqbarasi haqida.***

Pahlavon Mahmud(Puryoyvaliy, Qitoli 1247-1326) – shoir va mutafakkir.U fors tilida ijod qilgan .Po'stindo'zlik , telpakdo'zlik bilan shug'ullangan.Hindiston va Eronda polvonlikda dong taratgan. Shunga ko'ra Pahlavon Mahmud deb atalgan. Fors va turkiy xalqlar adabiyotida Umar Hayyomdan so'ng faqat ruboiy yozgan shoir Pahlavon Mahmuddir.

U o'z ruboiylarida mardlik , marhamat va shavqat, sahovat va olijanoblik haqida yozgan.Ko'p asarlari hali topilmagan. Xorazmda yozilgan qo'lyozma manoqibda shoir hayoti haqida ma'lumotlar bor. Uning vasiyatiga ko'ra jasadi o'zining po'stindo'zlik ustaxonasiga dafn etilgan. Vaqt o'tishi bilan maqbara atrofida Pahlavon Mahmud majmuasi vujudga kelgan.

Polvon ota maqbarasi- Xivadagi me'moriy yodgorlik. (1810-1913). Maqbara majmuasining umumiy hajmi 50x30 m.bo'lib,dastlab uning qabri ustiga 1664 yilda mo'jaz sinchkori imorat qurilgan.Darvozaxona eshigidagi yozuvga ko'ra, majmuaning qurilish sanasi 1701 yilda Shohniyozxon qurdirgan vaqtdan hisoblanadi. 1825-35 yillarda uning o'rnida g'ishtin toqu ravoqli serhasham maqgara, ziyoratxona, xonaqoh qad ko'targan. Keyinroq Xiva xonlari Abdulg'ozixon , Shohniyozxon, Muhammad Rahimxon, Temurg'ozixon ham shu yerga dafn etilgan. 1913 yilda usta Qurbonniyoz boshchiligida hovlining g'arb tomoniga ikki oshyonli qorixona, qarshisiga o'ymakori ustunli ayvon qurilgan.

Majmuaga janubiy tomondagi darvozaxona orqali kiriladi. Chetida quduq, kichik hovli qarshisida peshtoqli xonaqoh – maqbara, o'ngda ayvon , so'lda supa va



qorixona joylashgan. Gumbazning naqshin bezaklari , asosan, moviy rang sirli sopollardan terilgan. Bino ichkarisi nafis bezatilgan. Bezaklar orasidagi kitobaga Pahlavon Mahmud ruboiylari bitilgan. Xonaqohning gʻarbiy eshigi orqali ziyoratxonaga oʻtiladi. Unda Pahlavon Mahmudning sirkor sagʻanasi joylashgan.

### **Pahlavon Mahmud ruboiylari**

...

Savolim ming bitta javob aylar kim,  
Gunohim ming bitta savob aylar kim.  
Kimlar xoki pokin qilmadim tavob,  
Gʻarib xoki pokim tavob aylar kim?!

...

Burda non kifoya, koʻp non ne darkor,  
Daryoda bisyor ob, rizvon ne darkor.  
Dastim bor, ne darkor hammol-xizmatkor,  
Dilim bor, ayt, shohu sulton ne darkor?!

...

Gar ming alam bilan egilgay boshim,  
Gar misli marjonday tizilgay yoshim.  
Yiroqmi-yaqin yoʻl, farqsiz men uchun  
Dilda na umidu na bor bardoshim!

...

Darveshman - gadoyu shohning farqi yoʻq,  
Darveshman - oftobu mohning farqi yoʻq.  
Ahli dil bilan gumrohning farqi yoʻq,  
Quvonchu gʻam-kulfat, ohning farqi yoʻq!

...

Ey ishq, alangasan vale duding yoʻq,  
Ey gʻam, ne navosan kuy-suruding yoʻq.  
Maʼlum emas, ey kom, boru yoʻqliging,  
Ey aysh, hech sarhadu hech hududing yoʻq.

...

Umrimiz gohi shod, gohida karaxt,  
Qayda bisyor alam, qayda bisyor baxt.  
Alvido ayta tez tayyorlaydi raxt,  
Oqillar nazdida teng tobutu taxt!

...

Nihon ham oʻzingsan, oshkor ham Oʻzing,  
Tafakkur lol-hayron asror ham Oʻzing.  
Vasliga muyassar aylar oshigʻin,  
Sehru mehri bisyor dildor ham Oʻzing!

...

Ilmsiz, amalsiz jannat-rizvon yoʻq,  
Roʻzasiz, namozsiz dinu iymon yoʻq.  
Moʻminga besabab berganga ozor  
Puli sirot kabi hech beomon yoʻq!

## 10-mavzu: **RABFUZIY HAYOTI VA ADABIY MEROSI**

### **Reja:**

1. Kirish.
2. Rabgʻuziy haqida.
3. Uning adabiy faoliyati.
4. «Qisasi Rabgʻuziy»-adabiy asar.
5. «Qisasi Rabgʻuziy»dagi hikoyatlar va ularning mavzulari.
6. Xulosa.

**Mavzuga oid tayanch soʻz va tushunchalar:** Rabgʻuziy, Sulaymon va Qarincha, Adabiy manba, Bilqis, Tarixiy manba, Yusuf qissasi, «Qisasi Rabgʻuziy», Luqmoni hakim, Dovud hikoyati, Navroʻz madhi.

Sobiq Shoʻrolar davrida oʻzbek mumtoz adabiyotining bir qator vakillarining ijodi, ularning adabiy merosi turli sabablar, toʻsiqlar natijasida yetarlicha oʻrganilmadi, targʻib etilmadi. Bu jihatlar diniy, islomiy gʻoyalar, mafkuralar bilan bogʻliq asarlarda, hukmdorlar merosini oʻrganish yoki qator mumtoz shoirlarimizni zamonaviylashtirishga urinish kabilarda koʻrinadi. Oʻtmish merosimizning nodir yodgorligi boʻlgan «Qisasi Rabgʻuziy» kitobi va uning muallifi Nosiruddin Burhonuddin Rabgʻuziy merosi ham xalqimiz hayotidan uzib qoʻyildi. Ushbu kitob nashr etilmadi. Taʼlim muassasalarida yetarlicha oʻrganilmadi. Ilmiy ishlar amalga oshirilmadi. Asardagi mavzular, koʻpgina paygʻambarlar bilan bogʻliq hikoyatlar diniy mafkura bilan, islomiy aqidalar bilan sugʻorilganligi sababli oʻsha davr qarashlariga mos kelmasdi. Holbuki, Rabgʻuziyning ushbu asari er yuzining paydo boʻlganidan boshlab soʻnggi paygʻambar – Muhammad hayotiga doir boʻlgan voqealarni tasvirlar ekan, ularda kishilarni toʻgʻrilikka, komilikka, axloqan poklikka chaqirishi bilan yuksak ahamiyat kasb etadi.

Rabgʻuziy haqida yetarlicha maʼlumot yetib kelmagan. Bizgacha yetib kelgan yagona asari «Qisasi Rabgʻuziy»da baʼzi maʼlumotlar mavjud. Undagi maʼlumotlar ham toʻliq emas. Uning asl ismi Nosiruddin boʻlib, Xorazmning Rabotu Oʻgʻuz degan joyida tugʻilgan. Asarining muqaddimasida otasi Burhonuddin Oʻgʻuz Rabotining qozisi boʻlganligini aytib oʻtadi. Asarda bu haqda: «Bu kitobni tuzgan, toat yoʻlida tizgan, maʼsiyat yobonin kezgan, oz ozuqlik, koʻp yozugʻluk Gʻyaxshiligi oz, gunohlari koʻp Rabot Oʻgʻuzining qozisi Burhon oʻgʻli Nosiruddin...» deb qayd etilgan. Rabgʻuziy soʻzini prof. N.Mallaev «Raboti oʻgʻuz»ning birikuvidan kelib chiqqan deydi. Demak, Rabgʻuziy XIII asrning oxirlari va XIV asrning boshlarida yashagan xorazmlik shoirdir. Uning «Qisasi Rabgʻuziy» asari oʻzbek nasrining qadimiy namunasi. Bu asar islom dinini qabul qilgan moʻgʻul beklaridan biri boʻlgan Nosiruddin Toʻqbugʻaning topshirigʻi va homiyligida yozilgan. Asar hijriy 709 yil, melodiy 1309-10 yil, baʼzi manbalarda 1311 yil yaratilgan deb koʻrsatiladi. Toʻqbugʻa Rabgʻuziyga paygʻambarlar haqida asar yozishni topshiradi va natijada «Qisasi Rabgʻuziy» yuzaga keladi. Muallif asarni bir yil zahmat chekib tugatganini qayd etadi. «Qisasi Rabgʻuziy»ning turli davrlarda koʻchirilgan bir necha qoʻlyozma

nusxasi mavjud. Ular dunyoning turli kutubxona va qo‘lyozma fondlarida saqlanadi. Asarning eng qadimiy qo‘lyozma nusxasi XV asrda ko‘chirilgan bo‘lib, u Britaniya muzeyida saqlab kelinmoqda. Gronbek tomonidan 1948 yili Kopengagenda nashr qilingan. Manbalarga qaraganda, XV asr London nusxasi 1340 yilda Rabg‘uziy tiriklik davrida ko‘chirilgan. XV-XVI asrlarga mansub Sankt-Peterburg, XIX asrga oid Toshkent nusxalari mavjud. XIX asrning II yarmi va XX asrning boshlarida Toshkent, Qozon shaharlarida bir necha marta nashr etilgan. Asarning to‘la matni ilk marta rus turkiyshunos olimi N.Ilminskiy tomonidan 1859 yili Qozon shahrida e‘lon qilingan. Ushbu asar Radlov, Tomsen, Melioranskiy, Malov, Kononov, Bosim Atalay kabi xorijiy turkiyshunos olimlar, Fitrat, N.Mallaev, T.Fafurjonova, I.Ostonaqulov kabi o‘zbek olimlari tomonidan tadqiq qilingan.

Rabg‘uziy ushbu asarni yozishda Qur‘oni karim, hadislar, Abu Ishoq Nishopuriy asari, islomga oid turli kitoblar, shuningdek, Hasan Basra, Jobir ibn Ansoriy kabi qissago‘ylar ijodidan foydalangan. Asarni o‘qir ekanmiz, Rabg‘uziyning o‘nlab bunday asarlardan ijodiy foydalanganligining guvohi bo‘lamiz. Bu manbalar ikkiga bo‘linadi:

1. Adabiy manbalar.
2. Tarixiy manbalar.

Adabiy manbalarga, avvalo, Qur‘onga yozilgan tafsirlarni, so‘ng Ishoq Nishopuriy, Abul Hasan Kisoiy qissalarini kiritish mumkin. «Qisasi Rabg‘uziy»da Muhammad payg‘ambar hayotigacha bo‘lgan qissalar bevosita Qur‘on sharhi vazifasini bajargan badiiy asarlar, ikkinchi guruhga Imom Ismoil Buxoriyning «Al Jome al sahih», Abu Iso at Termiziyning «Shamoili nabaviya» kitoblarini kiritish mumkin.

Rabg‘uziy payg‘ambarlar haqidagi qissalarda olam va odam haqidagi qarashlarini badiiy ifodalashga harakat qilgan. Qissalar asosini tarixiy voqealar tashkil etadi. Asar 72 qissadan iborat. Qissalar mavzu jihatdan rang-barang. Olamdagi butun mavjudot egasi bo‘lgan Ollohni ulug‘lash, payg‘ambar hayotiga doir lavhalarni eslash, kamtarinlik va takabburlik, ota-ona va farzand munosabatlari, vatan va mehnatsevarlik, erk va adolat, do‘stlik va hamjihatlik, urush va tinchlik kabilar shular jumlasidandir. Asarda shunday bir jumla borki, u asar mavzusini aniqlash imkonini beradi: «Dunyoga boring, menga toat qiling, ma‘siyatdan yig‘iling, qon to‘kmang, xamr ichmang, xalq orasida ko‘ni hukm qiling, zino qilmang, xiyonat qilmang». Ya‘ni inson Ollohga toat qilsa, hamisha uning yodi bilan yashasa, oxiratini o‘ylasa yomon ishlardan saqlanadi, o‘zidagi yomon unsur va illatlardan qutilishga harakat qiladi.

«Ma‘siyatda yig‘iling»-gunohdan saqlaning degani. Gunoh va savob tushunchasi asarda ko‘p tilga olinadi. «Ko‘ni hukm qiling»-bu nasihat amaldorlarga taalluqli bo‘lib, har ishda adolatli, to‘g‘ri hukm qilish zarurligi ta‘kidlangan. Kuchsizlarga ozor yetkazmaslik va inson shahvoniy hislarga berilmasligi, bu yo‘lda yurganlarga sharmandalik, yuzi qarolik, azob-uqubat yetishi aytiladi.

Islomda xamr aroq ichish man qilinadi. Chunki u ko‘p yomon ishlarga sabab bo‘ladi. Qon to‘kish, besabab birovni o‘ldirish ham islomda qoralanadi. Omonatga xiyonat qilmaslik olijanob fazilat.

Asarda Nuh, Dovud, Sulaymon, Iso, Muso, Yusuf, Ya'qub, Ismoil, Ibrohim kabi payg'ambarlar, Luqmoni hakim haqidagi hikoyatlar keltirilgan.

Asarda odamning, yer yuzi, ko'k, jin, farishtalarning yaratilishidan boshlab ma'lumotlar keltiriladi. Mana olamning yaratilishi haqidagi xabar: «Xabarda andog' kelur: Yakshanba kun ko'klarni yaratti, dushanba kun oyni, kunni, yulduzlarni yaratti, falak ichinda turitti, seshanba kun olam xalqinda qush-qurtlarni, farishtalarni yaratti, chahorshanba kun suvlarni yaratti, ellarni, bulutlarni chiqardi, yig'ochlarni, o't- yemlarni yaratti, undurdi. Ro'zilarni ulashturdi. Payshanba kun ujmoq, tamug'ni, rahmat va azob farishtalarni yaratti, hurlarni yaratti. Azina kun odamni yaratti. Shanba kun narsa yaratmadi». «Qisasi Rabg'uziy». 12-bet.

Odamning yaratilishi haqida ham gap boradi. Jabroil, Isrofil, Mekoil tuproq olib kelishga buyuriladi. Ular qilmagan ishni Azroil bajaradi. Shu uchun ham jonzoqlar jonini olish unga topshiriladi. Odamni tuproqdan yaratadi. Tog', Tengiz, Ko'k ulardan yaratishni talab qilishadi. Tuproq jim turgani bois undan yaratiladi 17-bet.

«Qissai Qobil va Hobil»da tasvirlanishicha, Qobil bilan Iqlimo, Hobil bilan Abudo tug'iladi. Iqlimo go'zal. Abudo ko'rksiz edi. Qobilga Abudo beriladigan bo'ldi, u ko'nmadi. Odam ularga qurbonlik qilishni, kimning qurbonligi qabul bo'lsa, Iqlimo berilishini aytdi. Hobilning qo'yi qabul bo'ldi. Qobil tosh bilan urib Hobilni o'ldirdi. Qarg'alarga qarab, Hobilni yerga qo'ydi. Odam ko'mish shundan qoldi. 30-31- betlar.

Nuh va kema bilan bog'liq hikoyat ko'pchilikka yaxshi tanish. Bayoni beriladi, tahlil qilinadi.

Asarda katta bir qissani Yusuf payg'ambar haqidagi qissa tashkil etadi. Ya'qub, uning o'g'illari, Yusuf va Zulayho haqidagi voqealar ancha mashhur. Hikoyat tahlil qilinadi.

Hazrati Dovud haqidagi qissa ham e'tiborli. Qissa Dovudning ta'rifi bilan boshlanadi. Undan keyin Dovud haqidagi umumiy tasavvurlar bayon etiladi:»Dovud yalavoch (payg'ambar) bani Isroildan erdi. O'n qarindosh er dilar, otalari Isho' otlig'. Dovud qamug'idin (barchasidin) kichik erdi. Tun-kun yig'layur erdi ibodat ichinda» Dovud payg'ambar bilan bog'liq bir necha hikoyatlar beriladi. Adolat bilan hukm qilishi, kechalari raiyat holi bilan tanishishi, bir kampir qiyofasidagi farishta u xalq molini yeyishini aytishi, so'ng Dovud payg'ambar temirchilikni o'rganishi bayon qilinadi.

Asarda Muso payg'ambar, Sulaymon va qarinch, Sulaymon va kursisi, Sulaymon va Bilqis haqidagi, Yunus, Ilyos, Xizr, Luqmoni hakim, Iso, Iskandar haqidagi qissalar ham e'tiborlidir.

Asarning katta qismi payg'ambarimiz Muhammad hayotlariga bag'ishlangan. Rabg'uziy haqida gap ketganda uning she'riyati haqida ham so'zlash joiz. Chunki har bir qissa boshida yoki oxirida keltirilgan she'rlar bundan dalolat beradi. Ayrim g'azallar voqealar ichida ham beriladi. Bular Rabg'uziyning turkiy aruz va barmoq vaznini yaxshi egallaganidan guvohlik beradi. Ushbu asarda 600 misra she'r o'rin olgan bo'lib, bular g'azal, ruboiy, qit'a, to'rtlik, qasida janrlarida bitilgan. Bahorni, Navro'zni madh etuvchi she'r bor. Rabg'uziy asarida xalq og'zaki ijodining ham

chuqur ta'siri seziladi. Masalan: Bani Isroil ularga 12 baquvvat, baland bo'yli kishilarni yuborishadi, bog'bon kelib ularning oltitasini bir engiga, yana oltitasini ikkinchi engiga solib oladi. Ularni qo'l-oyoqli qurtlar deb ataydilar. Yoki Muso payg'ambar hassasini erga sanchsa mevali daraxt, dushmanga qarshi ilon, daryodan o'tishda ko'priklar vazifasini bajaradi. Yoki Yusufning akasi Yahudo na'ra tortsa, Misr eli hushsiz yiqiladi va hokazo.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Rabg'uziy kim?
2. Uning ijodi haqida nimalar bilasiz?
3. «Qisasi Rabg'uziy» qanday asar?
4. Bu asar uchun qaysi manbalar asos bo'lgan?
5. Rabg'uziy she'riyati haqida gapiring.
6. Asardagi qissalar mohiyati nimada?
7. Payg'ambarlar bilan bog'liq hikoyatlardan misol keltiring.

#### **Adabiyotlar:**

1. N.Mallaev. O'zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob. T.,1963.
2. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 1-tom. T.,1978.
3. Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. 1-kitob. T.,1991.
4. Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. 2-kitob. T.,1992.
5. K.Imomov. O'zbek xalq prozasi. T.,1981.
6. I.Ostonaqulov. Qissas-ar-Rabg'uziy-adabiy asar. Kan.diss.avtor. T.,1993.
7. B.To'xliiev. O'zbek adabiyoti. Darslik. 9-sinf. T.,2000.
8. R.Vohidov, H.Eshonqulov. Mumtoz adabiyot-hikmat xazinasi. Buxoro,2001.
9. H.Safarova. Rabg'uziyning «Qissai Yusuf Siddiq alayhis-salom» asari manbalari va g'oyaviy-badiiy tahlili. Nom.diss.avto. Samarqand-2001.

## 11-mavzu: XORAZMIY HAYOTI VA IJODI

### Reja:

1. Kirish.
2. Xorazmiyning hayoti va ijodi.
3. «Muhabbatnoma»ning nusxalari va janr xususiyatlari.
4. Asarning mavzu va obrazlari.
5. Muhammadxo'janing madhi.
6. «Muhabbatnoma»ning badiiy xususiyatlari.
7. O'zbek adabiyotida «Muhabbatnoma»ning o'rni.
8. Xulosa.

Xorazmiy XIV asr o'zbek adabiyotining vakillaridan biridir. Uning hayoti va ijodi haqida yetarli tasavvur beradigan manbalar hozircha ma'lum emas. Xorazmiy haqidagi ma'lumotlar uning o'z asari «Muhabbatnoma» tarkibida uchraydi. Navoiy ham u haqida ijobiy fikrlar aytadi. Bizga ma'lum manbalardan ko'rinadiki, u shoir sifatida ham o'z davrida keng shuhrat qozonadi. Ko'pgina lirik asarlar yozgani shubhasiz. Chunki «Muhabbatnoma»dagi bir necha janrlarda yozilgan asarlar uning shoirlik iste'dodidan dalolat beradi. Xorazmiyning merosi haqida, uni o'rganish borasida bir muncha ishlar olib borildi. Bu jihatdan Samoylovich, Ko'prilizoda, Shcherbak, N.Mallaev, Solih Qosimov va boshqalarning ishlarini ko'rsatish mumkin. Shoiring to'liq nomi, tarjimai holi aniq emas. «Muhabbatnoma»ning ko'p joyida «Xorazmiy» taxallus sifatida keltirilgan. Bu uning Xorazmdan ekanini ko'rsatadi. «Muhabbatnoma» asari tarkibida keltirilgan fors-tojik tilidagi hikoyat, uning sayohati, hayoti bilan bog'liq ma'lumot olishda manba bo'lib xizmat qiladi.

Xorazmiy 1353 yilda Oltin O'rda xoni Jonibekning Sirdaryo muzofotidagi amaldorlardan biri Muhammadxo'jabek bilan tanishadi. U fors-tojik tilidagi she'rlari bilan tanilgan Xorazmiyga o'zbek tilida asar yozishni topshiradi. «Muhabbatnoma»da yozilishicha, Muhammadxo'jabek (Muhammad Xo'jabek) saroyida bazm bo'lib, majlis o'tkaziladi va shoirga asar yozish buyuriladi:

Tabassum qildi, aydi: «Ey faloni,  
Keturgil bizga loyiq armug'oni.  
Ko'ngil bahrinda ko'p gavharlaring bor,  
Ochunda porsiy daftarlaring bor.  
Muhabbat nardini ko'plardin o'ttung,  
Shakardek til bila olamni tutting.  
Tilarmankim, bizing til birla paydo,  
Kitobe aylasang bu qish qotimdo.  
Kim, ush eltek kechar ayyomi foniy,  
Jahonda qolsa bizdin armug'one».

Xorazmiy kuchi etguncha harakat qilishini, asarni yozishni bajonidil qabul qiladi. 1353-1354 yillar atrofida ushbu «Muhabbatnoma» asari yaratildi. Ma'lumki, Xorazmiyga qadar Avhadiy Marog'aviyning forsiy «Dahnoma»si, kirmonlik Xoja Imodidin Faqehning «Muhabbatnoma»si bo'lgan. Xorazmiy turkiy tilda asar yozdi.

«Muhabbatnoma»ning ikki - arab va uygʻur qoʻlyozmasi mavjud. Uygʻur yozuvidagi qoʻlyozma 1432 yil Mir Jamoliddin degan kishi topshirigʻi bilan Boqi Mansur (Boqir Mansur) baxshi nomli kotib tomonidan koʻchirildi.

Arab yozuvidagi nusxasi 1508-1509 yillarda koʻchirilgan. Bu nusxaga hikoyat ham ilova qilingan. «Muhabbatnoma» 473 baytdan iborat boʻlib, shundan 317 bayti oʻzbek tilida, 156 bayti fors-tojik tilida yozilgan.

«Muhabbatnoma»ning asosiy qismini oʻzbek tilidagi asarlar tashkil etadi. Asar hamd, shoirning Muhammadxoʻja bilan koʻrishgani bayoni, gʻazal, masnaviy, Muhammadxoʻja madhi, vasful holdan tashkil topgan.

Asarning asosiy qismini 11 noma tashkil etadi. 4-8-11-nomalar fors-tojik tilida, qolgan sakkiztasi oʻzbek tilidadir.

Xorazmiy oʻz «Muhabbatnoma»sida bir necha janrlarda ijod qilganini koʻrsata olgan.

«Muhabbatnoma»dagi janrlar Xorazmiyning fors va turkiy tilda ham ijod qila olganini, noma, gʻazal, masnaviy, qasida, fard kabi xilma-xil janrlarda asar yaratganligining dalolatidir.

«Muhabbatnoma»ning asosiy mavzusi ishq, muhabbat, goʻzallik tasviridir. Bulardan tashqari, asarning quyidagi tuzilishi uning boshqa mavzuda yozganligining isbotidir.

Asardagi kirish qismi. Bu qism oʻz ichiga hamd, voqea bayoni, yaʼni asarning yozilishi sababi va oʻrni. Muhammadxoʻjabekning madhi hamda soʻz boshi va voqealar bayoni tarzida keltirilgan 3ta oʻzbekcha, 1ta forsiy gʻazallarni oʻz ichiga oladi.

Asarning asosini tashkil etadigan nomalar va ular bilan bogʻliq holda keltirilgan soqiynoma tarzidagi kichik masnaviylar.

Asarning xulosa qismi. Bu qism munojot, qitʼa, xotimatul kitob va forsiy hikoyatni oʻz ichiga oladi.

«Muhabbatnoma» uning nomidan ham koʻrinib turganidek, muhabbat nomalaridan, oshiqning oʻz maʼshuqasiga yoʻllagan sheʼriy maktublaridan iborat. Nomalarning 10 tasi bevosita maʼshuqaga bagʻishlangan boʻlib, shu ruhda yozilgan boʻlsa, bitta noma - ikkinchi maktub tong nasimiga murojaat tarzida yozilgan. Bu noma oʻz uslubiga koʻra boshqa qismlardan ajralib turadi. Bevosita maʼshuqaga qaratilgan maktublarda mahbubaning tavsifi, va madhi yetakchi oʻrin egallab, oshiqning shikoyati, kechinmalari tasviri kam boʻlsa, ikkinchi nomada bu jihat ancha keng berilgan. Shoir oltinchi nomada shunday yozadi:

Ayo, boʻyi sanubar chehrasi oy,  
Quyosh yanligʻ jamoling olamoroy.  
Oʻtursang, oʻlturur fitna, kyetar gʻam,  
Agar qoʻpsang, qiyomatlar qoʻpar ham.  
Sumantek orazing guldur tikansiz  
Manga doʻzax erur uchmoq sensiz.  
Bilursizkim erur ayyomi foniy,  
Nechuk haddin oshirursiz jafoni.

Qachonkim shod esang, gʻamgina rahm et,

Agar sulton esang, miskina rahm et.  
Suyurman koʻzni sizni koʻrmoq uchun,  
Yururmen erda izni koʻrmoq uchun.  
Quling ne qilsin oʻz haddini taqsir,  
Koʻngul bir, qibla bir, jonona ham bir,  
Chechaksen, banda sayrar bulbulungdur,  
Necha borincha Xorazmiy qulungdur.

Asarda har bir nomadan keyin soʻqiynoma ruhida 3 baytli masnaviyalar keltirilgan. «Muhabbatnoma» sadoqatli oshiqning chuqur kechinmalari, uning insoniy fazilatlari, pok muhabbati tasviridan iborat. Shoir oshiq kechinmalarini, ishq tasvirini insonga xos muhabbat nuqtai nazaridan yoritadi. Lirik qahramon shunday deydi:

Oʻshul kunkim, seni xoliq yaratti  
Seni dilbar, meni oshiq yaratti.

Asarning boshidan oxirigacha asosiy tasvir obʻekti bu maʼshuqa obrazidir. Shoirning barcha taʼrifu tavsifi uni madh etishga yoʻnaltirilgan. U shunday deydi:

Shakardin totli soʻzli dilrabosen,  
Darigʻokim, chechakdek bevafofen.  
Sening yoding qilurmen koʻp gʻazalda,  
Kim, erdim husnunga oshiq azalda.  
Manga haddin oshirma bu jafoni,  
Koʻzungdin solma bu miskin gadoni.

«Muhabbatnoma»da oshiq obrazi asosan maʼshuqasiga yoʻllagan maktublari asosida namoyon boʻladi. U ishq, vafo, sadoqat, oshiqlik masʼuliyatini chuqur angʻlaydi. Mana uning fikri:

Jafodin ingramas bu yoʻlda ushshoq,  
Vafodin javringiz ming qatla xushroq.  
Evrman yuz, nechakim kelsa mehnat,  
Jafu sizdin, tagʻi bizdin muhabbat.

Maʼlumki, mavjud tadqiqotlarning aksariyatida «Muhabbatnoma» dunyoviy ruhdagi, undagi ishq esa hayotiy, insoniy ishq sifatida talqin etiladi. Bizningcha ham, asarda ushbu xususiyat yetakchilik qiladi. Ammo adabiyotshunos olim Yo. Ishoqov asardagi baʼzi baytlarga asoslanib, undagi ishqni ilohiy ishq tarzida talqin etadi. U shunday yozadi: «Asar tarkibidagi ayrim ishoralarda bu asar mohiyatan tasavvuf ruhida ekanligini isbotlaydi. Quyidagi bayt esa uning tasavvufdagi eʼtiqodini yanada aniqroq namoyon etadi:

Qadam dar nehki dar ishq majoziy,  
Ba maqsude rasi, gar pokboziy.

Mazmuni: Majoziy ishqqa qadam qoʻy. Sen agar pokravish boʻlsang, haqiqiy maqsadga erishasan.

Bu satrlardan muallif koʻzlagan asosiy maqsad, shubhasiz, ilohiy ishq... Xorazmiy bu masalada naqadar etukligi, majoziy ishq uning uchun haqiqatga olib boradigan yoʻl ustidagi koʻprik ekanligi agar xotimasi («iltimosin aytur»)dagi quyidagi baytdan ayon boʻladi:

Muni kim ishq birla bir oʻqigʻay,



Haqiqat olamini munda bilg‘ay».

(Bu haqda qarang: Yo.Ishoqov. Naqshbandiya ta‘limoti va o‘zbek adabiyoti. T.,2002. 21-bet.)

Xorazmiyning asarida vasfi hol, Muhammadxo‘jaga bag‘ishlangan qasida, may mavzusi ham yoritilgan.

May-shodlik timsoli, hijron azoblaridan qutilish vositasi sifatida talqin etiladi. «Muhabbatnoma» o‘z tili, badiiy tasvir vositalari bilan ham e‘tiborlidir. Xorazmiyning «Muhabbatnoma» asari ta‘sirida Xo‘jandiyning «Latofatnoma», Amiriyning «Dahnoma», Said Ahmad Mironshohning «Taashshuqnoma» asarlari yaratildi.

### **Adabiyotlar:**

1. Darsliklar.
2. Xorazmiy. Muhabbatnoma. T., 1959.
3. Navoiyning nigohi tushgan. T., 1986.
4. Muborak maktublar. T., 1987.
5. Shcherbak. Uguzname. Muhabbatnome. M., 1959.
6. S.Qosimov. Xorazmiy ijodi. T., 1950.
7. Yo.Ishoqov. Naqshbandiya ta‘limoti va o‘zbek adabiyoti. T., 2002.
8. R.Vohidov, H.Eshonqulov. Mumtoz adabiyot-hikmat xazinasi. Buxoro-2001.

## 12mavzu: SAYFI SAROYI IJODIY MEROSI

R e j a:

1. Kirish.
2. Sayfi Saroyining hayoti va ijodi.
3. Sayfi Saroyining adabiy merosi.
4. Sayfi Saroyi tarjimon.
5. «Guliston-bit turkiy»ning mavzulari.
6. «Suhayl va Guldursun» dostoni
7. Xulosa

**Mavzuga oid tayanch soʻz va tushunchalar:** Sayfi Saroyi, Oltin Oʻrda, «Suhayl va Guldursun», Saʼdiy, «Guliston», Suhayl, Guldursun,

Sayfi Saroyi XIV asrda yashab ijod qilgan turkiy adabiyot vakillaridan biridir. U adabiyotimizda shoir va tarjimon sifatida oʻz oʻrniga ega.

Manbalardan maʼlum boʻlishicha, Sayfi Saroyi 1321 yilda Qamishli yurtida tugʻilgan. Qamishli-Xorazmdagi qishloqlardan birining nomi. Ammo u nom Volga boʻyida ham koʻp uchraydi. U Qamishlidan bilimni oshirish uchun Saroyga keladi. Saroy-Oltin Oʻrda davlatining poytaxtidir. Muhammad ibn Arabshohning yozishicha, «Saroy tutgan oʻrni va xalqining juda koʻp boʻlishi bilan eng katta shaharlarning birisi edi. U fan markaziga aylandi. Oz vaqti ichida bu yerda koʻplab atoqli, mashhur kishilar toʻplandi». Ular orasida Qutbiddin ar-Roziy, Maʼsud Taftazoniy, Kamoliddin at-Turkmaniy, Hofiz ibn Bazzoziylar bor edi. Shuningdek, mashhur shoir Kamoliddin Xoʻjandiyning ham XIV asr oxirlarida Saroyda yashab ijod etganligi yaxshi maʼlum. Shoir shu erda yashab turgan davrida «Saroyi» degan taxallusini olgan. Sayfi-uning ismi boʻlib, «Qilich» degan maʼnoni bildiradi. /B.Toʻxlijev. 9-sinf. 189-190-betlar/.

Sayfi Saroyining yashab ijod qilib oʻtgan davri tarixda Oʻzbekxon oʻgʻli Tinibek va Jonibeklarning hukmronligi davriga toʻgʻri keladi. XIII asrdagi moʻgʻullar istilosi mamlakatni izdan chiqargan edi. Bu bosqin tufayli koʻplab kishilar qirildi. Koʻplab shoirlar oʻzga yurtlarga kyetib qoldi. Sayfi Saroyi ham shulardan biri edi. U shunday yozadi:

Oʻsib tuprogʻim uzra nayzalar, men evdin ayrildim,  
Vatandin benishon oʻldimda, oʻzga yurtga evrildim.  
Nechun menga falak javr ayladi, qanday gunohim bor?  
Iloho ayla kam jabring, men elga sodiq ul erdim.

Demak, Sayfi Saroyi Movarounnahrda, Oltin Oʻrda davlatining poytaxti Saroyda yashab ijod qilgan. Misr va Turkiyada ham yashagan. «Guliston bit-turkiy» kitobidagi quyidagi misralar shoirning Misr maliklaridan birining xizmatida boʻlganligi, qarib qolganligi tufayli oʻz vataniga kyetish uchun malikdan ruxsat soʻraganidan dalolat beradi:

Ilohiy bu qari miskin qulingni,  
Bagʻishla koʻrguzub toʻgʻri yoʻlingni.  
Maliklar rasmidir dilshod qilmoq,  
Qarisa qullarin ozod qilmoq.

Qari yorli quling Sayfi Saroyi,  
Faqiru benavo lutfing gadoyi.  
Ani lutfing bilan dilshod qilg'il,  
Bag'ishlab yozuqin ozod qilg'il.

Adib taxminan 1396 yilda vafot etgan.

Sayfi Saroyining o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bebahodir. Undan bizgacha, bir qancha g'azal, qasida, qit'a, ruboiylar, «Suhayl va Guldursun» dostoni, «Sinbondnoma», «Guliston» kabi asarlarining erkin tarjimalari yetib kelgan. Bulardan tashqari, Sa'diy «Guliston»i tarjimasiga kiritilgan original she'riy parchalar, masnaviylar ham Sayfi Saroyi qalamiga mansubdir. Shoir g'azallarida shakl va mazmun birligini birinchi o'ringa qo'yadi. Shoirning «Shoirlar ta'rifida» degan masnaviysida ijodkorlarga talabchan munosabatda bo'ladi:

Jahon shoirlari, ey gulshani bog',  
Kimi bulbuldurur so'zda, kimi zog'.  
Kimi to'ti tegin chaynar shakarni,  
Kimi lafzi bilan o'rtar durarni.  
Kimining so'zlari mavzunu shirin,  
Kimining loyiqi ta'rifi tahsin.  
Kimi o'zganing ash'orin menim der,  
Kimi hayvon kabi shalg'am cho'pin er.  
Kimi ma'ni tuzub vaznin tuzotur,  
Kimi vaznin buzub, san'at kuzotur.

Sayfi Saroyining lirik she'rlari miqdor jihatdan juda oz. Devon tariqasida tartib berilmagan. Bizgacha undan faqat «Gulistoni bit-turkiy» asarining kirish qismidagi va so'nggi varaqlaridagi «Ko'ngul», «Topulmas», «Ko'zlarining», «Taolalloh zehi surat», «Ul yuzi oy», «Yangi oy», «Qamar yuzingdin», «Erur», «Tutar», «Meningtek nechalar hayron», «Ko'rinur» kabi g'azallari va bir «Bahor tasviri» she'ri yetib kelgan. Shu she'rlar ham shoir she'riyati haqida ma'lum tasavvur uyg'otadi.

Sayfi Saroyi she'rlariga nazar solsak, mavzu jihatdan turlicha ekanligini ko'ramiz. Ishq-muhabbat, vafodorlik va sadoqat mavzulari yetakchilik qilgani holda, odamiylik, inson qadr-qimmatini, ijtimoiy mavzular ham uchraydi. Shoir so'z o'yinlaridan mahorat bilan foydalanadi. «Erur» radifli g'azali bu jihatdan xarakterlidir:

Dilbarimning zulfi sunbul, chehrasi gulzor erur,  
Bo'yina oshiq sanubar, yuzina gul, zor erur.  
Og'zi fistuq, ko'rki tangsuq, o'zi mushfiq yor erur,  
Husnining chovi Xitou Chin ichinda bor erur.  
Asli alchin, so'zlari chin, ko'zlari totor erur,  
Ming yashar har kim dudog'i sharbatin totor erur...  
Vasfina Sayfi Saroyining ishi ash'or erur,  
Andin o'zga birla oshiqqa emak osh, or erur.

Sayfi Saroyi g'azallari o'zining ohangdorligi, sodda va o'ynoqiligi bilan ham ajralib turadi.

Yangi oydur qoshing, ey ko'rka boyim,

Qilur ta'zim yuzungni ko'rsa oyim.  
Su ichkanda dudog'ingdan su tomsa,  
Bitar qandu shakar ul erda doyim...

Shoir yaxshilikni ilgari suradi. Yomonlik qilganga ham yaxshilik qil deydi:

Yamonlik qilgan erga, ezgulik qil,  
Qopar it og'zini luqma otadur.

Sayfi Saroyining bunday qarashlari «Gulistoni bit- turkiy»da keltirilgan baytlarda ham ko'rinadi.

etganicha kuching ko'ngul yopqil,  
Kim xaloyiq senga duo qilg'ay.  
Tushgan er hojatin ravo qilsang,  
Haq sening hojating ravo qilg'ay.

Yoki:

Sindirur bo'lsa urib oltin qadahni katta tosh,  
Sinmas oltin qiymati, ortmas bahosi toshning.

Sayfi Saroyi shoir Xorazmiyning tabiat go'zalligini madh qilgan bir g'azaliga nazira tariqasida yigirma to'rt baytlik qasida ham yozgan. Uning bu qasidasi Iskandariya hokimiga bag'ishlangan. U bizgacha yetib kelgan o'zbek tilida yozilgan XIV asr qasidasining ilk namunasi.

Sayfi Saroyining «Suhayl va Guldursun» dostoni ham xarakterlidir. Bu doston haqida manbalarda ma'lumot yo'q edi. 1966-67 yillarda farg'onalik Kamolxon Sultonov degan kishining qo'lida saqlangan qo'lyozma asosida u topildi. Bu qo'lyozmada Sayfi Saroyiga zamondosh Tug'lixoja Xorazmiy, Mavlono Ishoq Xorazmiy, Mavlono Ahmad Urganjiy kabi shoirlarning bir qancha g'azallari berilgan. So'nggida Sayfi Saroyining ikki bayti, uch qit'asi va 82 bayt-164 misradan iborat «Suhayl va Guldursun» dostoni berilgan. Bu liro-epik asardir. Doston asosida dunyoviy ishq yotadi. Sevgida vafodorlik, mardlik tarannum etiladi. Manbalarda qayd etilishicha, doston 1394 yilda yozilgan. Asar Nizomiyning «Xisrav va Shirin», Navoiyning «Mehr va Suhayl» asarlarini eslatadi. Dostonning qisqacha syujeti shunday: Amir Temur Urganchga hujum qiladi. Ko'p kishi asir olinadi. Ular orasida Suhayl ham bor edi. Temurning qizi Guldursun Suhaylni ko'rib sevib qoladi. Guldursun qorovullarni mast qilib, Suhaylni banddan ozod qiladi. Ular qochadilar. Sahroda ochlik va suvsizlikdan Guldursun holsizlanib qoladi. Uzoq qishloqqa suv izlab ketgan Suhayl qaytib kelganda Guldursun vafot etgan bo'ladi. Dahshatga tushgan Suhayl shunday qarorga keladi:

Menga yaxshi bukun yor birla o'lmak,  
Na lozim g'am bilan dunyoda qolmak.

U o'ziga tig' sanchadi va halok bo'ladi. Shamol bo'lib, ularning jasadini qumlar bilan ko'madi.

Suhayl oh urdi, shu dam qo'pdi bo'ron,  
Aningtekkim, buzuldi charxi davron.  
Alar uzra to'kildi, ko'mdi tuproq,  
Bu sirni tanho sahro bildi ko'proq.

Sayfi Saroyining bulardan tashqari, Sa'diyning «Guliston» asarini tarjimai hisoblangan «Gulistoni bit-turkiy» asari ham yetib kelgan. Olimlarimizning qayd etishicha, hijriy 793, melodiylar 1390-91 yillarda tarjima qilingan bu asar fors-tojik shoiri Sa'diy Sheroziyning «Guliston» asarining o'zbek tilidagi eng birinchi ijodiy tarjimasidir. Sa'diy bu asarni 1258 yilda yozgan edi.

Sayfi Saroyi «Gulistoni bit-turkiy» asarining jahon bo'yicha birdan-bir nusxasi Leyden universitetining kutubxonasida saqlanmoqda. Bu qo'lyozmaning fotonusxasi Moskva va Toshkentda ham saqlanmoqda. Farg'onada topilgan «Yodgornoma»da bor.. Sayfi Saroyi «Guliston»ning asosiy mag'zini olib uni o'z zamonasi ruhini aks ettiruvchi yangi hikoyatlar, qit'a va baytlar bilan to'ldirib, ona tilida xalqiga taqdim etadi. Sayfi Saroyi «Guliston»idagi hikoyatlar quyidagi boblarga bo'lingan:

Birinchi bob-sultonlar haqidagi hikoyatlar.

Ikkinchi bob-faqirlar axloqi haqidagi hikoyatlar.

Uchinchi bob-qanoatning foydasi haqidagi hikoyatlar.

To'rtinchi bob-sukutning foydasi haqidagi hikoyatlar.

Beshinchi bob-ishqdagi yigitlik sifati haqidagi hikoyatlar.

Oltinchi bob-qarilikdagi zaiflik sifatlari haqida.

Yettinchi bob-tarbiyaning ta'siri haqida.

Sakkizinchi bob-suhbat odoblari haqida.

Har hikoyatning oxirida masal yoki falsafiy chekinishlar mavjud. Masallar, to'rtlik, baytlar shoirning mulohazalarini tasdiqlash uchun xizmat qilgan.

Asardagi hikoyatlar mavzulari rang-barang bo'lganidek, obrazlar ham xilma-xildir. Shohlar, vazirlar, amaldorlar, ruhoniylar, olimlar, hunarmandlar, dehqonlar, darveshlar, o'g'rilar, pahlavonlar, savdogarlar va boshqalar. Shartli tarzda nomlanuvi «Asir, podsho va vazir» haqidagi (asir podshoni so'kish, ikki vazir ikki xil talqin etishi), («Podsho va uch o'g'li») kichik o'g'ilning ko'rimsiz, ammo jasurligi), «Malik, qul va kema», «No'shiravon va kiyik ovlash», «Tosh bilan bog'liq hikoyat», «Pahlavon va shogirdi» (shogirdning xiyonati va 360 usul), «Pahlavon va so'kish», «O'g'ri, shoir va itlar» kabi hikoyatlar xarakterlidir.

Umuman, «Gulistoni bit-turkiy»dagi hikoyatlarni o'qish, undagi mazmun va mohiyatni anglash, hikoyatlardagi qiziqarli tasvirlar har bir o'quvchini o'ziga rom eta oladi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Sayfi Saroyi kim?
2. Uning qanday asarlarini bilasiz?
3. Sayfi Saroyi she'riyatidan misol keltiring?
4. «Suhayl va Guldursun» dostoni qanday asar?
5. «Gulistoni bit-turkiy»dagi hikoyatlardan misol keltiring.

### **Adabiyotlar:**

1. Darsliklar.
2. Sayfi Saroyi. Guliston bit-turkiy. Uch bulbul gulshani. To'plam. T.,1986.
3. Sayfi Saroyi. She'rlar. T.,1968.

4. Sa'diy. Guliston. T.,1968.
5. E.Fozilov. XIV asr Xorazm yodnomalari. T., 1973.
6. B.To'xliev. O'zbek adabiyoti. Darslik. 9-sinf. T., 2000.

## 13-mavzu: **DURBEK VA UNING “YUSUF VA ZULAYHO” DOSTONI**

R e j a:

1. Kirish.
2. «Yusuf va Zulayho»ning muallifi haqida.
3. «Yusuf va Zulayho» dostoni.
4. Xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotda Yusuf va Zulayho obrazlari.
5. «Yusuf va Zulayho» dostoni va xalq og‘zaki ijodi.
6. Dostonning badiiy xususiyatlari va tili.

**Mavzuga oid tayanch so‘z va tushunchalar:** Durbek, Taymus, «Yusuf va Zulayho», Bashir, Balx, Misr Azizi, Yusuf, Rayyon, Ya‘qub, Moliki tojir, Misr.

«Yusuf va Zulayho» syujeti xalq orasida nihoyatda mashhurdir. Manbalarda Yusufni juda qadimiy ildizga ega ekanligi, u yahudiylarning qadimiy xudolaridan biri bo‘lsa kerak degan qarashlar bayon etilgan. Sharqda «Yusuf va Zulayho» obrazlari bilan ko‘plab afsona va rivoyatlar yaratilgan. Bu syujetning yana ham keng yoyilishida «Tavrot» va «Qur’oni karim»ning ham juda katta ta’siri bo‘ldi. Bu muqaddas diniy kitoblarda Yusuf bilan bog‘liq voqealar, suralar keltirilgan. Yozma adabiyotda «Yusuf va Zulayho» syujeti ancha ilgari davrlardan boshlab yoritila boshlandi. Abul Muayyad Balxiy, Baxtiyoriy degan shoirlarning bu syujet asosida asar yozgan degan ma’lumotlar mavjud. Lekin ularning asarlari bizgacha saqlanib qolmagan.

Firdavsiy ham «Yusuf va Zulayho» dostonini yaratadi. XI asrda Shahobiddin Am‘aq Buxoriy ham «Yusuf va Zulayho» dostonini yozgan. Ammo u ham bizga noma’lum bo‘lib qolmoqda. 1233 yilda Ali degan shoir turkiy, ya’ni o‘g‘uz tilida «Qissai Yusuf» dostonini yozadi. Bu mavzuda turkiy tilda Shoyyod Hamza ham asar yozgan. 1310 yil Rabg‘uziy ham «Qisai Rabg‘uziy» asarida «Yusuf va Zulayho» syujetiga murojaat etadi.

1409 yilda Balxda Durbek «Yusuf va Zulayho» dostonini yozdi. Durbek nomi 1920 yillargacha ilmiy adabiyotda ma’lum emas edi. Uning «Yusuf va Zulayho» dostonining qo‘lyozmasi topilgach, shoir adabiyotshunoslar diqqatini jalb etadi. U haqda ilmiy ishlarda umumiy ma’lumotlar berildi. Asardan parchalar bosildi. Durbek 1930-40- yillardan boshlab darsliklardan ma’lum darajada o‘rin ola boshlaydi. Shoir ijodini o‘rganishda sharqshunos Bertels ancha ishlarni amalga oshirdi. Keyingi yillarda ilmiy jamoatchilik orasida «Yusuf va Zulayho»ning muallifi Durbek emas, Ulug‘bek, Homidiy Balxiy degan fikrlar maydonga kela boshladi. Yaqinda chop etilgan o‘rta maktab darsliklarida esa «Yusuf va Zulayho» dostoni muallifi noma’lum asarlar sifatida berildi. Ko‘zga ko‘ringan adabiyotshunos olimlar Bertels, Hodi Zaripov, F.Shamsiev, Oybek, M.Shayxzoda, O.Sharofiddinov, V.Zohidov, I.Sulton, H.Yoqubov, F.Karimov, A.Qayumov, A.Hayitmetov, N.Mallaev, S.Haydarov va boshqalar «Yusuf va Zulayho»ning muallifi Durbek deb ta’kidlaydilar.

Durbekning hayoti va faoliyati haqidagi materiallar uning yagona dostoni «Yusuf va Zulayho» orqali yetib kelgan. Asar 1409 yil Balxda yozilgan. Uning ismi, ijtimoiy

kelib chiqishi va boshqalar haqidagi ma'lumotlar yo'q. Balx qamalining guvohi bo'lgan. Bu erdagi voqealarni kuzatgan. Bu erda ko'p kitob mutolaa qilganligini, forsiy tildagi «Yusuf va Zulayho» asarlarini o'qiganligini va turkiy tilda asar yozish niyati tug'ilganini ta'kidlaydi. Dostonda XIV asr oxiri-XV asr boshlarida yuz bergan tarixiy hodisalar Yusuf va Zulayhoning romantik sarguzashtlari orqali tasvirlanadi. Asarda hayotiy, insoniy go'zallik, dunyoviy va diniy ishq-muhabbatning tasviri, halollik va to'g'rilik kabi mavzular yoritiladi. Asardagi ijobiy qahramonlar o'zining xarakteri, ruhiyati, o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu ijobiy qahramonlar Yusuf va Zulayho, I.Yamin, Ya'qub, Bashir shuningdek, Yusufning qutilishga yordam bergan Jabroil obrazlari kiradi. Asarning bosh obrazi Yusufdir. Shoir Yusuf faoliyatini boshlanishidan to oxirigacha batafsil tasvirlaydi.

Yusuf-Ya'qub payg'ambarning kichik o'g'li. Durbek bu obrazni, diniy va insoniy mavzuni uzviy bog'lagan holda tasvirlaydi. Yusuf obrazi ko'p jihatlari bilan Qur'oni karimdagi Yusufga yaqin va ayni paytda ba'zi jihatlari bilan farq ham qiladi. Yusufdagi ijobiy fazilatlar, insonga xos xususiyatlar, uning donoligi, insonparvarligi, xushmuomalaligi, vatanparvarligi, ota-onasiga nisbatan bo'lgan farzandlik muhabbati kabilarda ko'rinadi.

Yusuf-go'zallik timsoli. Otasining sevimli farzandi. Shu sabab ham akalari unga hasad qilishadi. Yusufni chohga tashlashadi. Qul qilib sotishadi, azoblarga giriftor etishadi. Keyinchalik Yusufning hayoti va taqdiri Misr xalqi hayoti bilan bog'lanadi. U Zulayhoning tuhmatlariga chidaydi, zindon azobini boshdan kechiradi, o'tkir muabbirligi-tushni ta'birlay olishi, zindon azobini tortish Misr xalqini ochlikdan xalos etishi, akalari bilan uchrashuvi, Zulayhoga uylanishi, akalarining gunohlarini kechirishi, otasi Ya'qub bilan uchrashishi, Misrni odillik bilan boshqarishi va boshqalar bilan xarakterlanadi.

Asardagi muhim obrazlardan yana biri Zulayhodir. Zulayho-go'zal va ayni paytda o'tli ishq egasi. U Yusufni tushida ko'rib, sevib qoladi. Mag'rib shohi Taymusshoh qizi bo'lgan Zulayho quyidagi qiyofaga ega:

Bir qizi bor edi mahi xovariy,  
Oraziga shamsu qamar mushtariy.  
Yuzi quyosh erdi, vale bezavol,  
Barcha funun bobida sohibkamol .  
Hosili umri edi ul shohning,  
Oti Zulayho edi ul mohning.

Zulayho ishq dardiga muhtalo bo'ladi. Dardi kundan-kun alanganadi. Tushida Yusufning Misrda ekanligini bilgach, Misrga borishga ahd qildi, ota-onasi uni Misrga uzatishadi. U Misr Aziziga duch keladi. Yusuf ishq bilan yashaydi. Zulayho Yusufni sotib oladi, xalqning malomatlariga qoladi. Yusufga tuhmat qiladi. Qiyinchiliklarni sabr bilan engadi va oxir-oqibat Yusufga turmushga chiqib o'g'il-qizlar ko'radi.

Asardagi Ya'qub mehribon ota sifatida namoyon bo'lsa, Bashir va uning onasi obrazlarida shoirning yaxshilik va yomonlik haqidagi qarashlari o'z ifodasini topgan.

Yusuf va Zulayhoning Meshom va Farohim ismli o'g'illari va Rohima ismli qizlari ularning quvonchiga-quvonch, baxtiga-baxt qo'shadi.



Dostondagi salbiy obrazlarni Yahudo boshchiligidagi Ya'qubning katta o'g'illari tashkil etadi. Molik esa savdogarlarning tipik obrazidir.

«Yusuf va Zulayho»da xalq og'zaki ijodining chuqur ta'siri seziladi. Tush ko'rish, tushni ta'birlash, behad go'zallik, hayvonlarning gapirishi, bir zarb bilan toshning gapirishi, toshni ko'tarib otish, yig'laganda giyohlarning unishi, yig'lay-yig'lay ko'zning ko'r bo'lishi, farzandining ko'ylagini ko'ziga surtishi bilan ko'r ko'zning ochilishi kabilarda bularni kuzatamiz.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. «Yusuf va Zulayho» dostoni haqida qanday bahslar mavjud?
2. Durbek haqida nimalarni bilasiz?
3. «Yusuf va Zulayho» syujetining manbalari haqida gapiring.
4. Yusuf qissasi bilan bog'liq qanday asarlar yozilgan?
5. «Yusuf va Zulayho» dostonida qanday masalalar yoritilgan?
6. Dostonning obrazlarini gapiring.

#### **Adabiyotlar:**

1. Darsliklar.
2. Durbek. Yusuf va Zulayho. T.,1959.
3. Uch bulbul gulshani. T.,1986.
4. Qur'oni Karim. T.,2001.
5. e.Bertels. Uzbekskiy poet Durbek i ego poema o Iosif prekrasnom. Almanax; 1944.
6. S.Haydarov. Durbek va uning «Yusuf va Zulayho» dostoni. T.,1959.
7. X.Rasulov. O'zbek klassik she'riyatida xalqchilik. T.,1982.

## 14-mavzu: **HAYDAR XORAZMIY IJODIY MEROSI**

### Reja:

1. Kirish.
2. Haydar Xorazmiy haqida.
3. Haydar Xorazmiy tarjimon sifatida.
4. «Maxzan ul-asror»ning mavzulari va unda qo'yilgan masalalar.
5. «Gul va Navro'z» dostoni xususidagi ba'zi bahslar.
6. «Gul va Navro'z» asarining yaratilishi.
7. «Gul va Navro'z»ning mavzusi va obrazlari.
8. Dostonning badiiy xususiyatlari.
9. Xulosa.

**Mavzuga oid tayanch so'z va tushunchalar:** Haydar Xorazmiy, Bazzoz, «Maxzanul asror», Kufa, Iskandar Sheroziy, Haqparast darvesh, «Fununul balog'a», Kampir, «Gul va Navro'z», Savsan, Farrux, Navshod, Mushkin, Yaldo, Farxor, Shayx Najdiy, Bulbul, Adan, Yaman.

Haydar Xorazmiy XIV asr oxiri-XV asr boshlarida yashab ijod etgan shoirdir. U haqida ma'lumotlar ayrim tazkiralarda, adabiyotshunoslikka oid asarlarda uchraydi. Jumladan, D.Samarqandiyning «Tazkiratush-shuaro», Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» va «Muhokamatul lug'atayn» asarlarini ko'rsatish mumkin.

D.Samarqandiy shunday yozadi: «Sulton Iskandar hukmronligida fozil kishilardan Mavlono Natanziy va Mavlono Haydarlar bor ekan. Mavlono Haydarning turkiy va forsiy tillarda bitgan yaxshi she'rlari bor va u Nizomiyning «Maxzan-ul-asror»iga o'zbek tiliga javob yozib shahzoda Iskandar otiga bag'ishladi».

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, H.Xorazmiy ikki tilda she'rlar yozgan. Ammo ular bizgacha noma'lum qolmoqda. Navoiyning «Majolis un-nafois» asarining 7-majlisida «Mavlono Haydar turkigo'y» deb ta'kidlanadi va misol tariqasida uning quyidagi bayti keltiriladi:

Himmat elidur yadi bayzo degan,  
Er nafasidur dami Iso degan...

Navoiy «Muhokamatul-lug'atayn» asarida ham mavlono Haydar haqida quyidagilarni yozadi: «Shohruh Sulton zamonining oxirigacha turk tili bilan shuaro paydo bo'ldilar va ul hazratning avlod va ahfodidin ham xushtab salotine zuhurga keldi. Shuaro Sakkokiy va H.Xorazmiy va Atoiy va Muqimiy va Yaqiniy va Amiriy va Gadoyideklar». Demak, H.Xorazmiy temuriylardan Umarshayxning o'g'li Iskandar Mirzo hukmronligi davrida yashab ijod etadi. «Maxzan-ul-asror»ning «Musannifning vasfi holi» bobida shoirning ahvoli bayon qilinadi;

Bir kecha g'am birla edim hamnafas,  
Munisu damsozim ul erdi-yu bas.  
Ko'z yoshidin boda, bag'irdin kabob,  
Dardu dilim nuqlu fig'onim rubob.  
Charxi falak tashna bo'lib qonima,  
Dunyayi dun qasd qilib jonima.

Sabr binosini bakulliy buzub,  
Hosili yo‘q umrdin umid uzub.

H.Xorazmiy Ozarbayjon shoiri N.Ganjaviyning «Maxzan-ul-asror» asarini o‘zbek tiliga erkin tarjima qildi. Shoir Nizomiyni bir necha bor hurmat bilan tilga oladi, uning asariga yuqori baho beradi. O‘zini Nizomiyning shogirdi deb biladi.

Ushbu doston axloqiy-falsafiy asardir. Ma’lumki, Nizomiyning ushbu asari 1170 yilda yozilgan bo‘lib, shoirning ijtimoiy, axloqiy, falsafiy qarashlarini ifodalaydi. H.Xorazmiy Nizomiy asarining umumiy ruhini saqlab qoldi. Ayni paytda unga o‘zgartirishlar ham kiritdi. H.Xorazmiyning asari-«kirish», «kitob yozilish sababi», «musannifning vasful holi» kabi qismlardan boshlanadi. Nizomiya voqealar ancha keng tasvirlansa, hajm kattaroq, maqolalar soni 20 ta, payg‘ambarlar ta’rifi kengroq berilib, oldin 20 ta maqolat va undan keyin hikoyatlar keltiriladi. H.Xorazmiyda esa biroz boshqacharoq. Asar hajmi Nizomiynikidan kichikroq bo‘lib, 639 bayt atrofida. Oldin hikoyatlar keltirilib, keyin ularni xulosalovchi misralar beriladi.

H.Xorazmiy o‘z asarida so‘z haqida, so‘zning o‘rni, ahamiyati, qalloblik, ularning oqibatlarini va boshqalar xususida mulohazalar yuritiladi. Shoir kichik hikoyatlar orqali odob-axloq, olijanoblikni, mehnat ahlini ulug‘laydi. Shoir tug‘ilish va o‘lish, eskirmoq va yangilanish haqida o‘z qarashlarini bayon etadi. Asarda «Sulaymon shoh haqidagi hikoyat» «Pulini yo‘qotgan kishi» hikoyati, «Savdogar va bo‘z to‘quvchi kampir» hikoyati g‘oyatda ibratlidir.

Oqil agar so‘z bila so‘zni yopar,  
Orif o‘shul so‘zda o‘zini topar.  
Ulki bilur so‘z guhari qiymatin,  
So‘zda topar so‘zlaguvchining otin.  
Ahli nazar shevasini so‘z bilur,  
Nuri basar mevasini ko‘z bilur.  
Zohiru botin xabari so‘z dadur,  
O‘zgada yo‘q har neki bor o‘z dadur.  
Ul kishikim, topmadi so‘z ganjini,  
Qildi habovu hadar o‘z ranjini.  
Kimki nazar manzaridin yumdi ko‘z,  
Qo‘ymadi meros o‘zidin g‘ayri so‘z.

H.Xorazmiyning «Savdogar va bo‘z to‘quvchi kampir» hikoyati 43 baytdan iborat. U tuzilishi, obrazi, syujeti bilan mustaqil badiiy asar sanaladi. Hikoya asosida o‘sha davrdagi hayotiy voqea yotadi. Bir beva kampir ochlikdan zor qaqshagan bolalariga non topish uchun ikki hafta tinimsiz mehnat qilib, bo‘z to‘qiydi-da, savdogarga olib keladi. Savdogarga arzi hol qilib, tegishli pul to‘lab, sotib olishini so‘raydi. Savdogar kampir bo‘zini «dag‘al, qo‘pol, kiyimga yaroqsiz» deb erga urib sotib oladi. Bir xaridor esa katta haq to‘lab savdogardan bo‘zini sotib oladi. Buni kuzatgan donishmand haqqarast chol savdogarni xijolat qilishi bilan hikoya tugaydi.

Savdogar-firibgar, insofsiz kishilar timsolidir. Kampir asarda nihoyatda nochor, ayanchli, kishini rahmini keltiradigan holda tasvirlanadi:

Bo‘yi ikki qat bo‘lib, arqosi ko‘z,  
Bo‘yyu boshi ra’sha bilan beqaror.

Dam urishi, yo'l yurishi murdavor.  
Ne ko'zida nuru, ne og'zida so'z,  
Dunyosidan qo'ynida bir vusla bo'z...

### «Gul va Navro'z» dostoni

«Gul va Navro'z» dostoni 1411 yilda yozilgan. Bu asarning muallifi masalasi adabiyotshunoslarimiz orasida ko'plab bahslarga sabab bo'lmoqda. Ko'plab olimlarimiz bu asarni Lutfiy qalamiga mansub deb kelgan edi. Va u keng kitobxonlarga Lutfiy asari sifatida tanildi. 1970 yillarda yuqoridagi qayd etilgan va ko'plab boshqa olimlarimiz «Gul va Navro'z» muallifi xususida bahslar olib borishdi. Bu narsa ayniqsa 70- yillarda yana ham faollashdi. Keyingi yillarda chop etilgan o'rta maktab darsliklarida esa «Gul va Navro'z» muallifi noma'lum asarlar sifatida berildi. Bir guruh olimlarimiz esa (jumladan, professor A.Hayitmetov 1998 yil 17 aprelda chop etilgan maqolasida ham) «Gul va Navro'z»ning muallifi sifatida H.Xorazmiyni ko'rsatishadi. Ahmad Taroziyning «Fununul balog'a», Boburning «Aruz risolasi»da «Gul va Navro'z»ning muallifi Haydar Xorazmiy ekanligi xususida qaydlar berilgan. (Bu haqda qarang: Ahmad Xudoydod Taroziy. «Fununul balog'a». «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali, 2001, 1-6-son). «Gul va Navro'z» dostoni Temurning nabiralaridan bo'lgan Iskandar Mirzo topshirig'i bilan yozilgan. Dostonda u madh etiladi. «Gul va Navro'z» dostonining bosh mavzusi-ishq-muhabbatdir. Unda Gul va Navro'zning samimiy sevgisi, ishqdagi sadoqati, ularning sarguzashtlari orqali yoritilib beriladi. Asardagi Navro'z, gul, bulbul va boshqa obrazlar ma'lum bir ramzga ega. Bahor, Navro'z, go'zallik-sevimli bayram hisoblanadi. Navro'z madhiyasi xalq og'zaki ijodi asarlarida, yozma adabiyotda ham bayon etilgan. Umar Xayyomning «Navro'znoma», Hoju Kirmoniyning «Navro'z va Gul» asarlari shular jumlasidandir.

Turkiy adabiyotda Navro'z mavzusida bitilgan ilk doston «Gul va Navro'z»dir. Dostonda uning mavzusi, voqealar rivoji, obrazlarga xos sifatlar, xususiyatlar, badiiy tasvir vositalarini berishda xalq og'zaki ijodining katta ta'siri seziladi. Navshod elining shohi Farrux «cheriki benihoyat», «adlu dodi mashhur», ammo bir farzandga orzumand kishi:

Qamug' olamda adlu dodu mashhur,  
Cheriki benihoyat mulki ma'mur...  
Jahonda bir o'g'ilga orzumand,  
Mungi yo'q hech nimadan g'ayri farzand.

Navro'z yoshligidan har jihatdan mukammal bo'lib o'sadi. Shoir ta'kidlaganidek:  
Kichik yoshdin qamug' fanlarni bildi,  
Ko'pin o'z aqli birla fahm qildi.

Navro'z go'zal yigit edi. Xalq og'zaki ijodida bo'lganidek, u ham ko'zguda o'zini ko'rib o'z-o'ziga oshiq bo'ladi:

Tiladi ko'zguyu, ko'rdi yuzini,  
O'zindin bordiyu, sevdi o'zini.

Xalq og‘zaki ijodida bo‘lgani kabi «Gul va Navro‘z»da ham tush muhim o‘rin tutadi. Navro‘z gulni tushida ko‘radi, gaplashadi. Uning Farxor mamalakatidan ekanligini biladi. Gulni sevib, hajrida «o‘zin erga urib ko‘p yig‘laydi»:

O‘zin erga urib ko‘p yig‘ladi zor,  
Yig‘idin o‘zga xud ne chorasi bor.

Dostondagi Gul obrazi ham ko‘proq folklorda ishlangan ijobiy xotin-qizlar obraziga o‘xshaydi. Bu narsa, avvalo, uning aqlu-kamolotida va husnida ko‘rinadi. Uning «Uzori aksidan oy xira bo‘lgay».

Uzori aksidin oy xira bo‘lg‘ay,  
Yuzi o‘trusida kun tiyra bo‘lg‘ay.  
Kamolidin rivoyat qilsa bo‘lmas,  
Jamolidin hikoyat qilsa bo‘lmas.

Sharq xotin-qizlarida hayo, iffat nihoyatda e‘zozli tuyg‘u hisoblanadi. Ko‘pincha nozik tuyg‘ular sir saqlanadi. Ayniqsa sevgisini ota-onasiga oshkora etish, ishq iztiroblarini boshqalarga sezdirish uyat sanaladi, hurmatsizlik sifatida talqin etiladi. «Gul va Navro‘z» sifatini eshitib oshiq bo‘lib qoladi. Uning esidan ozganini ko‘rib, Savsan malomat qiladi:

Gar andin fikr qilmassen sen oxir,  
Otang birla onangdin iyman oxir.

Gul xalq ertaklaridagi qahramonlar singari shijoatliligi, botirligi, mardligi bilan ajralib turadi. Ular dengiz halokatiga yo‘liqadi, qiyinchiliklarni engishadi.

Gul Adan yo‘lidagi ikki xatar: arslonlar va ajdaholar makonidan o‘tishi kerak edi. Gul arslonlar makon tutgan yo‘lni tanlaydi, arslonlar bilan jang qiladi. Yaman bahodiri Bahrom bilan yakkama-yakka jangda uni engadi. Dengiz halokati tufayli Gul va Navro‘z boshqa-boshqa joyga borib qoladilar. Gul Adanga, Navro‘z Yamanga borib qoladilar. Yakkama-yakka olishuv jarayonida Gul va Navro‘z bir-birini tanib qolishadi. Gul va Navro‘z to‘yiga izn beriladi. 4 podshoh: Navshod, Farxor, Adan, Yaman shohlari podsholikni Navro‘zga topshirishadi, Navro‘z yurtini odillik bilan boshqaradi.

Dostonda Yaldoyi Zangi, Shayx Najdiy, odamxo‘r dev kabi salbiy obrazlar bor. Yaldo-yovuz, xunxor, ichib qon qonmag‘uchi, o‘zi yaldo tunidek qop-qora. Mana uning portreti:

Oti Yaldo, o‘zi yaldo tunidek,  
Ko‘zi do‘zax, bo‘yi mahshar kunidek.

U ma‘nan sayoz, maqtanchoq bir kimsa. O‘zini er yuzining podshohidek tutadi:

Tutub Yaldo o‘zin xoqoni Chindek,  
Na xoqonkim, shahi ro‘yi zamindek.

Asardagi Shayx Najdiy riyokor, aldamchi, xoin insonlar obrazi sifatida yaratilgan.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Haydar Xorazmiy qaysi davrda yashagan?
2. Shoir merosi haqida gapiring.
3. Haydar Xorazmiyning tarjimonlik faoliyatini gapiring.
4. «Bo‘z to‘quvchi kampir va bazzoz» hikoyatini tahlil qiling.

5. «Gul va Navro‘z» haqida qanday bahslar bo‘ldi?
6. Uning Haydar Xorazmiy asari ekanligini qaysi manbalar asoslaydi?
7. Sharq adabiyotida bu syujetning ishlanishi qanday?
8. Dostondagi obrazlarning ramziyligi nimada?
9. «Gul va Navro‘z» dostonida xalq og‘zaki ijodining ta’siri nimalarda ko‘rinadi?

#### **Adabiyotlar:**

1. A.Hayitmetov. Dilimizga juda yaqin. O‘zAS gazetasi. 1998 y. 17-aprel.
2. A.Rustamov. «Gulu Navro‘z»ning muallifi to‘g‘risida. «O‘zbek tili va adabiyoti» jurnali. T.,1972. 3-son.
3. Ahmad Taroziy. Fununul balog‘a. «O‘zbek tili va adabiyoti» jurnali. 2002 yil. №1-6.
4. B.Valixo‘jayev. Yana «Gul va Navro‘z» bahsiga doir. «O‘zbek tili va adabiyoti» jurnali. T.,1979. 1-son.
5. Darsliklar.
6. E.Fozilov. Lutfiyning «Gul va Navro‘z»i haqida. «O‘zbek tili va adabiyoti» jurnali. T.,1972. 2-son
7. E.Rustamov. Uzbekskaya poeziya v pervoy polovine XV veka. Moskva, 1963.
8. Hodi Zarif. Navoiy zamondoshlari. T.,1948.
9. J.Sharipov. O‘zbekistonda tarjima tarixidan. T.,1965.
- 10.Lutfiy. Devon. Gul va Navro‘z. T.,1965.
- 11.Lutfiy. Sensan sevarim. T.,1987.
- 12.N.Abdullayev. Haydar Xorazmiy va uning «Maxzan ul-asror»i. T.,1974.
- 13.Navoiyning nigohi tushgan. T.,1986.
- 14.R.Vohidov, H.Eshonqulov. Mumtoz adabiyot-hikmat xazinasi. Buxoro-2001.
- 15.S.Erkinov. Yana «Gul va Navro‘z»ning muallifi haqida. «O‘zbek tili va adabiyoti» jurnali. T.,1972. 2-son.
- 16.X.Rasulov. «Gul va Navro‘z» dostonining badiiy xususiyatlari va folklor. «Adabiy meros». T.,1972 y. 9-son.
- 17.Yo. Ishoqov. «Gul va Navro‘z»ning muallifi masalalari. «O‘zbek tili va adabiyoti» jurnali. T.,1972. 1-son.

## 15-mavzu: ATOIY HAYOTI VA IJODI

R e j a:

1. Kirish.
2. Atoiy haqida .
3. Atoiy merosini o‘rganish tarixidan.
4. Atoiy lirikasi.
5. Atoiy she‘riyatida badiiy tasvir vositalari.
6. Atoiy lirikasi va xalq og‘zaki ijodi.
7. Xulosa.

**Mavzuga oid tayanch so‘z va tushunchalar:** Atoiy, Oshiqona g‘azallar, Otoi, Diniy-tasavvufiy g‘azallar, Balx, Badiiy vosita, Ismoil ota, She‘riy san‘atlar, Turkona, She‘riyat va xalq og‘zaki ijodi, Ramali musammani maqsur.

Atoiy XV asr birinchi yarmiga mansub shoirlarimizdan biridir. U bu davrda yashab ijod qilgan Haydar Xorazmiy, Gadoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Durbek, Hofiz Xorazmiy va boshqa shoirlar qatori turkiy adabiyotning rivojlanishiga, keyinchalik Navoiydek buyuk zotning yetishib chiqishiga zamin hozirlaydi. Atoiy haqida Navoiyning «Majolis-un nafois» va «Muhokamat-ul lug‘atayn» asarida, Yaqiniyning «O‘q va yoy» munozarasida ma‘lumotlar berilgan.

1921 yil rus sharqshunos olimi Samoylovich Atoiy devonini topib, u haqda bir maqola chop ettirdi. U shoir g‘azallaridan 17 tasini birinchi bo‘lib chop ettiradi. Keyinchalik Atoiy merosi bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshirildi. A. Fitrat, H.Zarif, A. Hayitmetov, E. Rustamov, Oybek, N. Mallayev, E. Ahmadxo‘jaev, N.Davronov, I.Haqqul, X.Rasulov, S. Rafiddinov va boshqalarning ishlari shular jumlasidandir. Shuningdek, Ko‘prilizoda, Ekman, Rosse, Bombachi kabi chet el olimlari asarlarida ham Atoiy haqida ma‘lumotlar berilgan. Bu ishlarda Atoiy ning diniy va tasavvufiy g‘azallari tadqiqiga yetarlicha e‘tibor berilmagan. (Izoh: Ma‘ruza matnini tayyorlashda asosan S. Rafiddinovning «Majoz va haqiqat» nomli kandidat. diss. asosida nashr etilgan kitobiga suyanildi).

Mavlono Atoiy dan bizgacha 260 ta turkiy g‘azallarini o‘z ichiga olgan devon yetib kelgan. U Sankt-Peterburgdagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida saqlanadi.

Atoiyning hayoti va ijodi haqida yetarlicha ma‘lumot saqlanib qolmagan. Navoiyning «Majolis-un nafois» asarida Atoiy haqida quyidagi ma‘lumotlar yozilgan. «Mavlono Atoiy Balxda bo‘lur erdi. Ismoil ota farzandlaridandir, darvesh, va xushxulq va munbasit (ochiq ko‘ngil, xushhol, shod-xandon) kishi erdi. Turkigo‘y erdi. O‘z zamonida she‘ri atrok (turklar) orasida ko‘b shuhrat tutti va bu matla‘ aningdurkim:

Ul sanamkim suv qirog‘inda paridek o‘lturur,  
Foyati nozukligidin suv bila yutsa bo‘lur.

Qofiyasida aybg‘inasi bor. Ammo mavlono ko‘b turkona (sodda va xalqona) aytur erdi. Qabri Balx navohisidadur».

Navoiyning bu ma'lumotidan aniqlanadiki, Atoiy naslu nasab jihatidan bir-ikki avlod orqali Ahmad Yassaviyga yaqin turgan. Mashhur shayxlar-otalar avlodidan bo'lgani uchun o'ziga «Atoiy» taxallusini tanlagan. Ma'lumotlarga ko'ra, Atoiy Balx, shuningdek, Hirot va Samarqandda uch temuriy shahzodalar-Mirzo Shohruhning o'g'li Muhammad Jo'qiy, Ulug'bekning o'g'li Abdullatif, Boysunqur Mirzoning o'g'li Alouddavlalar davrida yashagan. Umuman, Atoiy ning, tarjimai holi xususida quyidagilarni xulosa tarzida bayon etish mumkin:

Atoiy qaerda va qachon tug'ilganligi, asl ismi noma'lum.

Uning nasl-nasabi mashhur shayxlar-Ismoil ota, Ibrohim ota, Ahmad Yassaviylarga borib taqaladi.

Atoiy ning Samarqand, Toshkent, Turkiston shaharlarida yashaganligi, yashagan bo'lsa qancha muddat turganligi aniq emas.

Atoiy ning taxallusi hozirda Atoiy , Atoiy, Otoy, Otoy tarzida har xil yozib kelinmoqda. Bularning qaysi to'g'ri ekanligi matbuotda jiddiy munozaralarga olib keldi. Ko'plab bahslar, munozaralarga bu so'zning o'zagi, qo'shimchalari haqida fikr yuritildi. Olimlarimiz Atoiy shaklida tadbiiq etish va atash haqiqatga muvofiq deb hisoblamoqdalar.

Atoiy g'azallari devonda tartib bilan joylashtirilgan. Shoir lirik merosining umumiy hajmi 1718 bayt-3436 misrani tashkil etadi.

5 baytli g'azallar -58 ta, olti baytli g'azallar -6 ta, yetti baytli g'azallar -187 ta, 9 baytli g'azallar -8 ta, 11 baytli g'azallar -1 ta. Atoiy g'azallarining 109 tasi ramali musammani maqsur vaznida yozilgan.

XV asr birinchi yarmida ko'plab shoirlar qatori Atoiy ham turkiy g'azalchilikning rivojlanishiga munosib ulush qo'shdi. Bu davrda ham g'azal janri yetakchilik qildi. Shoir g'azallari mavzu jihatdan rang-barang. Ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

Oshiqona g'azallar.

Diniy-tasavvufiy g'azallar.

Peyzaj xarakteridagi g'azallar.

Sharq lirikasida ishq-muhabbatni kuylash asosiy mavzulardan bo'lib kelgan. Atoiy g'azallarining ham bosh g'oyasi va asosiy ohanglarini ishq va u bilan bog'liq kechinmalar tashkil etadi. Shoir ta'biricha, ishq «gavhari qimmatbaho», «azaliy hidoyat»dir. Atoiy g'azallarida faqat dunyoviy ishq va u bilan bog'liq kechinmalargina kuylangan emas. Haqiqiy ishq kuylangan g'azallar ham bor. Shoir haqiqiy ishqni kuylaganda go'zallik, hayot, koinot, inson haqida fikr yuritib, ularni ta'riflaydi va ulug'laydi. Shoir hayo, umrning o'tkinchi, g'animatligini ta'kidlaydi. Atoiy g'azallarida majoz va haqiqat o'ziga xos tarzda uyg'unlashadi. Majozda oshiq va ma'shuqlar haqiqiy insonlar bo'lib, ularning bir-biriga muhabbat izhori, oshiq iztiroblari, ma'shuqning tashqi va ichki go'zalligi, xarakter hususiyatlari hayotiy tarzda gavdalanadi. Ishqi haqiqiyda esa, oshiqning ilohiy visolga intilishi, murshid va muridlik munosabatlari, faqru fanolik, oshiqni kamolga etkaradigan turli vositalar, so'fiyona axloq kuylanadi. Atoiy ni ba'zi g'azallarida ma'juziy ishq, ba'zilarida sof ilohiy ishq, ayrim g'azallarda majuziy ishq bilan haqiqiy ishq qorishib tasvirlanadi.



Shoirning ilohiy ishq vasf etilgan gʻazallari majoziy mazmundagi gʻazallaridan ohangi, obrazlari, mazmuni bilan farq qiladi. Bunday gʻazallardagi «xol», «zulf», «gul», «bulbul», «raqib», «may», «mayxona», «dilbar», «husn», «shohid», «oshiq», «maʼshuq» kabi obrazlar oʻzgacha maʼno kasb etadi.

Atoiy ning:

Har necha boʻlsa yorda kibru anovu martabat,  
Bandadin olida hamin faqru niyozu maskanat...  
Ulki derlar jumlai olamda gʻolib husn erur,  
Muntaxoyi vosili matlubu tolib husn erur...

Ayoqing tuprogʻi birla qasamkim,  
Manga sensiz pari qaysi, sanam kim?-

deb boshlanuvchi uch gʻazali tasavvufiy gʻazallar sifatida talqin etiladi. Ayrim gʻazallarning esa baʼzi baytlari shu ruhda.

Jannatda gar tajallii husningni koʻrmasam  
Kavsar suvi sugʻolsinu ham hur boʻlmasin.

Oshiq maʼshuqasi sifatini beradi. Uning goʻzalligini ulugʻlaydi. Goʻzal nozu ishvasi bilan goʻzal:

Diloromeki nozu sheva bilmas,  
Daraxtedurki, hech bargu bari yoʻq.

Vafo haqida Atoiy koʻp yozadi:

Vafosiz dilrabodin Tengri bezor  
Agar husn ichra jannat huri boʻlsa.

Atoiy gʻoyaviy-badiiy niyati, falsafiy mushohadalari va ishqiy kechinmalari tabiat tasviri, bahor va uning jozibakorligi bilan bogʻlab tasvirilaydi. Bahorning soʻlimligi, gul, bulbul, gʻuncha, boʻston, soqiy, sarv bodi sabo, mayi gulgun, bogʻ, rayhon, sunbul, savsan, qizil gul, nargis kabi poetik obrazlar shoir maqsadini ifodalashga xizmat qiladi.

Atoiy lirikasi badiiy tasvir vositalarining koʻp qoʻllanganligi bilan ham xarakterlanadi. Bunda juda koʻp anʼnaviy obrazlar, mifologik obrazlar, paygʻambarlar obrazlari koʻzga tashlanadi. Maʼshuqa, oshiq oʻzlarining turli sifatlari bilan pariga, Xizr, Yusuf, Yaʼqub, Farhod, Shirin, Iso, Ayyub va boshqa obrazlarga qiyoslanadi. Atoiy juda koʻp maʼnaviy va lafziy sanʼatlardan ham foydalangan. Iyhom, tajohuli orif, talmeh, tamsil, lafu nashr, mubologʻa, tashbeh, lugʻz kabi maʼnaviy sanʼatlar, takror, tardi aks, tarse, tajnis, ishtiyoq kabi lafziy sanʼatlar shular jumlasidandir. Iyhomga misol:

Ne shirin oʻgʻridur ogʻzing olib koʻnglumni toʻyguncha,  
Yoshundi har necha soʻrsam, topilmas infiolindin.

Tajohuli orif:

Mengiz yo ravzai rizvonmudur bu?  
Ogʻiz yo gʻunchai xandonmudur bu?

Mubolagʻa:

Firoqingda koʻzum sarchashmasindin,  
Qilurman har qayon boqsam tengizlar.

Umuman, Atoiy she'riyati xalqimiz tomonidan sevib o'qilaveradi.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Atoiy kim?
2. Atoiy haqida qaysi manbalarda ma'lumot bor?
3. Atoiy so'zining yozilish bahslari nima bilan bog'liq?
4. Atoiy merosining o'rganilishi haqida gapiring.
5. Atoiy devonining o'ziga xosligi nimada?
6. Shoir she'riyati mavzularini gapiring.
7. Atoiy badiiy mahorati haqida tushuncha bering.
8. Shoir merosi maktabda o'rganiladimi?
9. Atoiy merosini o'rgangan olimlardan kimlarni bilasiz?
10. Shoir g'azallaridan uchta, beshta yoddan ayta olasizmi?

**Adabiyotlar:**

1. Darsliklar.
2. O'toyi. Tanlangan asarlar. T., 1960.
3. Hayot vasfi. T., 1988.
4. Navoiyning nigohi tushgan. T., 1986.
5. Hodi Zarif. Fozillar fazilati. T., 1979.
6. E. Rustamov. Uzbekskaya poeziya v pervoy polovine XV veka. M., 1963.
7. Hayitmetov. Navoiy lirikasi. T., 1961.
8. Hayitmetov. Meros va ixlos. T., 1985.
9. Haqqulov. She'riyat-ruhiy munosabat. T., 1990.
10. S. Rafiddinov. Majoz va haqiqat. T., 1995.
11. Tohir Rashid Xo'ja. Atoiy lirikasi va xalq og'zaki ijodi. Til va adabiyot masalalari to'plami. T., 1993.

## 16-mavzu: SAKKOKIY IJODIY MEROSI

Reja:

1. Kirish.
2. Sakkokiy haqida.
3. Sakkokiy she'riyati.
4. Shoir qasidalari.
5. Xulosa.

**Mavzuga oid tayanch so'z va tushunchalar:** Sakkokiy, Hamd, Munojot, Turkiston, Na't, Muftahid, Qasida, Xalil Sulton, Oshiq, Ulug'bek, Ma'shuqa, Arslon Xo'ja Tarxon, Raqib, Xo'ja Muhammad Porso.

Ulug' shoirimiz Alisher Navoiygacha bo'lgan davrda turkiy tilda ijod etgan bir qancha shoirlar yetishib chiqdi. Ana shulardan biri Sakkokiydir.

Sakkokiy XIV asrning oxirgi choragi va XV asrning birinchi yarmida Movarounnahrda yashab ijod etgan. Bu haqda Navoiy shunday yozgan edi: «... Uyg'ur iboratining fusahosidin va turk alfozining bulag'osidin Mavlono Sakkokiy va Mavlono Lutfiy... kim, birining shirin bayoti ishtihori Turkistonda bag'oyat va birining latif g'azaliyoti intishori Iroq va Xurosonda benihoyatdurur, ham devonlari mavjud bo'lg'oy». Demak, Sakkokiyning shuhrati Turkistonda ancha mashhur bo'lgan. Shoirning yashagan davri, asosan, Movarounnahrda Xalil Sulton va Ulug'bek hukmronligi yillariga to'g'ri keladi.

Sakkokiyning hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlar juda oz. Bu haqda uning o'z qo'lyozma devoni va boshqa mualliflar asarlarida ma'lumotlar uchraydi. Navoiy o'zining «Majolis un-nafois» asarida Sakkokiy haqida quyidagilarni yozadi: «Mavlono Sakkokiy Movarounnahrdir. Samarqand ahli anga ko'p mu'taqiddurlar va bag'oyat ta'rifin qilurlar». Yaqiniy o'zining «O'q va yoy» munozarasida Sakkokiy nomini tilga oladi. U shunday yozadi: «... yana Sakkokiykim, turk shoirlarining mujtahididir (g'ayratlisi). Mening munosib holimga aytur:.. Nazm:

Jonim fido bo'lsin saning g'amzang o'qiga nechakim,  
Har necha qoshing egmasi o'qtek bo'yimni yo qilur.»

Sakkokiyning 1407-1408 yillarda Xalil Sultonga qasida yozganligini e'tiborga olsak, u XIV asr oxirgi choraklarida tug'ilgan deb taxmin qilish mumkin. Xalil Sulton davlat tepasidan chetlashtirilgandan so'ng, Sakkokiy Ulug'bek saroyida ijod qiladi. Shoir ijodi Ulug'bek davrida kamolga etadi. Sakkokiy Ulug'bekka atab qasidalar yozadi. Uni adolatli, ilm-ma'rifatli hukmdor sifatida ulug'laydi. Uning xalqparvarligini alohida ta'kidlaydi:

Raiyyat qo'y erur, sulton anga cho'ponu yo bo'ri,  
Bo'ri o'lg'oyu, qo'y tingoy, chu Musotek shubon keldi.

Sakkokiy XV asr o'rtalarida vafot etgan. Navoiy Samarqandda bo'lganida uning muxlislari bilan uchrashadi. Tirik bo'lganda ularning uchrashishi ehtimoldan xoli emas edi. Sakkokiy asarlari Xalil Sulton, Arslon Xo'ja Tarxon, Xo'ja Muhammad Porso va Ulug'beklarning tiriklik chog'larida yozilgan. Sakkokiy she'rlari orasida

Ulugʻbekning oʻlimi haqida hech narsa uchramaydi. Bu esa Sakkokiy Ulugʻbek fojiasidan oldin vafot etgan degan taxminga olib keladi.

Sakkokiy lirik shoirdir. U oʻzidan oldin oʻtgan oʻzbek, fors-tojik shoirlari asarlarini puxta oʻrgangan. Ulardan ijodiy foydalangan. Sakkokiyning toʻliq devoni bizgacha yetib kelmagan. Bizgacha yetib kelgan sheʼrlari uning isteʼdodli shoir boʻlganidan dalolat beradi.

Sakkokiy devonining bir necha qoʻlyozma nusxalari mavjud. Londonda, Britaniya muzeyida uning taxminan XVI asr oʻrtalarida koʻchirilgan bir nusxasi, Toshkentda Sharqshunoslik institutida 1937 yilda Shoislom kotib tomonidan qandaydir nusxa asosida koʻchirilgan nusxasi saqlanadi. Ular shoir asarlarining bir qismi. Sakkokiy devoni oʻz davrining anʼanalariga muvofiq, xudoga bagʻishlangan hamd, naʼt bilan boshlanadi. Keyin 10 qasida beriladi. Bir qasida naqshbandiy shayxlaridan Xoja Muhammad Porsoga, bir qasida Xalil Sultonga, toʻrt qasida Arslonxoʻja Tarxonga, toʻrt qasida Mirzo Ulugʻbekka bagʻishlanadi. Qasidalardan keyin gʻazallar boshlanadi.

Sakkokiy merosining asosiy qismini gʻazallar tashkil etadi. Fazallarining asosiy mavzui muhabbatdir. Baʼzi oʻrinlarda ilohiy ishqni, tasavvufiy gʻoyalarni ham tasvirlaydi. Insonning dard alamlari, orzu tilaklarini, tabiat tasvirini beradi. Shoir yor va unga sadoqat, hayot lazzatlaridan bahramand boʻlish, oshiqdagi hijron va ayriliq azoblari, visol nashidasini taʼsirchan tarzda, sodda va ohangdor holatda ifodalaydi:

Jon hajr oʻtina tushdi, yana bizni unutm,  
Zulfing kabi qad boʻldi duto, bizni unutm.  
Yoʻq erdi rizo ketgali bir lahza qoshingdin,  
Sendin chu yiroq soldi qazo bizni unutm...  
Sakkokiy ul oy manzilina xud eta bilmas,  
Sen etsang agar anda, sabo bizni unutm.

Lirik qahramon maʼshuqa zolimligidan, vafosizligidan shikoyat qiladi:

Koʻzlaring qattol erur, kipriklaring qon toʻkkuchi,  
Oʻzga ne oʻrgansun ul jallodning hamsoyasi?  
Qildi Sakkokiy qaro zulfing bila savdo base  
Ilkida holi parishonlik erur sarmoyasi...

Yoki:

Tosh bagʻirlik dilbarim Sakkokiy koʻngli kaʻbasin  
Yiqti yolgʻon vaʼda birla ham imorat qilmadi.

Sakkokiy gʻazallarida uch obraz: oshiq, yor va raqib obrazlari koʻzga tashlanadi. Oshiq shoirning oʻzi. U yorning visoliga oshiqadi. Oshqlik iztirob va mashaqqat ekanligini tan oladi:

Ishq ishin Sakkokiy avval bilmayin oson koʻrib,  
Oxiri oʻz jonining ishini dushvor ayladi.

Farhod - oshiq inson. U Shirin yoʻlida togʻ qazishga majbur boʻldi. Sakkokiy lirik qahramoni esa yori uchun jondan kechishga, «jonkan» boʻlishga rozi:

Agar Shirin uchun Farhod ishq koʻhkan boʻlsa,  
Netong Sakkokiy ham, jono, yoʻlungda jonkan boʻldi.

Oshiq ma'shuqasi yonida bo'lsa, har qancha mashaqqat bo'lsa, chidashga qodir.  
Yori bilan birga bo'lsa u har qanday g'amdan qutiladi:

Agar qoshimda o'shal gul uzor bo'lsa edi,  
Fame yo'q erdi, g'amim gar hazor bo'lsa edi.

Lirik qahramon ma'shuqasidan jafo qilmaslikni, va'daga vafo qilishini istaydi:

Bilursankim kechar dunyoyi foni  
Qulunga qilmagil javru jafoni.  
Base ko'p va'dalar qilding bording  
Kel emdi va'daga qilgil vafoni...

Sakkokiy oshiq va ma'shuqaga xos ichki va tashqi sifatlarni yoritishda turli an'anaviy obrazlar, xalq maqollari, hikmatli so'zlar, iboralardan keng foydalangan:

Ko'zung karashma birla, ey yoruqli Sakkokiy,  
Seni o'ltirurman teb, etti turkona.

Yoki:

Yuzi qaro bo'lsun ko'zum, ondin ko'rarmen bu balo  
Yo'q bo'lsun ul ko'nglum mening, hech kirmadi farmonima.

«Devorning ham qulog'i bor», «devor orqasida odam bor» maqoli mana bu baytda singdirilgan:

Nedin bilur el meni «ul oy oshiqidur teb»,  
Chun so'zlamadim hech daru devor qoshida.

Shoir g'azallarining ko'pi 7 baytlidir.

Sakkokiy devonining muhim bir qismini qasidalar tashkil etadi. Qasida elementlari o'zbek adabiyotida ancha ilgari paydo bo'lgan bo'lsada, maxsus adabiy janr sifatida XIV-XV asrda vujudga keldi. Sakkokiy o'zbek qasidachiligining asoschilaridan biri bo'ldi. Manbalarda uning 10, ba'zi manbalarda esa 11 qasidasi yetib kelganligi ta'kidlanadi. Shoir qasidalarining hajmi 11 baytdan 54 baytga qadar. Shoirning Ulug'bekka bag'ishlangan qasidasi e'tiborlidir. Shoir Ulug'bekni ilm, hunar va she'riyatni sevgan olim, adolatli shoh sifatida tasvirlaydi. Uni Aristotel, Platon, Ptolemey, Galen, Ibn Sino va boshqalarga qiyos qiladi. Sulaymon, No'shiravon, Muso va boshqalarga o'xshatadi:

Jahondin kyetti tashvishu mabodiyi amon keldi,  
Xaloyiq, aysh eting bu kun sururu jovidon keldi...  
Raiyyat qo'y erur, sulton anga cho'ponu yo bo'ri,  
Bo'ri o'lg'oyu qo'y tingay, chu Musotek shubon keldi...

Sakkokiyning Arslon Xo'ja Tarxonga bag'ishlangan qasidasi ham xarakterli. Ulug'bekning Amiri kabiri bo'lmish bu kishi Turkistonning Shimoli Sharqiy tomonida joylashgan Sabron shahrida hukmronlik qilardi. U ilmli, shoirtabiat kishi bo'lgan. She'r yozgan. Sakkokiy uni mohir qilichboz, so'z bilimdoni, shoir sifatida ulug'laydi.

Umuman, Sakkokiy g'azallari ham, qasidaları ham sodda yozilgan. Xalq og'zaki ijodining ta'siri aniq seziladi. Shoir asarlari o'zbek adabiyotini yanada boyitdi.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Sakkokiy kim?
2. Navoiy u haqida ma'lumot beradimi?
3. Sakkokiy qaysi davrda yashadi?
4. Sakkokiy merosini o'rgangan olimlardan kimlarni bilasiz?
5. Shoir qaysi janrlarda ijod qilgan?
6. Sakkokiy g'azallarining mavzusi nima?
7. Shoirning qasidanavislikdagi o'ziga xosligi nimada.
8. Shoirning badiiy mahoratini tushuntiring.

#### **Adabiyotlar:**

1. Darsliklar.
2. Sakkokiy. Tanlangan asarlar. T.,1960.
3. Hayot vasfi. T.,1988.
4. Navoiyning nigohi tushgan. T.,1986.
5. E.Rustamov. Uzbekskaya poeziya v pervoy polovine XV veka. M.,1963.
6. Navoiy zamondoshlari. T.,1948.
7. Hodi Zarif. Fozillar fazilati. T.,1979.
8. Ahmad Taroziy. Fununul balog'a. «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali. 2002 yil №2-6.

## 17-mavzu: LUTFIY HAYOTI VA IJODIY MEROSI

### R e j a

1. Kirish.
2. Lutfiy haqida.
3. Lutfiy ijodining o'rganilishi.
4. Lutfiy she'riyati.
5. Shoir she'riyati janrlari va mavzulari.
6. Xulosa.

**Mavzuga oid tayanch so'z va tushunchalar:** Lutfiy, «Zafarnoma», Mavlono, «Sensan sevarim...», Hirot, Zohir ahli shuarosi, Dehikanor, Tuyuq.

Mavlono Lutfiy XIV asrning oxiri XV asrda yashab ijod qilgan turkigo'y shoirdir. Lutfiy ko'pincha «mavlono» atamasi bilan birga tilga olinadi. «O'zbek tilining izohli lug'ati»da Mavlono so'ziga shunday izoh berilgan: «Musulmon sharqida olim va fozil kishilarni, ustozlarni ulug'lab, ularning nomlariga qo'shib ishlatiladigan so'z». Demak, Lutfiy nomiga Mavlono so'zining qo'shilishi o'z zamondoshlarining yuksak e'tibori va hurmatidan dalolatdir. Shoir o'z davrida sharqda juda shuhrat qozonadi.

Alisher Navoiy «Badoiy ul-bidoya»ga yozilgan debochasida Sakkokiy va Lutfiy haqida shunday yozadi: «... birining shirin abyoti ishtihori Turkistonda bag'oyat va birining latif g'azaliyoti intishori Iroq va Xurosonda benihoyat durur ham devonlari mavjud bo'lg'ay». Ko'rinadiki, Sakkokiy ko'proq Movarounnahrda shuhrat topgan bo'lsa, Lutfiy Xuroson, Eron, Iroq tomonlarda shuhrat qozongan va devon tuzgan.

Lutfiyning hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlar ko'p emas. Shoirning tug'ilgan va vafot etgan yillari 1366-1465-66 yillar deb ko'rsatiladi. A.Navoiyning «Majolis un-nafois» asarida yozilishicha, u 99 yil umr ko'rgan. Lutfiy nomi ba'zi manbalarda Lutfillo deb ataladi. Shunga ko'ra uning nomi Lutfillo, shu asosda Lutfiy taxallusini olgan degan xulosa keltiriladi. Lutfiyning tug'ilgan joyi Hirotning Dehikanor degan maskani deb ko'rsatilar edi. Professor A.Hayitmetov «Dilimizga juda yaqin» nomli maqolasida (O'z AS. 1998, 17 aprel) shunday ma'lumotlarni keltiradi: «Lutfiy asli shoshlik (boshqacha aytganda Toshkentlik) bo'lib, taqdir toqazosi bilan qachondir Hirotga borib, o'sha erda o'rnashib qolgan».

Lutfiy haqida ko'pgina manbalarda ma'lumotlar qayd etilgan. Jumladan, Navoiyning «Majolis un-nafois», «Muhokamatul-lug'atayin», «Xutbai davovin», «Nasoyim ul-muhabbat», «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», «Manoqibi Pahlavon Muhammad» singari asarlarida Lutfiyga yuqori baho beradi. Navoiy «Majolis un-nafois»da shunday yozadi: «Mavlono Lutfiy o'z zamonining ma'likul kalomi erdi. Forsi va turkiyda naziri yo'q erdi. Ammo turkiyda shuhrati ko'proq erdi va turkcha devoni mashhurdir va muttazirul javob matla'lari bor. Ul jumladan biri bukim:

Noziklik ichra belicha yo'q tori gisuyi,  
O'z haddini bilib belidin o'ltirur quyi.

Yana biri budurkim:

Sayd etti dilbarim meni oshufta sochtin  
Soldi kamon bo'ynima ikki qulochdin.

Va mavlononing «Zafarnoma» tarjimasida o'n ming baytdin ortiqroq masnaviysi bor. Bayozda yozmagan uchun shuhrat tutmadi. Va lekin forsida qasidago'y ustodlardin ko'pning mushkul she'rlariga javob aytubdur va yaxshi aytibdur. 99 yashadi... bu faqir borasida ko'p fotihalar o'qibdur. Umid ulkim, chun darvesh kishi erdi... Mavlononing qabri shahr navohisida Dehikanordakim, o'z maskani erdi andadur».

Lutfiy haqida D.Samarqandiyning «Tazkirat ush-shuaro», Xondamirning «Habibus-siyar», «Makorimul axloq», Qobuliyning «Tazkirat ut-tavorix», Vozehning «Majmuai mansur va manzum», Shamsiddin Somening «Qomusul-a'lom» asarlarida ham ma'lumotlar uchraydi. O'zbek adabiyotshunosligida Lutfiy merosini o'rganish bo'yicha ancha ishlar amalga oshirildi. Bu jihatdan N.Mallaev, E.Rustamov, Hodi Zarif, Sodir Erkinov, E.Ahmadxo'jayev, A.Hayitmetov, H.Rasulov va boshqa olimlarimizning tadqiqotlari xarkaterlidir.

Lutfiydan juda katta adabiy meros qolgan. Qadimgi manbalarda uning 20 dan ortiq asar yozgani qayd etiladi. Ammo ular bizgacha hali noma'lum qolmoqda. Lutfiy Shohruh Mirzoning taklifi bilan Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarini tarjima qilishga ham kirishgan edi. Uzoq yillar Lutfiyga nisbat berib kelinayotgan «Gul va Navro'z» dostoni adabiyotshunoslarimiz orasida turli bahslarga sabab bo'lib keldi. Ba'zi olimlar uni Lutfiy asari deb baholashsa, keyingi yillarda chop etilgan darsliklarda muallifi noma'lum asarlar sifatida berildi. 1970 yillarda bu mavzu ancha munozaralarga olib keldi. Adabiyotshunoslar Yo.Ishoqov, A.Hayitmetov kabilar esa uni Haydar Xorazmiy asari sifatida qayd etadilar (yuqorida qayd etilgan maqolada ham).

Lutfiy merosining kattagina qismini uning turkiy tildagi devoni tashkil etadi. F.f.doktori, prof.S.Erkinov Lutfiy haqidagi tadqiqotida qadimgi Sharq manbalarida Lutfiyning axloq-odob mavzusida «Mashkun ul-haqoyiq» nomli asar yozganligi eslatilishini qayd etadi. Shuningdek, xo'tanlik Mulla Ismatullaning «Tarixi musiqayun» asarida Lutfiyning musiqa tarixi bilan ham shug'ullanganligi, kuylar bastalaganligi qayd etiladi. 100 yilga yaqin umr ko'rgan shoir barakali ijod qilgani aniq.

Lutfiy avvalo lirik shoirdir. Uning ona tilidagi lirik devoni o'z davridayoq Movarounnahr, Xuroson mamlakatlarida, shuningdek, boshqa joylardagi turkiy tilli xalqlar orasida keng yoyilgan edi. Respublikamizda, Sharqshunoslik institutida, qo'lyozmalar institutida Lutfiy devonining o'nlab nusxalari saqlanadi. Ushbu nusxalar London va Parij nusxalari bilan qiyosiy-tanqidiy o'rganilib, shoirning qator saylanma nashrlari yaratildi.

1987 yilda nashr etilgan «Sensan sevarim...» to'plami keyingi o'n yilliklarda nashr etilgan devondir. Devon sharq she'riyatida yetakchi janr hisoblangan g'azallar, ruboiylar, qit'a va fardlarni o'z ichiga oladi. Devon an'anaga ko'ra hamd, na't she'rlari bilan boshlanib, so'ngra boshqa janrlar beriladi. Devonda Shohruh Mirzo, ba'zi nusxalarida esa Boysung'ur Mirzo nomiga bag'ishlangan qasidalar ham uchraydi.



Shoir merosining yetakchi janri gʻazaldir. Lutfiy sheʼriyatining asosiy mavzusi esa ishqdir. Unda ham oshiqning, ham maʼshuqaning botiniy va zohiriy sifatleri aks etadi. Navoiy «Manoqibi Pahlavon Muhammad» asarida Lutfiy «Zohir ahli shuarosi», yaʼni koʻproq majoziy, hayotiy, dunyoviy ishq-muhabbatni kuylagan shoir sifatida talqin etadi.

Shoir sheʼriyatida diniy-tasavvufiy mavzular ham koʻzga tashlanadi. Majoz va haqiqat uygʻunlashib ketadi. Ollah insonni yuqori darajaga koʻtaradi. Unda oʻz nurini singdiradi. Odam shu qadar buyuk mohiyatki, Ollah uning yuzida oʻz aksini topadi. Quyidagi baytda ana shunga ishora qilinadi:

Ulki husn etti bahona elni shaydo qilgani,  
Koʻzgudek qildi seni, oʻzini paydo qilgani.

Shoir asarlari uning oʻsha davrda keng tarqalgan tasavvuf gʻoyalari taʼsirida boʻlganligini koʻrsatadi. Ollah dunyoni mukammal goʻzallik timsoli sifatida yaratgan. Shoir sheʼriyatida Ollah bilan bogʻliq gʻoyalar tasavvufiy maʼno va timsollar maxsus tadqiqni talab etadi. Lutfiy lirik qahramoni, avvalo oshiq insondir. U goʻzallikda yagona, husn va latofat timsoli boʻlmish maʼshuqani chin yurakdan sevadi. Yor ham Ollah timsoli, ham inson sifatida namoyon boʻladi. Lirik qahramon taʼkidicha, uning haqdan yagona oʻtinchi diydordir:

Haqdin, ey koʻngul, oʻzga nima qilma tamanno,  
Sen xastaga ul erdaki, diydor topilsa.

Oshiq maʼshuqaning eʼtiborsizligidan, mastona koʻzlari bilan uni bexud, devona qilganidan ajablanadi:

Boqmas menga jonona, ajab holat emasmi?  
Boʻldi yana begona, ajab holat emasmi?  
Bexudliku savdo bila qildi meni mashhur,  
Ul koʻzlari mastona, ajab holat emasmi?

Lirik qahramon ayriliq onlarini musibat sifatida qabul qiladi. Firoq uning joniga azob, iztirob keltiradi. Oshiq bu alamlarga sabr bilan chidaydi. Maʼshuqasidan visol va vafo umid qiladi:

Ayo dilbar vafo qilmasmusen sen,  
Bu dardimga davo qilmasmusen sen?  
Qilich birla judo boʻlgancha mendin,  
Boshim tandin judo qilmasmusen sen?

Oshiq yorning vafosizligidan gina qiladi:

Ayttimkim: Bu Lutfiyga jafo qilma vafo qil,  
Ayurki: bizning davrda ul rasm qolibdur.

Lirik qahramon oʻz holatini aniq bayon etadi. Lutfiy uning holatini berishda jonli soʻzlashuvdan, erkalash, yupatish, istehzo, qochiriq mazmunidagi iboralardan mahorat bilan foydalanadi. Oshiq maʼshuqa ozorlaridan zorlanadi:

Lutfiy kim qargʻadi: «Yo rab, balogʻa uchra» deb,  
Kim, seningdek toshbagʻirlik dilraboga uchradi.

Lutfiy sheʼriyatida xalq urf-odatleri, xalq hayoti bilan bogʻliq manzaralar, xalq maqollari singdirilgan baytlar koʻp uchraydi. Shoir sheʼriyatida mifologik, anʼnaviy,

paygʻambarlar va boshqa obrazlar anchagina koʻzga tashlanadi. Xizr, pari, dev, Yusuf, Iso, Yaʻqub, Farhod, Shirin kabi obrazlar shular jumlasidandir.

Dilbar sogʻinmagʻon jihati bu firoq ermiş,  
«Koʻzdin yiroq boʻlsa, koʻngildin yiroq» ermiş.

Yoki:

Yerga kirsam koshki, chun etmas ul oyga ilik  
Mushkul ahvole tushubdur: «Yer qatigʻu koʻk yiroq».

Lutfiyning qitʻalari, ruboiylarida odob-axloq mavzusi ham koʻzga tashlanadi.  
Ammo shoir gʻazallarida boʻlgani kabi, bu janrlarda ham asosiy mavzu ishqdır.

Ruboiy:

Ul mening joni jahonimgʻa salom,  
Jondin ortuq mehribonimgʻa salom.  
Bir zamon xoli emasmen yodidin,  
Munisi joni ravonimgʻa salom.

Tuyuq:

Bir nazar qildim, qul oʻldum oya men,  
Ul sababdin jonu dilni oyamen.  
Gar meni shohimga etkursa xudoy,  
Hazratingda sarguzashtim oyamen.

Qitʻa:

Bermagʻil derlar vafosizga koʻngul  
Kim, aning noʻshindin ortuq neshi bor.  
Uzmagaymen laʻlidin oʻlsam umid,  
Jon mening jonim, kishining neshi bor.

Fard:

Shakar irning sari koʻz necha boqsun,  
Agar hech boʻlmasa koʻz haqqi yoʻqmu?

Umuman, Lutfiy sheʻriyati oʻzining soddaligi, ohangdorligi, xalq hayotiga yaqinligi bilan eʻtiborlidir.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Lutfiy kim?
2. U haqdagi yangi maʼlumotlar nima?
3. Shoir merosi haqida gapiring.
4. Lutfiy ijodining oʻrganilishi qanday?
5. Lutfiy devoni haqida gapiring.
6. Navoiy va Lutfiy munosabatini tushuntiring.
7. Shoir sheʻriyatining janr va mavzularini gapiring.
8. Lutfiy gʻazallarining obrazlari kimlar?
9. Tuyuqlaridan tahlil qiling.
10. Shoir baytlarini tahlil qila olasizmi?
11. Akademik B. Valixoʻjayevning Lutfiy haqidagi qaysi tadqiqotlarini oʻqigansiz?
12. Shoir ijodidan nechta sheʻr bilasiz?

### **Adabiyotlar:**

1. Darsliklar.
2. Lutfiy. Sensan sevarim. T.,1982.
3. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. T.,1966.
4. Hodi Zarif. Lutfiy va Navoiy. Ulug‘ o‘zbek shoiri. To‘plam T.,1948.
5. Navoiy zamondoshlari xotirasida. T.,1984.
6. E.Rustamov. Uzbekskaya poeziya v pervoy polovine XV veka. M.,1963.
7. S.Erkinov. Lutfiy T.,1965.
8. A.Hayitmetov. Navoiy lirikasi. T.,1961.
9. A.Hayitmetov. Meros va ixlos. T.,1987.
- 10.A.Hayitmetov. Dilimizga juda yaqin. O‘z AS gazetasi. 1998 yil, 17 aprel.
- 11.E.Ahmadxo‘jaev. Turkiy nazmning sehgari T.,1992.
- 12.Buyuk siymolar, allomalar. 2-kitob T.,1996.
- 13.B.Valixo‘jayev. Lutfiy va Navoiy. Samarqand, 1999.
- 14.Ahmad Taroziy. Fununul balog‘a. «O‘zbek tili va adabiyoti» jurnali. 2002 yil. №1-6.